Аннотация. В данной статье разработаны эффективные методы и решения, связанные с разработкой логистического метода размещения городских пассажирских транспортных маршрутов и эффективным размещением городских пассажирских транспортных маршрутов, автобусов, маршрутных такси, а также решением проблем развития городского транспорта и обеспечения их работы в конкурентных условиях. Также разработаны предложения по более полному удовлетворению спроса населения на пассажирские перевозки и смягчению пробок за счет использования логистического метода.

Ключевые слова: транспорт, сервис, перевозка, логистика, пробки.

Kirish

ISSN 3030-3907

Shahar yo‘lovchi transporti tizimi zamonaviy urbanizatsiya sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim infratuzilmaviy sohaga aylanmoqda. Aholiga transport xizmatlari ko‘rsatishda samaradorlikni oshirish, xizmat sifati va xavfsizligini ta'minlash, turli transport turlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni muvofiqlashtirish zamonaviy yondashuvlarni talab etmoqda. Shahar jamoat transporti – ayniqsa avtobus harakati – shahar ijtimoiy-iqtisodiy hayotining uzviy elementi bo‘lib, uning samarali faoliyat yuritishi aholi harakatchanligini, ijtimoiy tenglikni va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi [1].

Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, transport tizimida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi integratsiya jarayonlari, raqamlashtirish va logistika tarmoqlari rivojlanishi shahar transporti faoliyatini strategik boshqarishni talab etmoqda. Shu sababli yagona, funksional va integratsiyalashgan shahar yo‘lovchi transporti tizimini shakllantirish masalasi dolzarb sanaladi [2]. Ayniqsa, Andijon aglomeratsiyasi kabi yirik va zich aholi yashaydigan hududlarda jamoat transporti harakati uzluksizligini ta’minlash, transport harakatini jadallashtirish va harakat jadvalini yo‘lovchilar oqimi bilan muvofiqlashtirish alohida e’tibor talab qilmoqda. Dunyoning shaharlarida odamlarni ko‘payshi ularga yangi avtobus yo‘nalishlarni ochishni, kichik hajimli yo‘nalishdagi taksilar bilan xizmat ko‘rsatishda tirbandlikni ortishi va ekspluatatsion tezliklarni kamayishiga olib kelmoqda.Shahar axolisini talabi shundaki ular uchun yashash joyidan transportga chiqishigacha bo‘lgan masofani imkon qadar qisqartirishni jamoat transport turidan, avtobus tashish narxini arzon bo‘lishi va qatnovi doimiy (reguliyarniy) uzluksiz qatnashini ta`minlash bo‘yicha muammoni logistik nuqtai nazardan hal qilishni talab etadi. Muammoni xal qilish uchun avtobusni bir moromda ishlashi uchun dotatsiya yoki subsidiya kerak bo‘ladi [3].

Buning uchun avtobuslar qatnovida 24 foiz avtobus yo‘nalishi zararga ishlashi, zararni qoplashni (poytaxt shaharlardan tashqari)da imkoni yo‘qligi sababli, ishga chiqayotgan avtobuslar sonini va aylanma mablag`ni kunsayin qisqarishiga olib kelmoqda, piravord natija yo‘lovchilarni avtobusni kutmay ishonchi yo‘qolib boshqa turdagi xarakat vositalariga o‘tib ketishi kuzatildi [4].
Kun sayin yo‘lovchi tashish jarayoniga yengil avtomobil saroyini ortishi bilan bir qator muammlarini keltirib chiqarmoqda. Jumladan: yengil taksilar kira xaqini pasayshi ular sonini ortishi, avtobus yo‘nalishida raqobatchi sifatida faoliyot ko‘rsatib, avtobusni yo‘lovchi oqimini tortib olib, ularning tashish tannarxini ortirib ularni ko‘p yo‘nalishlarda zararga kirib qolishga olib kelmoqda [5]. Muammolar: bu avtobusni aylanma fondini kun sayin qisqartirib yo‘nalishlarda ishlayotgan avtobus sonini qisqarishiga piravord natija ular xarakati orasidagi

ISSN 3030-3907

intervalni uzayib ketishiga olib kelmoqda. Oxir oqibat shaxardagi avtobuslar soni kun sayin qisqarib avtobus yo‘nalishlarida ular soni kamayib, yo‘lovchilarni xaqli etiroziga sabab bo‘lmoqda.

Metodologiya. Xorij va respublika olimlar ishini tahlil qilish jarayonida biz quyidagilarni keltirdik.

V. Brandstätter and C. Olaverri-Monreal tadqiqotlarida shahar avtobus tizimlarida energiya samaradorligi va ekologik barqarorlik masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari avtobuslarda alternativ yoqilg‘i turlari (masalan, elektr, vodorod yoki tabiiy gaz) va energiya tejovchi texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganadi. Vasilevning tadqiqotlari shaharlarning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va jamoat transportini barqaror rivojlantirishga qaratilgan [6].

N. Pourmohammad-Zia and M. van Koningsveld o‘z ilmiy ishlarida jamoat transportida yo‘lovchi xavfsizligi va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari avtobuslarda xavfsizlik tizimlarini (masalan, videokuzatuv, avariya oldini olish tizimlari) joriy etish va yo‘lovchi tashish jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan. Dremina tadqiqotlari xizmat sifatini standartlashtirish va inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytirishga yo‘naltirilgan [7].

L. Bienzeisler, T. Lelke, and B. Friedrichlar ham shahar transportida intellektual transport tizimlarini (ITS) joriy etish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari avtobus harakatini boshqarish, yo‘l tirbandliklarini kamaytirish va transport tizimlarining samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt va ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarini qo‘llashga qaratilgan. Dmitrievning tadqiqotlari real vaqt rejimida transport tizimlarini monitoring qilish va boshqarishga imkon beradi [8].


B.A. Xodjaev O‘zbekistonda jamoat transporti tizimlarini rivojlantirish, ayniqsa, shahar avtobus tizimlarini optimallashtirish bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borgan. Uning ishlari mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan marshrut tarmoqlarini loyihalashtirish, yo‘lovchi oqimlarini boshqarish va transport tizimlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Xodjaev tadqiqotlari shahar transporti infratuzilmasini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi [9].

Natija va muhokama.

Avtobusni liniyada ushlab turish uchun ularga subsidiya berib ularni ushlab turilmoqda. Lekin subsidiya berish hajmini quydagi rasmda ko‘rsatilgan axborat vositalari bilan shaffofligi taminlanadi. Shahar avtobuslari foyda va qo‘shimcha qiymat solig`iga tortilmaydi, shuning uchun avtobus bilan tashishlarda interval saqlanib boshqa yo‘lovchi tashish transportlarini narxini ortmasligiga olib

ISSN 3030-3907

kelmoqda, bu borada xarakatlanish xavfsizligini ta`minlash bo‘yicha ishonchli mexanizm yaaratilgan. Bunga xar bir viloyat o‘zicha ta`sir qilib yoki ta`sir o‘tkazmasdan muammo kun sayin davom etib kelmoqda. Bu vaziyatni inson omiliga foyda va zararini tahlil qilganimizda yo‘lovchilarni fikri quydagicha bo‘ldi.



1-rasm. Avtobusda skayner tizimini ishlashi

Birinchi axolini ayrim qatlamlari uchun avtobus kerak, ularga narx past belgilanishi zarur.

Ikkinchi qatlam tezroq arzonroq yo‘nalishdagi taksini xoxlashadi. Bu ikki fikrni mutaxasislik nuqtai nazaridan tahlil qilganimizda: birinchisi tirbandlikni oldini oladi, narx jixatidan arzon, bu yo‘lovchilarni kam ta`minlangan, ishi shoshilinch bo‘lmagan toifalar uchun kerak bo‘lib, ularni xududiy xokimiyat tomonidan avtobusda yurishini qo‘llab - quvvatlashga muxtojdirlar. Bu borada shu kunda avtobus xarakatini tashkil etish uchun xokimiyatlar viloyatlarda yangi avtobus olishni barcha uyushmalarga topshiriq berib majburlasada, lekin uyushmalar bunday tashishdan zarar ko‘rishini o‘ylab ichki imkoniyati yo‘qligini aytib topshiriq bajarilmay qolmoqda. Bu xolatni yo‘nalish orqali samarali tashkil etgan Andijon shahridagi avtobus yo‘nalishlarida mavjud avtobuslar o‘zini qoplasada lekin zararga ishlagan ayrim yo‘nalishlardagi avtobuslar hisobidan aylanma fondi kun sayin qisqarib avtobus qatnov intervali ortib bormoqda. Bu xolatni tartibga solish uchun nima qilish kerak?

Masalani qo‘yilishi: bu masalani xal qilish kuzatish natijalariga asoslanib maxalliy xokimiyatlar shahardagi tirband va zararsiz yo‘nalishlarda avtobus xarakatini joriy qilishlari va bunda avtobus haydovchisidan faqat yo‘nalishdagi belgilangan intervalga javob berishlarini talab qilinishi, haydovchini oyligini tashishdan olingan daromadga bog`lamasdan, intervalga rioya qilingan qatnov soniga bog`lashi zarurligi aniqlandi. Avtobusda yo‘lovchi tashishdan olingan daromadni shaffofligini taminlash uchun, yuqoridagi rasimda ko‘rsatilgan avtobusga chiqish va tushishdagi yo‘lochi oqimini skayner qilish bilan hisobotini joriy qilib, barcha saroy bo‘yicha harajatlarni qoplanmagan qismini xududiy

ISSN 3030-3907

xokimiyat soliq tizimi orqali subsidiya berishni tashkil etish bilan shahar avtbus qatnovini logistik nuqtai nazaridan ideial xolatga keltirish mumkin. Bunday avtobus yo‘nalishlari soni va avtobus saroyi quvvatini albatta xududiy xokimiyat iqtisodiy imkoniyatiga qarab tashkil qilishi va himoyaga olinishi zarur. Bu bilan avtobus raqobat zarbasidan saqlanib qolinadi, tirbandliklar oldi olinadi, kam ta`minlangan axoli qatlami himoya qilinadi. Bu avtobus saroyi haydovchilari oylik maoshi budjet sektoridagi tizimlar kabi ishbay usulda ushlab turilishi bilan erishiladi. Shahar avtobuslari soliqqa tortilmaydi, undan olingan daromad shaffofligi skayner ma`lumotiga solishtirib qoplanmagan xarajat miqdori aniqlab subsidiya olishga asos beriladi. Shaharlarda bu avtobus qatnovini va yo‘nalishdagi taksi qatnovini joriy etish kvotasini belgilash va uni bajarilishini ta`minlashni nazorat qilish yo‘li bilan ham me`yordan ortiq bo‘lgan boshqa turdagi transportlarni avtobuslar faoliyatiga ta`sirini kamaytirish mumkin.

Avtobus intervali I_a qo‘ydagi forula bilan aniqlanadi:

$$I_a = t_{ay} / N_{ay}$$

Bunda, t_{ay} avtobus yo‘nalishidagi yo‘l belgilariga rioya qilgan xoldagi bir aylanma qatnovga ketgan vaqt minutda o‘lchanadi;

N_{ay}- avtobus yo‘nalishidagi bir aylanma qatnovda ishlayotgan avtobuslar soni;

Logistik nuqtai nazaridan ular faoliyatiga baho avtobus intervalini rejasini bajarish hisoblanadi. Bu muammoni o‘rganish uchun biz kuzatish va taqqoslash uslubidan foydalandik. Tirbandlik, aniq vaqt maskanida va transport tizimini aniq sektsiyasida transport talabidagi sonidan ortib ketsa tirbandlik kelib chiqadi. Bunday xolatlarda xar bir transport vositasi boshqa xarakatlarni sekinlashtiradi. Tirbandlikni yetarli bo‘lmagan transport resurslari oqibati sifatida, agar ular boxolanmagan bo‘lsa sezish muqarrar. O‘tgan o‘n yillikda mamlakatimiz shahar xududlarida xar bir xonadonga yengil avtomobillarni kirib kelishi tufayli tirbandlik yuzaga keldi va kuchayishi bashorat qilinmoqda. Tezlik va yuqori mehnat unimdorligi uchun tirbanlik xalaqit beradi. Yo‘lovchilarni tashishlarini kengaytirish uchun, yuqori darajadagi transport turlari bilan ta`minlashni zarur. Bu ikkala xolatdan kelib chiqadigan tirbandlikni yumshatish masalasi xududiy boshqaruv organlarini oldida turgan, xal qilinishini kutib turgan muammolardan biri hisoblanadi. Shahardagi xarakatchanlik ham tirbanlik namunasini korsatmoqda. Kunlik qatnov "majburiy" (uy ishchi joyi) yoki "ko‘ngilli" (magazinga kirish, bo‘sh vaqt, borib kelish) bo‘lishi mumkin.

Terbandlik ikkita turda mavjud: Joriy tirbandlik. Joriy tirbandlik, ko‘zda tutilmagan ta`sirlardagi paydo bo‘lishi mumkin. Majburiy qatnovlar, bo‘sh yurishlar, tig`iz vaqtlar va boshqalar muloxaza qilganda, taxminan shahar

ISSN 3030-3907

xududida yarim tirbandlik kunning aniq vaqtida va aniq transport tizimi sigmentida paydo bo‘ladi. Yagona vaqtdagi tirbandlik. Boshqa yarim tirbandliklar to‘satdan bo‘ladigan voqiyalar tufayli, jumladan odatiy bo‘lmagan tabbiy sharoitda, ko‘ngilsiz voqiyalarda, (yomg`ir, shamol va. b) qaysiki rejasiz qo‘qisdan sodir bo‘ladi. Bir vaqitning o‘zidagi tirbandlik iborasini qatnashishi strategik samaradorlik bilan bog`langan. Bir qancha ko‘ngilsiz xolatlar, ularnin xarakat darajasiga tartibsizli bog`lanishga ega, xarakat ma`lum yo‘ldagi sigmentlarga, yani ko‘ngilsiz xolat segmentlarga bo‘linadi. Tizimda xulq atvorli va javob berish samarasi muxum va u sayoxatning teskari to‘lqini sifatida yuruvchi qobiliyatiga bog`liqligi ma`lum bo‘lib to‘saddan yo‘qoladi.

Barcha turdagi shaharlar (poytaxt shaharlardan tashqari)da avtobus bilan xizmat ko‘rsatish jarayoni yo‘lovchi tashishdan olinadigan daromadidan xarajati taxminan 24 foiz yetmasdan muammo bo‘lib qolmoqda. Poytaxt shaharlarda esa avtobuslarni bir moromda ishlashi uchun qonuniy bepul foydalanuvchilar hisobidan dotatsiya ajratilib vaziyat boshqarilib turibdi. Bu xolatni tartibga solish muammosi dunyodagi barcha shahar xokimlarini boshini qotirib muammo bo‘lib kelmoqda. Shuning uchun bu muammoni ijobiy xal qilish uslubini ishlab chiqishni taqazo etmoqda. Bu masalani logistik nuqtai nazardan xal qilish uchun transport tizimini ilmiy jixatidan chuqur o‘rganish va chora ko‘rishni talab etmoqda. Shahar transport tizimida asosan katta hajimli (avtobuslar) o‘rta hajimli (yo‘nalishdagi taksi) kichik hajimli(8 o‘rindiqdan kam) hamda yengil avtomobil` (taksi) xarakatdagi tarkiblardan foydalanib kelinmoqda. Bu avtomobillarni har birini yo‘lovchi tashish jarayonida o‘ziga xos afzallik va kamchiliklarga ega. Avtobusning afzalligi tashish narxini arzonligi bilan, boshqa turdagi shaharda yo‘lovchi tashuvchilarni tashish narxini raqobat orqali ushlab turishi, kam ta`minlangan axoli qatlamini ximoya qilishi tirbandlikni qaysidir darajada kamayishi, kamchiligi xarakat tezligini pastligi, dotatsiyasiz ishlash imkonini yo‘qligi, lekin axolini bu toifadagi qatlami kamayib, ularning ma`lum qismi o‘rta hajimli (yo‘nalishdagi taksi) larga o‘tib ketmoqda. Bu tashish turini afzaligi: tashish tezligini qulayligi va yo‘lovchilarni vaqtini iqtisod qilishi, tashish narxini chidasa bo‘ladigan xolati,dotatsiyaga muxtoj bo‘lmay aksincha soliqqa tortilishi, tirbandlikga o‘rtacha ta`siri, kichik hajimli(8o‘rindiqdan kam) afzaligi: tashish tezligini balandligi va yo‘lovchilarni vaqtini iqtisod qilishi, tashish narxini chidasa bo‘ladigan xolati,dotatsiyaga muxtoj bo‘lmay aksincha soliqqa tortilishi, tirbandlikga katta salbiy ta`siri, yengil avtomobil(taksi) turini afzaligi: tashish tezligini yuqoriligi va yo‘lovchilarni vaqtini iqtisod qilishi, tashish narxini balandligi, dotatsiyaga muxtoj bo‘lmay aksincha soliqqa tortilishi, tirbandlikga o‘rtacha ta`siri, shunday xolatda qanday qilib xarakat vositalarini shaharda

ISSN 3030-3907

yo‘lochi tashishga samarali jalb qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday qilib o‘rganilgan kuzatuv tahlil natijalariga asoslanib quydagi xulosaga kelindi.
Hozirgi shahardagi tashish jarayonida avtobus bilan yo‘lovchi tashish katta shaharlarda (axoli soni 1 milliondan ortiq) ser qatnov yo‘nalishlarda maqsadga muvofiq bo‘lib bu amalga oshirilmoqda. Lekin dotatsiya o‘rniga subsidiya berishlik va yo‘lovchilarni chiqib tushishlarini nazorat qilishni GOLONAS tizim orqali amalga oshirish bilan asosiy ko‘rsatkich regulyarnost` bo‘lishi avtosaroy davlat unitar korxonasi shaklida bo‘lishi zarur.
2. O‘rta hajimli (yo‘nalishdagi taksi) tezyurar ko‘rinishda shaharni ikki xududini bog`lovchi marshrutlarda ishlatish mumkin.

3. Kichik hajimli (8 o‘rindiqdan kam) xarakat vositalarini (axoli soni 1 milliondan kam) shaharlarda axolini yashash joylaridan shahar markaziga tashishga qo‘yish, katta magistral avtobus yuradigan yo‘nalishlarga yurgizmaslik maqsadga muvofik, chunki bunday xarakat vositalari tirbandlikni oshirib yuboradi.

4. Yengil avtomobil`(taksi)larni onlayn tizimda zakaz qabul qilishga jalb qilish va shaharda taksi sifatida ishlashi maqadga muvofiq.

5.Shahardagi tirbandlik ko‘pincha ikkita sohaga tegishli bo‘lib uni yumshatish manbaalarini aniqlashni taqazo qiladi:
-shahar yo‘nalishidagi tirbandlik transport vositasini umumiy yurgan yo‘lidagi zichligini ko‘pligi;
-shahar yo‘llarini loyihalash va yo‘l qurilishda transport oqimini to‘g`ri bashoratlash;
-shahar arxitektorlari, xar bir qurilish obekti loyihasini ko‘rib chiqish davrida bevosita unga ahamiyat berishi;
-yo‘lovchi tashish tansporti yo‘nalishlarini ishlab chiqishda;
-xar bir chorrohadagi transport oqimi tezligi va chorrahani bo‘shatish xolatini me`yorlash bilan.

Xulosa.

Andijon viloyatida aholiga sifatli transport xizmatini tashkil etishda, ayniqsa yo‘lovchi tashish tizimida mavjud yo‘nalishlar va ularda harakatlanayotgan transport vositalari parkida avtobus va mikroavtobuslar soni oshirishga alohida ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda Andijon shahrida 18 ta mavjud yo‘nalishdan 4 ta avtobus yo‘nalishlari mavjud. Ular: shi-1 “Gulshan MFY – 2 son Shifohonasi”, shi-75 “Pistamozor – 36-post”, shi-222 “Pistamozor – Markaziy shifoxona”, shi-2 “Aeraport – Sadda” yo‘nalishlaridir.

ISSN 3030-3907

Hududlarda jamoat transportini rivojlantirish bo‘yicha Prezidentimiz tomonidan berilgan topshiriqlar yuzasidan Andijon shahrida qo‘shimcha yangi avtobus yo‘nalishlari ochilishi rejalashtirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” Toshkent, “Xalq so‘zi” gazetasi 2017 yil 8 fevral 28(6722)-soni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 9 oktyabrdagi “Andijon shahrida yo‘lovchi tashish transportini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2048–son, qarori
3. Azizov Q.X. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.–244b.
4. Вдовина, Е.С. Влияние капитализированных резервов на качество жизни населения : моногр. / Е.С. Вдовина, Н.И. Куликов. – Тамбов : Изд-во ГОУ ВПО ТГТУ, 2010. – 92 с.
5. Butayev SH.A. va b. Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish. T., “Fan”, 2009.-294b.
6. V. Brandstätter and C. Olaverri-Monreal, "Efficient Transport Logistics, An Approach for Urban Freight Transport in Austria," arXiv, vol. 2006.11377, 2020.
7. N. Pourmohammad-Zia and M. van Koningsveld, "Urban Logistics in Amsterdam: A Modal Shift from Roadways to Waterway," arXiv, vol. 2309.00345, 2023.
8. L. Bienzeisler, T. Lelke, and B. Friedrich, "Autonomous Underground Freight Transport Systems — The Future of Urban Logistics?" arXiv, vol. 2403.08841, 2024.
9. Хўжаев Б.А. Автомобилларда юк ва пассажирлар ташиш асослари, Т.: Ўзбекистон,2002. –400б.

ISSN 3030-3907

STUDYING THE INFLUENCE OF RAW MATERIAL PROPERTIES ON CATALYTIC CRACKING INDICATORS.

Murtazaev Feruzbek Ismatovich
PhD, Associate Professor, Karshi State Technical University,
E-mail: feruz.murtazayev@bk.ru

ABSTRACT. This paper investigated the effects of vacuum Gaza on catalytic cracking performance. When Catalytic Cracking of raw materials with the participation of the DA-250 catalyst, the reaction yield was good, and the properties of gasoline in the case of opaque and non-transparent were analyzed**.**

Key words: vacuumgazoil, aromatic compounds, cracking, da-250 catalyst, fraction, constant, coke, mathematical mode

Annotatsiya. Bu qog'oz katalitik yorilish bajarish vakuum G'azo ta'sirini tekshirilayotgan. DA-250 katalizatori ishtirokida xom ashyoni katalitik krekinglashda reaksiya rentabelligi yaxshi bo'ldi va shaffof va shaffof bo'lmagan hollarda benzinning xususiyatlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: vakuumgazoil, aromatik birikmalar, yorilish, da-250 katalizatori, fraktsiya, doimiy, koks, matematik model

Аннотация. В данной работе исследовалось влияние вакуумного газа на эффективность каталитического крекинга. При каталитическом крекинге сырья с участием катализатора DA-250 выход реакции был хорошим, а также были проанализированы свойства бензина в случае непрозрачного и некондиционного.

Ключевые слова: вакуумный газойль, ароматические соединения, крекинг, катализатор da-250, фракция, константа, кокс, математическая модель.

Introduction

Vacuum gas oil, often abbreviated as VG or VGO, is a group of intermediate petroleum products obtained during oil refining. VGO is produced in vacuum distillation equipment, which operates at pressures well below atmospheric pressure, which allows the oil to be separated at lower temperatures, thereby minimizing thermal cracking. This separation prevents the breakdown of heavier fractions, thereby preserving their potential for further processing.

VGO is typically between 370°C and 565°C and is a complex mixture of various hydrocarbon molecules. Due to its intermediate state, VGO is not a final product, but rather a feedstock for further refining processes such as catalytic cracking, hydrocracking, and coking. These processes break down the larger molecules in VGO into smaller, more valuable products such as gasoline, diesel, jet fuel, and petrochemical feedstocks.

ISSN 3030-3907

Since VGO is an essential input for the production of higher-value transportation fuels, it plays a critical role in the petroleum refining industry. The quality and composition of VGO can significantly affect the efficiency and economics of the downstream conversion processes, influencing the refinery's overall output and profitability.

Literature reviyew: Several types of vacuum gasoil obtained from oil refineries were used as raw materials. Data on gasoil parameters are presented in Table 1. Raw materials 1 and raw materials 2 are characterized by a relatively high content of saturated hydrocarbons (up to 55%), the third raw material is hydrotreated vacuum gasoil, and the fourth is gasoil obtained from oil with a high content of aromatic compounds (the content of aromatic compounds in gasoil is 71% by mass.)

Table 1

Characteristics of raw materials used in cracking

Indicator name	Raw material 1	Raw material 2	Raw material 3	Raw material 4
Fraction composition was driven at T, ^{0}C				
-nk	321	310	258	319
-10%	372	355	350	385
-50%	435	415	423	458
-kk	536	510	525	577
Density at 20 °C, kg/m3	0,906	0,885	0,901	0,921
Sulfur mass, %	1,77	1,64	0,05	1,88

From the data in Table 1, it follows that the S content in raw materials 1, 2, and 4 is equal, and raw material 3 is almost sulfur-free.

Research Methodology: Initially, non-hydrotreated vacuum gas oil was cracked in the presence of DA-250 catalyst. The results of the experiments are presented in

Table 2.

Catalytic cracking of non-hydrotreated vacuum gas oil at 420 °C.

Products	Raw material No. 1				Raw material No. 2	
	After activation	1 day	2 day	Raw materials	After activation	Raw materials

ISSN 3030-3907

Gasoline fraction $<C_{11}$	63	55	50	45	54	46
Diesel fraction C_{11} - C_{16}	23	21	19	27	17	16
Gases + coke	10	8	6	4	15	7

The coke content does not exceed 2-4% by mass and up to 7% by mass at high cracking temperatures of 420^0 C.

The coke content does not exceed 2-4% by mass, and at a high cracking temperature of 420° C, it is 7% by mass. From the data in Table 2, the following characteristics of vacuum gasoil without activation and activation of the reaction mixture with wave irradiation can be noted:

Analysis and result: − Cracking of raw materials with the participation of the DA-250 catalyst allows obtaining a gasoline fraction of up to 45% by mass; With the storage of raw material No. 1, after the raw material was clarified, the gasoline yield increased to 63.% by weight, i.e., the gasoline yield increased by Δx = 18.% by weight. When storing the clarified vacuum gas oil for one day and cracking it, the gasoline yield decreased to 55% by weight, and after storing the vacuum gas oil for two days during cracking, the gasoline yield decreased to 50% by weight.

No. 2- has less effect on the transparency of the raw material, but the decrease in activity when cracking the raw material is the same as the first raw material.

The gasoline fraction yield for the initial and clarified feedstock and the decrease in the effect during cracking after 3 days of storage of the clarified feedstock are shown graphically in Figure 1.

ISSN 3030-3907




Figure 1. Dependence of gasoline fraction yield during cracking of clarified feedstock 1 on storage period of clarified feedstock.

From Figure 1, it can be noted that the activity of the clarified raw material decreases with storage time. As shown below, you can create a mathematical model taking into account the characteristics of this activity decrease.

For the presented curves, the tangent of the angle of inclination to the abscissa axis is negative, and the rate of the process of reducing the reserve of radiant energy in the raw material can be expressed by the derivative:

$$-\frac{dx}{d\tau} = f(\tau, x) \leq 0$$

The equation for catalytic processes, in which the activity of clarified raw materials decreases during storage, can be expressed in the following form:

$$-\ln(1-x)+1 = k\frac{1}{\sqrt[-3]{\tau+1}}$$

To calculate the rate constant, auxiliary table 2 is used, the data for the calculation are used from Figure 2.

Table 2

Auxiliary table for calculating the constant

T, day	-ln(1-x) +1	$\frac{1}{\sqrt[-3]{\tau+1}}$	K	
0,7	1,37	1,19	1,15	
1,0.	1,50	1,26	1,19	

ISSN 3030-3907

2,0	1,52	1,44	1,05	
3,0	1,54	1,7	0, 99	
			$K_{o'r}$=1,095	

From the data in Table 2, it follows that the kinetic equation we obtained corresponds to the experimental dependence of the decrease in the activity of the raw material on the time of storage of the raw material at room temperature. The mathematical model of the process can be obtained in a certain form:

$$-\ln(1-x)+1=1{,}095\frac{1}{\sqrt[-3]{\tau+1}}$$

Conclusion: This mathematical model allowed the calculation of the curve shown in Figure 1. The points in Figure 1 are experimental data. The points are satisfactorily located near the curve.

The paper presents the results on the composition of products (gasoline and diesel fractions) obtained before and after the activation of raw materials during cracking at temperatures of 420 and 500 ° C. Raw material No. 4 was selected for the experiments.

REFERENCES

1. Панченков Г.М., Колесников И.М., Мельников В.П. и др. каталитический крекинг тяжелого газойля Бакинской нефти цеолитсодержащих катализаторах. Изд. ВУЗ «Нефть и газ», 1960, №4,с. 45-48

2. Колесников И.М., Вяхирев Г.И., Кильянов М.Ю., Винокуров В.А., Колесников С.И. Твердые катализаторы, их структура, состав и каталитическая активность. – М.: Нефть и газ, 2000, 372 с. 95.

3. Колесников И.М., Колесников С.И. Сравнительное исследование ортоалюмосиликатов и других катализаторов в реакции высокотемпературного крекинга бензина для получения олефинов // ЖПХ, 1985, т.58, №6, с. 1341-1348.

4. Борзаев Х.Х., Гущин П.А., Иванов Е.В., Берберов А.Б., Афонин Д.С. / Алкилирование бензола этиленом/ Башкирский химический журнал /выпуск № 1 / Том 21 / 2014. с. 5-8. 171. Плотникова М. Д., Борзаев Х. Х.,

5. Копицын Д. С., Викторов А. С., Шеин А. Б. / Исследование ряда промышленных композиций в качестве 165 ингибиторов кислотной и сероводородной коррозии / Башкирский химический журнал / Выпуск № 4 / Том 1

6. Murtazaev F. Международный научный журнал «Universum: технические науки» - № 7(112). Часть 3. Москва -2023, 44-56 с

ISSN 3030-3907

7. Murtazaev F. Электронное научно-практическое периодическое международное издание «Экономика и социум» Саратов - 2023, №7(110) (июль, 2023), 230-234 с
8. Maxmudov Muxtor Jamolovich, Murtazaev Feruzbek Ismatovich. Mahalliy ai-80 avtomobil benzinini fizik-kimyoviy xossalari va uning benzol saqlagan fraksiyasini aniqlash. https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/ «Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» 2024-yil, iyun-iyul. Maxsus son. 367-371 b
9. Murtazaev F., Maxmudov.M. J. Determining the extraction method of benzene-toluene from reformate composition. Электронное научно-практическое периодическое международное издание «Экономика и социум» Саратов - 2023, №7(110) (июль, 2023), 230-234 с
10. Отчет о научно исследовательской работе "Каталитическая переработка тяжелого углеводородного сырья с применением энергоэффективного волнового воздействия (первый этап)" под руководством Винокурова В.А., Москва, РГУ нефти и газа имени И. М. Губкина, 2013 год, 135 стр.
11. Отчет о научно исследовательской работе "Каталитическая переработка тяжелого углеводородного сырья с применением энергоэффективного волнового воздействия (второй этап)" под руководством Винокурова В.А., Москва, РГУ нефти и газа имени И. М. Губкина, 2013 год, 303 стр.
12. Kolesnikov I.M., Saidel P., Kilyanov M.Yu., Kolesnikov S.I. Vacuum Gasoil and Bitumen Catalytic Cracking. – 213th ACS National Meeting and Exposition Program. San Francisco, California, April 13-17, 1997.
13. Kolesnikov I.M., Vinogradov V.M., Kolesnikov S.I., Yablonsky A.V. Cracking Catalysts Activation with Metalloorganic Siloxanes. – 213th ACS National Meeting and Exposition Program. San Francisco, California, April 13-17, 1997.

ISSN 3030-3907

AVTOBUS YO‘NALISHLARIGA INTEGRATSIYALASHGAN DAMAS HARAKATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Muqimova Davlatxon Karimovna
Andijon Davlat Texnika Instituti, “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
Tel.: +99897 995 53 83
Yoqubov Saydoribjon Odil o‘g‘li
Andijon Davlat Texnika Instituti 2-kurs magistr talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Andijon shahrida Damas rusumli kichik sig‘imli avtomobillar qatnov yo‘nalishlarini mavjud asosiy avtobus liniyalari bilan o‘zaro uzviy integratsiyalash orqali jamoat transporti tizimini yanada samarali, ekologik xavfsiz va aholiga qulay tarzda tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar va iqtisodiy jihatdan samarali usullar ishlab chiqishdan iboratdir. Ayni paytda Andijon shahrida jamoat transporti tizimining ayrim yo‘nalishlarida qatnovlar takrorlanishi, harakat jadvalidagi nomuvofiqliklar, tirbandliklar va yo‘lovchilar oqimini noto‘g‘ri taqsimlash holatlari mavjud. Bularning barchasi tizimni qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy yondashuvlar asosida optimallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Natijada esa biz taklif berayotgan yechimlar orqali yuqoridagi keltirilgan muammolarni bartaraf etish mumkin.

Kalit so‘zlar: Damas, avtobus, liniya, integratsiya, foyda, tizim, shahar, ko‘cha.

Abstract. This article consists of developing scientifically based proposals and economically effective methods for organizing the public transport system in Andijan city in a more efficient, environmentally safe, and convenient way by organically integrating Damas minibus routes with existing main bus lines. Currently, there are cases of repetition of trips on some routes of the public transport system in the city of Andijan, inconsistencies in the traffic schedule, traffic jams, and incorrect distribution of passenger flow. All this necessitates the revision of the system and optimization based on modern approaches. As a result, the solutions we propose can eliminate the above-mentioned problems.

Keywords: Damas, bus, line, integration, profit, system, city, street.

Аннотация. Данная статья посвящена разработке научно обоснованных предложений и экономически эффективных методов организации более эффективной, экологически безопасной и удобной для населения системы общественного транспорта в Андижане путем тесной интеграции маршрутов движения малотоннажных автомобилей Damas с существующими основными автобусными линиями. В настоящее время в городе Андижане имеются случаи дублирования рейсов на некоторых маршрутах системы общественного транспорта, несоответствий в расписании движения, пробок

ISSN 3030-3907

и неправильного распределения пассажиропотока. Все это обуславливает необходимость пересмотра системы и ее оптимизации на основе современных подходов. В результате с помощью предлагаемых нами решений можно устранить вышеуказанные проблемы.

Ключевые слова: Damas, автобус, линия, интеграция, выгода, система, город, улица.


Kirish.

Hozirgi kunda yirik shaharlarda, xususan, Andijon shahrida jamoat transportiga bo‘lgan ehtiyoj keskin ortib bormoqda. Aholining tez sur’atlarda o‘sishi, avtomobillar sonining ko‘payishi va shahar infratuzilmasining ushbu o‘sishga mos ravishda rivojlanmasligi natijasida transport tirbandliklari, ekologik muammolar va aholi uchun qulay bo‘lmagan qatnov tizimi yuzaga kelmoqda. Xususan, kichik sig‘imli “Damas” avtomobillarining jamoat transporti sifatida keng qo‘llanilishi mavjud yo‘nalishlar va asosiy avtobus liniyalari bilan muvofiqlashtirilmagan bo‘lib, bu tizimda keraksiz takroriy qatnovlar va samaradorlikning pasayishiga olib kelmoqda [1].

Andijon shahrida jamoat transporti yo‘nalishlarini optimallashtirish, aholi zich yashaydigan hududlar bilan sanoat zonalari, ta’lim va sog‘liqni saqlash muassasalarini samarali bog‘lash, shuningdek, harakat xavfsizligi va qulayligini ta’minlash bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Damas kabi mikroavtobuslarni yirik yo‘nalishlar bilan tizimli bog‘lash orqali transport tizimidagi ortiqcha yuklamani kamaytirish va aholining harakatchanligini oshirish mumkin [2]. Andijon shahrida Damas rusumli kichik sig‘imli avtomobillar qatnov yo‘nalishlarini mavjud asosiy avtobus liniyalari bilan o‘zaro uzviy integratsiyalash orqali jamoat transporti tizimini yanada samarali, ekologik xavfsiz va aholiga qulay tarzda tashkil etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Ayni paytda Andijon shahrida jamoat transporti tizimining ayrim yo‘nalishlarida qatnovlar takrorlanishi, harakat jadvalidagi nomuvofiqliklar, tirbandliklar va yo‘lovchilar oqimini noto‘g‘ri taqsimlash holatlari mavjud. Bularning barchasi tizimni qayta ko‘rib chiqish va zamonaviy yondashuvlar asosida optimallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi [3].

Andijon shahrida avtobus, mikroavtobus, damas va yengil turdagi transportlar aholini transport ehtiyojini yetarlicha qondirmoqda. Andijon shahridagi Alpomish merosi MCHJning avtobuslari shahar ichida beshta yo‘nalishda shahar atrofida esa 8ta yo‘nalishda hizmat ko‘rsatmoqda. Bundan tashqari 100dan oshiq mikroavtobuslar shahar atrofida va shahar ichida tashish hizmatini olib bormoqda. 1000dan ziyod Damas turidagi transport vositalari yo‘nalish bo‘yicha va yo‘nalishsiz tashishlarni amalga oshirmoqda.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Tashilgan yo‘lovchilar o‘sib borishi, ming kishi

Shahar iqtisodiy jihatdan O‘zbekistonning yirik sanoat markazlaridan biri sanaladi. Ayniqsa, avtomobilsozlik sohasi yetakchi o‘rinni egallab, yaqin atrofdagi “UzAuto Motors” AJ bilan bevosita bog‘liq. Andijonda ishlab chiqarish korxonalari, kichik biznes subyektlari, savdo va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari faol rivojlanmoqda. Bu esa shaharning transport tizimiga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

Metodologiya. Tadqiqot doirasida avvalo Andijon shahridagi jamoat transportining amaldagi holati, mavjud yo‘nalishlar tizimi, harakat jadvali va texnik infratuzilmasi chuqur tahlil qilinadi. Damas avtomobillarining amaldagi qatnov yo‘nalishlari, ularning yo‘lovchi tashishdagi o‘rni va asosiy avtobus yo‘nalishlari bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Shu bilan birga, yo‘lovchi oqimlari, harakat zichligi, qatnov chastotasi va vaqt xarajatlari kabi omillar o‘rganilib, ushbu ko‘rsatkichlar asosida qatnov yo‘nalishlarini qayta shakllantirish uchun zamonaviy transport modellashtirish usullaridan foydalaniladi [4]. Bu orqali yangi, integratsiyalashgan yo‘nalishlar sxemasi ishlab chiqilib, uning jamoat transporti tizimidagi muvozanat va samaradorlikni oshirishdagi roli aniqlanadi. Yakunda taklif etilgan transport modeli va yo‘nalishlar tuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi baholanadi hamda Andijon shahar transport tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi [5,6].

Natija va muhokama.

ISSN 3030-3907

Andijon shahridagi mavjud avtobus yo‘nalishlariga Damas mikroavtobuslarini integratsiya qilish orqali shahar jamoat transport tizimi sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin. Ushbu bo‘limda amalga oshirilgan integratsiya yechimlarining samaradorligi transport oqimi, yo‘lovchi qamrovi, vaqt tejalishi va iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholanadi.

1-jadval

1. Samaradorlik baholash mezonlari

Integratsiyaning natijasini aniqlash uchun quyidagi mezonlar asos bo‘ladi:

Mezon	O‘lchov birligi	Baholash yo‘li
Yo‘lovchi tashish hajmi	kishi/kun	Integratsiyadan oldin va keyin solishtirish
Kutish vaqti	daqiqa	So‘rovnoma va kuzatuvlar asosida
Bekatlar qamrovi	%	350m radiusda joylashgan nuqtalar soni
Yo‘nalishlararo bog‘liqlik darajasi	%	Jadvalga asoslangan mos keluvchanlik
Transport vositalarining foydali ish koeffitsienti	%	Harakatdagi vaqt / umumiy vaqt
Yonilg‘i sarfi va vaqt tejalishi	litr/soat, daqiqa	Simulyatsiya asosida

2. Damas integratsiyasi natijalari (model asosida)

❖ Oldingi holat:

- Avtobuslar faqat asosiy yo‘nalishlar bo‘ylab harakatlanadi
- Ichki hududlardan markaziy bekatlarga yetib borish qiyin
- Kutish vaqti: 15–20 daqiqa
- Yo‘nalishlararo almashinuv uchun piyoda yurish: 500–800 m

❖ Integratsiyadan so‘ng:

- Damaslar har 7–10 daqiqada asosiy bekatlardan ichki mahallalarga harakatlanadi
- Yo‘lovchilar bekatga 350 metr radiusda yetib boradi
- Avtobus-Damas o‘rtasidagi kutish vaqti: 5–7 daqiqa
- Zanjirli bog‘liqlik tufayli vaqt tejalishi: o‘rtacha 12–15 daqiqa

3. Iqtisodiy samaradorlik

ISSN 3030-3907

Quyidagi formuladan foydalanib yo‘lovchi oqimi va vaqt tejalishi asosida samaradorlik baholanishi mumkin:

$$S = \Delta T \times Y \times K$$

bu yerda:

- S – samaradorlik (kunlik tejalgan umumiy vaqt),
- ΔT – har bir yo‘lovchi uchun tejalgan vaqt (min),
- Y – kunlik yo‘lovchilar soni,
- K – vaqtning puldagi bahosi (so‘m/min)

Misol:

ΔT = 12 daqiqa

Y = 15 000 kishi/kun

K = 50 so‘m/min

S = 12 × 15 000 × 50 = 9 000 000 so‘m/kun

Bu shuni anglatadiki, samarali integratsiya orqali yo‘lovchilar va iqtisodiyot uchun har kuni 9 million so‘mlik vaqt tejaladi.

4. Integratsiyaning ijtimoiy ta’siri

- Yo‘lovchilar qamrovi ortdi – ilgari avtobus bekatiga 800 m yurish talab qilingan bo‘lsa, endi 300–350 metr radiusda Damas bekatlari mavjud.
- Nogironlar, keksa yoshdagilar va bolali yo‘lovchilar uchun qulaylik yaratildi.
- Transport ishonchliligi va barqarorligi oshdi – belgilangan vaqtda yetib borish imkoniyati kuchaydi.

Avtobus yo‘nalishlariga integratsiyalashgan Damas harakati orqali:

- Transport tizimi samaradorligi oshirildi,
- Yo‘lovchilarning xizmatdan qoniqish darajasi ortdi,
- Iqtisodiy va vaqt tejalishi ta’minlandi,
- Shahar ichki hududlari bilan aloqadorlik kuchaydi.

Ushbu model boshqa shaharlarga ham tatbiq qilinadigan namunaviy yondashuv bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Transport tizimini takomillashtirishning iqtisodiy samaradorligi

Transport tizimini takomillashtirish nafaqat yo‘lovchilarga qulaylik yaratadi, balki iqtisodiy jihatdan ham sezilarli samaradorlikni ta’minlaydi. Damas yo‘nalishlarini asosiy avtobus yo‘nalishlari bilan integratsiyalash orqali quyidagi 5 qismdan iborat iqtisodiy afzalliklarga erishish mumkin:

1. Yo‘lovchilar uchun umumiy xarajatlarning kamayishini ham ko‘rib chiqamiz. Masalan, Andijon shahrida Damas vositasida ikki marotaba chiqib (ikkita alohida yo‘nalish bilan) bir manzildan ikkinchisiga yetib borish odatda 6 000 so‘m atrofida xarajatni tashkil etadi (2 × 3 000 so‘m). Integratsiyalashgan tizim

ISSN 3030-3907

orqali esa yo‘lovchi Damas + avtobus kombinatsiyasi bilan 1 marotaba Damas (3 000 so‘m) va 1 marotaba avtobus (2 000 so‘m) orqali yo‘l bosadi. Bu holda yo‘lovchi 6 000 so‘m o‘rniga 5 000 so‘m sarflaydi, ya’ni har bir safarda 1 000 so‘m tejaladi.

Agar bir kunda o‘rtacha 10 000 nafar yo‘lovchi ushbu integratsiyadan foydalansa: 10 000 × 1 000 so‘m = 10 000 000 so‘m kunlik tejash, 30 kunda: 300 000 000 so‘m oylik tejaladi.

2. Avtotransport vositalarining yo‘lga chiqish sonini optimallashtirish

Aholi ehtiyojlari bo‘yicha harakat jadvali va talabga qarab transport vositalarining yo‘lga chiqishini tartibga solish mumkin. Masalan, Damas yo‘nalishlarining 20 foizi talab past bo‘lgan soatlarda ishlamay qolsa yoki boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirilsa, yoqilg‘i, texnik xizmat ko‘rsatish va haydovchi mehnat haqi bo‘yicha sezilarli tejash yuzaga keladi. Hisob-kitob: 1 ta Damas kuniga o‘rtacha 10 litr gaz iste’mol qiladi. 1 litr gaz narxi 3 500 so‘m bo‘lsa:

10 litr × 3 500 so‘m = 35 000 so‘m har bir avtomobil uchun kunlik yoqilg‘i sarfi.

Agar kam ishlatiladigan soatlarda 100 ta Damas vaqtincha harakatdan chiqarilsa:

100 × 35 000 = 3 500 000 so‘m kunlik tejash,

Oyiga: 3 500 000 × 30 = 105 000 000 so‘m yoqilg‘idan iqtisod qilinadi.

3. Harakat vaqti va tirbandlik darajasining kamayishi

Integratsiyalashgan tizimda Damas faqat ozuqa (ya’ni, mikroyo‘nalishlar) sifatida ishlaydi va asosiy transport oqimini katta hajmli avtobuslar bajaradi. Bu orqali markaziy ko‘chalar, masalan, Bobur, Navro‘z, Shifokorlar ko‘chasidagi tirbandlik keskin kamayadi. Kam tirbandlik — bu kamroq turgan dvigatel, demak, kamroq yoqilg‘i, kam eskirish va kam chiqindi.

4. Izmir shahri tajribasidan o‘rganiladigan iqtisodiy taktika

Izmirda ESHOT (shahar transporti tashkiloti) tomonidan yagona chipta va to‘lov tizimi joriy etilgan. Bir marotaba chipta orqali yo‘lovchi 90 daqiqa davomida boshqa avtobusga qo‘shimcha to‘lovsiz o‘ta oladi. Bu taktikani Andijonda quyidagicha tadbiq etish mumkin:

- Damas + avtobus umumiy chiptasi: masalan, 4 500 so‘mga yagona QR-kodli chipta joriy etiladi.
- Bu orqali nafaqat yo‘lovchilar xarajati, balki pul muomalasini nazorat qilish, ortiqcha naqd pul aylanmasini kamaytirish mumkin.
- Izmirda bu tizim yordamida yillik 20% gacha yo‘lovchi oqimining ko‘payishi, 15% transport xarajatlarining kamayishi kuzatilgan.

5. Ijtimoiy-iqtisodiy natijalar

- Tejalgan resurslar hisobiga yangi yo‘nalishlar ochish yoki mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish imkoniyati yaratiladi.

ISSN 3030-3907

- Xavfsizlik va xizmat sifati oshadi.
- Mahalliy byudjetga tushadigan tushumlar barqarorlashadi (avtobuslar odatda davlat yoki xususiy hamkorlik orqali nazorat qilinadi).

Xulosa

Andijon shahrida transport tizimini integratsiyalash va yo‘lovchi oqimini samarali boshqarish orqali nafaqat iqtisodiy foyda, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan ham muhim natijalarga erishish mumkin. Izmir shahri tajribasi asosida yagona chipta tizimini, yo‘nalishlarni qayta optimallashtirish, va qatnov jadvalini soatlik talabga moslashtirish orqali oyiga o‘nlab million so‘m tejalishi hamda yo‘lovchilar qoniqish darajasining oshishi ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2017 yil 10 yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–2724–son qarori

2. Шубенко К.А. Повышение эффективности автобусных перевозок с учетом особенностей улично-дорожной сети. Дис.канд.техн.наук. –Орѐл, 2017. –127 с.

3. Л.Б. Миротин, Ы.Э. Ташбаев, В.Д. Герами. Логистика: обсшественный пассажирский транспорт под ред. – М., 2003. – 224 с.

4. Ваксман**,** С.А**.** Транспортные системы городов : терминологический словарь / С.А. Ваксман, И.Н. Пугачев, Ю.И. Куликов. – Хабаровск : Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2013. – 151 с

5. Abdullayev B. I. SHahar avtobus yo‘nalishlarida transport xizmati sifat ko‘rsatkichlarini takomillashtirish. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent., 2019. -53 b.

6. Кульмухамедов Ж.Р. ва б. Автотранспортвоситаларида йўловчилар ташишни ташкил этиш, Т., “Илм Зиѐ”, 2016–160 б.

ISSN 3030-3907

ЯЛЛИҒЛАНИШЛИ ИЧАК КАСАЛЛИКЛАРИ БИЛАН ОҒРИГАН БЕМОРЛАРНИНГ СТОМАТОЛОГИК ҲОЛАТИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.

Раджабова Азизаханум Фармоновна

Абу Али ибн Сино номидаги Бухоро давлат тиббиёт институти, Ўзбекистон, Бухоро.

E-mail: azizaxanum.radjabova@bsmi.uz

Аннотация. Яллиғланишли ичак касалликларида (ЯИК) стоматологик касалликларининг ривожланиш муаммоси кам ўрганилган. Кўриниб турибдики, бу ЯИК этиологияси ва патогенезини тўлиқ ўрганилмаганлиги билан боғлиқ. Хорижий ва маҳаллий нашрларнинг таҳлили шуни кўрсатадики, оғиз бўшлиғи яллиғланиш касалликлари ярали колит (ЯК)га қараганда Крон касаллигида (КК)да батафсилроқ кўриб чиқилган. Оғир такрорий ЯИК ва овқат ҳазм қилиш тизимининг турли даражадаги яллиғланиш касалликлари ўртасидаги яқин алоқалар оғиз бўшлиғи яллиғланиш касалликлари ривожланиши учун қулай шартларни яратади. Шуни таъкидлаш керакки, ECCO томонидан тақдим этилган стоматологик касалликларнинг тарқалиши тўғрисидаги маълумотлар ЯИКнинг экстраинтестинал кўриниши деб ҳисобланган афтоз стоматит билан чекланган.

Калит сўзлар: ичак, стоматит, Крон касаллиги (КК), ярали колит (ЯК), ECCO - Крон ва колит Европа ташкилоти,пародонтит,оғиз бўшлиғи касалликлари.

Аннотация. Проблема развития стоматологических заболеваний при воспалительных заболеваниях кишечника (Як) изучена мало. По-видимому, это связано с тем, что этиология и патогенез Яика недостаточно изучены. Анализ зарубежных и отечественных публикаций показывает, что воспалительные заболевания полости рта более подробно рассматриваются при болезни Крона (КК), чем при язвенном колите (ЯК). Тесная связь тяжелого рецидивирующего Яика и воспалительных заболеваний органов пищеварения различной степени тяжести создает благоприятные условия для развития воспалительных заболеваний полости рта. Важно отметить, что данные о распространенности стоматологических заболеваний, предоставленные Ecco, ограничены афтозным стоматитом, который считается экстраинтестинальным проявлением Яика.

Ключевые слова: кишечник, стоматит, болезнь Крона (КК), язвенный колит (ЯК), европейская организация Экко - Крона и колита,пародонтит,заболевания полости рта.

ISSN 3030-3907

Annotation. The problem of the development of dental diseases in inflammatory bowel diseases (ICS) has been little studied. Apparently, this is due to the fact that the etiology and pathogenesis of Yaik are not tўliq ўrgan. Analysis of foreign and domestic publications suggests that oral inflammatory diseases have been examined in more detail in Crohn's disease (KK)than in ulcerative colitis (Yak). Close ties between severe recurrent YAIC and various degrees of inflammatory diseases of the digestive system create favorable conditions for the development of oral inflammatory diseases. It is important to note that the data on the prevalence of dental diseases provided by ECCO is limited to aphthous stomatitis, which is considered an extraintestinal manifestation of Yaic.

Keywords: intestinal, stomatitis, Crohn's disease (KK), ulcerative colitis (Yak), ECCO - Crohn's and Colitis European Organization,periodontitis, diseases of the oral bladder.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА НАТИЖАЛАР. Кўплаб тадқиқотлар ЯИКда оғиз бўшлиғи шиллиқ қаватида нафақат афтоз яллиғланишлар, балки кенгроқ симптомлар намоён бўлишини кўрсатади. Жаҳон адабиётида ККида юз-жағ аъзолари шикастланишининг бир неча юзлаб ҳолатлари тасвирланган.

Беморни клиник кўрикдан ўтказганда, гастроентеролог оғиз бўшлиғининг текшириш учун энг қулай бўлган жойларига эътибор қаратишини ҳисобга олиш керак. Шунинг учун, ECCO ЯИКида ичакдан ташқари кўринишларининг оғиз бўшлиғида тарқалиши тўғрисидаги маълумотлари 40% ини аниқлаштиришни талаб қилади.

КК овқат ҳазм қилиш тизимининг ҳар қандай қисмини ўз ичига олган тизимли сурункали касаллик ҳисобланади. Ушбу касалликда ичакда яллиғланиш белгилари устунлик қилади, аммо касаллик даврида ичакдан ташқари кўринишлар, шу жумладан оғиз бўшлиғида белгилар пайдо бўлиши мумкин. Кўпгина ҳолларда, оғиз бўшлиғининг яллиғланиши ичак яллиғланишидан кейин пайдо бўлади, ЯКга қараганда ККда ёшлар ва эркакларда яллиғланиш белгилари тез-тез учрайди.

М. Гарамсзеги ва бошқалар. тадқиқотида ККда юз-жағ соҳасининг шикастланишлари тизимлаштирилган. Тери шикастланиши, периорал эритема, лабнинг ўрта ёриғи, лабларнинг диффуз шиши, гингивит, стоматит, вестибуляр соҳада ва ретромоляр чуқурчада полипоид яралар, оғиз бўшлиғида афта кўринишидаги яралар, шиллиқ қаватнинг гиперплазияси билан локализация қилинган "тошли йўлакча", лимфаденопатия таъкидланган. Оғиз бўшлиғининг шикастланиши кўпинча узоқ анамнезга эга

ISSN 3030-3907

бўлган беморларда кузатилади, лекин баъзида улар ичак касалликлари бўлмаганида ҳам кўрилади.

ККги фонида сурункали стоматит сурункали яралар билан шиллиқ қаватнинг умумий эритемаси сифатида тавсифланади. Танглай шиллиқ қаватининг биопсиясида ноказеоз гранулёмалар аниқланган. Баъзи ҳолларда оғиз бўшлиғидаги ўзгаришлар ичак белгиларидан бир неча йил олдин пайдо бўлган.

ККнинг гистологик кўринишлари орасида жағ-фасциал соҳасида туберкулёз фолликулалар қайд этилган, улар эпителиоид ва казеоз некрозсиз кўп ядроли гигант ҳужайралар билан ифодаланади. Туберкулоид фолликулалар КК учун хос эмаслигини ҳисобга олиб, беморда афтоз яра, глоссит, хейлит, оғиз атрофидаги терининг қуриши, стоматит ва лабларнинг қалинлашиши бўлсагина ККга характерли ҳисобланади. Тадқиқотчилар оғиз бўшлиғининг вестибуляр соҳасида гранулёмаларнинг шаклланишига эътибор беришади, бу эса беморда КК мавжудлигини кўрсатади, кейинчалик эндоскопия натижаларига кўра ташхисни тасдиқлайди.

Яллиғланишли ичак касалликлари (ЯИК) билан хасталанган беморларда кузатиладиган оғиз бўшлиғининг яллиғланиш жараёнлари, хусусан Крон касаллиги (КК) фаол кечаётган ҳолларда, кўп учрашига қарамай, одатда ўртача даражада намоён бўлади.

A.J. Williams ва ҳаммуаллифлар лабларидаги шиш, ёноқ шиллиқ қаватида “тошли йўлакча” кўринишидаги ўзгаришлар, чизиқсимон яралар, шишлар ҳақида ёзадилар. Уларнинг фикрига кўра, 35% ҳолатларда беморларга махсус стоматологик даволаш талаб этилмайди, баъзи ҳолларда фақат кортикостероид дори воситалари самарали бўлган. Бошқа тадқиқотларда эса энг кўп зарарланадиган жойлар – ёноқ шиллиқ қавати, оғиз бўшлиғининг кириш қисми ва лаблар эканлиги аниқланган. Камроқ ҳолларда яллиғланиш жараёни альвеолар туби ва томоқ шиллиқ қаватига ўтиб, кўплаб афтоз яралар ривожланишига олиб келади.

σ_o - 600°C haroratdagi mustahkamlik chegarasi;

ISSN 3030-3907

R_l – g‘ovaklarning bosimi;
$u(T)$ - yuzasining tortilish koeffitsiyenti;
$r(\eta)$ – katta g‘ovakli zarrachalarning minimal radiusi;
η - bog‘lovchi mahsulotning hajm miqdori.

Shunday qilib, isitishda namunalarni mustahkamligini ko‘tarilishi, shu bilan tushuntiriladiki, bunda hujayralarda bosimning o‘zgarishi, qattiq faza bilan to‘qnashganda hosil bo‘ladi, bu esa plenkada namlikning uchishi va seolit kristallarining mustahkamlanishidan kelib chiqadi. Bu adsorbentg namunalarning qo‘shimcha siqilishiga olib keladi [29]. Shu sababli, ham granulalarni siqilishi, kuchlanishni kamaytiradi. Haroratning oshishi, tortilish koeffitsiyentini u(T) pasayishiga, natijada ichki bosim kamayadi va zarrachalarning bir-biri bilan bog‘liqligi mustahkamlanadi. Eng yuqori mustahkamlik 400°S gacha boradi (rasm 16).

Olingan natijalarni tahlil qilganda (rasm 16), o‘rtacha g‘ovaklarni o‘lchami baholaniladi. Quyidagi bog‘liqlikni (1) ifodadan ko‘rish mumkin

$$p(\eta) = \frac{2}{\sigma(T_2)-\sigma(T_1)}\frac{y(T_1)-y(T_2)}{}$$

Jadvaldagi natijalarni ifodaga qo‘yib [55] T =7,2-10-2 Dj/m_2 (T T=20 °S); u =5,940-2 Dj/m^2 (T =100 °C) va ayirmasi (100 °S) - (20 °C) rasm 1, g‘ovaklarni baxolaymiz. ~108m=10nm, [6], klassifikatsiyaga binoan, mezog‘ovaklarga javob beradi.

Xulosa.

Yuqorida o‘tkazilgan sifat ko‘rsatkichlari shuni ko‘rsatadiki, mustahkamlik chegarasini o‘zgarishi, seolit kristallaridan bog‘liq bo‘ladi. Granulalarning mustahkamligini baholash ekspluatatsiya jarayonida, shuni e’tiborga olish kerakki, g‘ovaklarning ustki qismida namlikning kondensatsiyalanishi natijasida mustahkamligi pasayadi

Seoolit NaA mexanik xususiyatlarini qayta tiklash uchun, qo‘llashdan oldin, optimal haroratda ya’ni ~ 400 °C gacha granulalar tekshiriladi. Mustahkamligini to‘yintirish vaqti, ~ 40...60 min. Namunalarning mustahkamlik chegarasining o‘sishi, bog‘lovchi material hajmining o‘sishi bilan boradi, lekin bunda g‘ovaklanish ko‘rsatkichi pasayadi, bu esa granulalarni adsorbsion xususiyatini pasaytiradi.

Seolitlarning mustahkamlik chegarasi, granulalarning uzunligi o‘zgarmas diametrda boradi. Namuna hajmini kattaligi bilan defekt ya’ni yorilish, mexanik o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin, bu esa mustahkamlik ko‘rsatkichining pasayishiga olib keladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Ali A.A., Rogalev M.S., Magarril R.Z. Energy and resource savings in the process of absorption drying of natural gas by glycols. // Energy Production and Management in the 21st Century. The Quest for Sustainable Energy. Eds. C.A. Brebbia, E.R. Magaril & M.Y. Khodorovsky. V. 2. – WIT Press: Southampton, 2014. 867 – 878 P.
2. Даутов Т.Р., Магарил Р.З. Исследование влияния азеотропных агентов на протсесс абсорбсионной осушки газа. // Нефт и газ Западной Сибири: Матер. Всерос. науч.-технич. конф. Т. 2. - Тюмен: ТюмГНГУ, 2009. -С. 273-274.
3. Даутов Т.Р. Совершенствование технологии осушки природного газа гликолями. // Система управления экологической безопасностю: сб. трудов Четвертой заочн. межд. науч.-практ. конф. Т. 2 - Екатеринбург: УГТУ-УПИ, 2010.- С. 30 - 34.
4. Бекиров Т.М., Туревский. Б.Н., Бахшиян Д.И. Совершенствование методов расчета процессов подготовки и переработки природного газа. Обзор; сер. Подготовка и переработка газа и газового конденсата. М.гВНИИЭГазпром, 2004, вш. 4, с. 58.
5. Бекиров Т.М., Шаталов А.Т. Сбор и подготовка к транспорту природных газов. М:Недра, 2002, с. 260.
6. Гриценко А.И. Научные основы промысловой обработки углеводородного сыря. М.:Недра, 2003, с. 239.
7. Гухман Л.М. Подготовка газа северных газовых месторождений к дальнему транспорту // Л.: Недра, 1980. 161 с.
Drake O.S., Dawson E.R. // J. Petrol. Techn. 1960. V. 12. - № 7. - P. 1221.
Пат. 5158758 США, М. Кл5. С 01 В 33/14. Получение силикагеля с высокой удельной поверхностью / P.C. Chieng, D.J. Brame, A.H.T. Chu (США); International Minerals and Chemical Corp.; Заявлено 24.04.1989; Опубл. 27.10.1992, РЖИ 423/338.
10. Собиров С.А., Муртазаев Ф.И. Нефт газ соҳасида фойдаланиладиган цеолитларни қўллаш усулларини тадқиқ қилиш. // “Neft va gaz sohasida kadrlar tayyorlash sifatini oshirishda ta’lim va ishlab chiqarish klasterining ahamiyati” Ilmiy-amaliy konferensiya. Qarshi-2023. 461-466. b
11. Гухман Л.М. Подготовка газа северных газовых месторождений к дальнему транспорту // Л.: Недра, 1980. 161 с.

ISSN 3030-3907

METALLURGIYA SANOATI CHIQINDILARI ASOSIDA OLINADIGAN QURILISH MATERIALLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xolova Nodira Axmedovna
Buxoro davlat texnika universiteti o`qituvchisi
E-mail: Xolovanodiraaxmedovna66@gmail.com
Maqsudov Firdavs Tojiddin o'g'li
Buxoro davlat texnika universiteti 522-21 MMT guruh talabasi
E-mail: Firdavsmaqsudov600@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada metallurgiya sanoatining rivojlanib borishi,qora va rangli metallardan chiqadigan chiqindilarning hajmi , va qurilish materiallari ishlab chiqarishda uning mustahkamligini , qattiqligini va uzoq muddat o’z holatini yo’qotmasligi haqida yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: Qora va rangli metallurgiya , komplekslarning rivojlanib borishi ,texnogen chiqindilari.

Annotatsiya: В статье рассматривается развитие металлургической промышленности, объемы отходов черных и цветных металлов, а также значение их прочности, твердости и долговечности в производстве строительных материалов.

Ключевые слова: Черная и цветная металлургия, развитие комплексов, техногенные отходы.

Annotation: The article examines the development of the metallurgical industry, the volumes of ferrous and non-ferrous metal waste, as well as the importance of their strength, hardness and durability in the production of building materials.

Key words: Ferrous and non-ferrous metallurgy, development of complexes, man-made waste.

Kirish

Qora va rangli metallurgiya sanoatining metallurgiya shlaklari qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun bebaho xom-ashyolardan biri hisoblanadi. Maqbul tarkib asosida beton tayyorlash texnologiyasida metallurgiyasi sanoati chiqindilari shlaklar o’zining barcha parametlari va xossalari bo’yicha to’liq tabiiy to’ldiruvchilarning o’rnini bosishi mumkin. Qora va rangli metallurgiya sanoatining metallurgiya shlaklari qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun bebaho xom-ashyolardan biri hisoblanadi. Maqbul tarkib asosida beton tayyorlash texnologiyasida metallurgiyasi sanoati chiqindilari shlaklar o’zining barcha parametlari va xossalari bo’yicha to’liq tabiiy to’ldiruvchilarning o’rnini bosishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Asosiy qism : Sanoat moddiy ishlab chiqarishning yetakchi tarmog‘i bo‘lib, u butun xalq xo'jaligining rivojlanishi darajasini belgilab beradi. Sanoatda ishlab chiqarish qurollari va vositalari hamda xalq iste'moli mollarining asosiy qismi bunyod etiladi. Mehnat predmeti (kishi mehnati yo‘naltirilgan buyum)ga bo‘lgan t a’sir xarakteriga qarab sanoat konchilik sanoati va ishlov berish tarmoqlariga bo‘linadi. Birinchi tarmoq, ruda, ko‘mir, neft, gaz va boshqa tabiiy xomashyo qazib olish, gidroelektrostansiyalar va boshqa korxonalarni o‘z ichiga oladi. Ikkinchi tarmoqqa esa qora va rangli metallar, prokatlar, kimyoviy va neft-kimyo mahsulotlari, qurilish materiallari, o‘rmonchilik, oziq-ovqat va boshqa xalq iste’moli mollari mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari, atom, issiqlik elektrostansiyalari kiradi.

O‘zbekistonda sanoatning quyidagi tarmoqlari muvofiq ravishda rivojlanib bormoqda:

a) metallurgiya kompleksi;
b) mashinasozlik kompleksi;
s) neft-kimyo kompleksi;
d) agrosanoat kompleksi;

Sanoatning rivojlanishi dinamik xarakterga ega bo‘lib, unda doimo o‘zgarishlar sodir bo‘lib turadi. Sanoat ishlab chiqarish o‘zaro bog‘liq bo'lgan mehnat jarayonlari va tabiiy jarayonlar yig‘indisidan iborat. Bu jarayonlar yordamida korxonaga keltirilgan xomashyoga ishlov berishda ularni tashishga, ko‘chirishga, nazorat qilishga, ishlab chiqarish uchun zarur b o ig an jihozlar va turli xil energiya bilan ta’m inlash uchun juda ko‘p m ehnat sarf qilinadi. Shunday qilib, ishlab chiqarish jarayoni texnologik, transport, energetik va shu kabi bir qancha jarayonlardan iborat boladi. Lekin ishlab chiqarish asosini texnologik jarayonlar tashkil etadi. Texnologik jarayonlar yordamida xomashyo ishlab chiqarish mahsulotiga aylantiriladi. Texnologik jarayonlar turli prinsip asosida, masalan, ishlatilayotgan xomashyo turiga ko‘ra (neft, o‘simlik va hayvonot xomashyolari texnologiyasi), olish usullariga ko‘ra (oksidlash, qaytarish, elektrlash, suyultirish va hokazo), ishlatilishiga ko‘ra (qog‘oz, plastmassa va qurilish m ateriallari texnologiyasi) tasniflanadi. Texnologik jarayonlar quyidagi turlarga o‘linadi:

1) davriy jarayon;
2) uzluksiz jarayon;
3) kombinatsiyalashgan (davriy, uzluksiz) jarayon

Davriy jarayonda kerakli miqdordagi xomashyo apparatga tushiriladi, texnologik jarayonlar o‘tkaziladi va tayyor mahsulot chiqarib olinadi. So‘ngra apparatni yuvib, tozalab, yana yangi xomashyo tushiriladi va yuqoridagi jarayonlar

ISSN 3030-3907

takrorlanadi. Bu ish ko‘p m arta qaytariladi. Davriy jarayonga davriy ishlaydigan pechlarda g‘isht pishirish va p o‘latga term ik ishlov berish jarayonlarini misol qilib olish mumkin. Uzluksiz jarayonlarda apparatning hamma qismlarida kerakli parametrlar (harorat, bosim va hokazo) o‘zgarishsiz saqlanadi. Apparatga bir tomondan to’xtovsiz sur’atda xomashyo tushirib turiladi va qayta ishlanayotgan material ketma-ket bir qancha bosqichlardan o‘tib, tayyor mahsulot sifatida ikkinchi tomondan to‘xtovsiz ravishda chiqarib turiladi. Bunday apparatlarda uzluksiz jarayonlar ma’lum vaqt davom ida to‘xtovsiz ravishda olib boriladi. Ba’zan uzluksiz jarayonlarda apparatga xomashyo bo‘lib bo‘lib tushiriladi, tayyor mahsulot ham alohida-alohida chiqarib olinadi, lekin umumiy jarayon to‘xtatilmaydi, ya’ni uzluksizligicha qoladi. Bunday jarayonlar kombinatsiyalashgan yoki uzluksiz davriy jarayonlar deb yuritiladi (domna pechida cho‘yan, marten pechlarida poiat suyuqlantirib olish va hokazo jarayonlar). Bugungi kunda sanoat korxonalari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yillar davomida to‘planib qolgan texnogen chiqindilarni qayta ishlash hisoblanadi. Jumladan, Mis eritish zavodining Metallurgiya sexida konverter toshqollarini maydalash uchastkasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Mazkur uchastkaning faoliyatini yo‘lga qo‘yishdan asosiy ko‘zlangan maqsad texnogen chiqindilar tarkibidagi mis, oltin va kumushni ajratib olish darajasini oshirish orqali qo‘shimcha mahsulotlar olishdan iborat [1].

Loyihaning e'tiborga molik tomoni shundaki, texnogen chiqindilarni qayta ishlash loyihasi ortiqcha mablag‘lar sarfisiz amalga oshirildi. Misni boyitish fabrikasini rekonstruksiya qilish davomida almashtirilgan maydalagich (drobilka) metallolomga topshirilmadi, aksincha unga “ikkinchi hayot baxsh etildi”. Natijada mazkur ob'ektni ishga tushirish uchun atigi 395 ming dollar mablag‘ sarflandi. Ushbu uchastkada mis shteynlarini konverterlash jarayonida hosil bo‘ladigan texnogen chiqindilar (toshqollar), aylanma materiallarini maydalash hamda klinker (rux ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan chiqindi) bilan xomashyo qorishmasi tayyorlanib, Vanyukov pechida to‘g‘ridan-to‘g‘ri eritiladi. Kombinat tomonidan birmuncha oldin yaratilgan texnologiya bo‘yicha texnogen chiqindilar 2-Mis boyitish fabrikasida (oraliq masofasi 6 km) qayta ishlanib, konsentrat sifatida qaytarib olinar edi.

Xulosa: Mazkur jarayonlarda transport, ishchi xizmati, yonilg‘i resurslari, boyitishda foydalaniladigan kimyoviy reagentlarga bo‘lgan xarajatlari oyiga o‘rtacha 587 mln so‘m tashkil qilar edi. Ishlab chiqarishda qo‘llanilgan yangi texnologiya yiliga 7,04 mlrd so‘m mablag‘larni tejash imkonini beradi. Yana bir ahamiyatli jihati shundaki 2-Mis boyitish fabrikasida texnogen chiqindilarni qayta ishlash orqali foydali metallarni olish ko‘rsatkichi mis bo‘yicha 60-72% bo‘lgan.

ISSN 3030-3907

Metallurgiya sexi Vanyukov pechidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qayta ishlash jarayoni orqali xomashyodan mis tayyor mahsulotini ajratib olish ko‘rsatkichi esa 93,87% tashkil etadi. Buning natijasida qo‘shimcha mahsulot olishga erishiladi. Shuningdek, kombinatda yana bir yangilik yaratildi. Rux zavodi texnogen chiqindilarini qayta ishlash jarayoniga jalb qilish orqali Metallurgiya sexi Vanyukov pechi, eritish va konverter pechlaridagi tabiy gazni tejab qolish va qo‘shimcha mis, oltin va kumush mahsulotlarini ajratib olish imkonini beradi. E'tiboringizni raqamlarga qaratadigan bo‘lsak, mazkur uchastkada yiliga: Mis eritish zavodining 24 000 tonna texnogen chiqindilari qayta ishlanadi. Natijada yiliga qo‘shimcha 789 tonna mis katodi, 58 kg oltin va 442 kg kumush ajratib olinadi. Rux zavodining 96 000 tonna texnogen chiqindilarini (klinker) qayta ishlash esa qo‘shimcha 2 028 tonna mis katodi, 121,2 kg oltin va 29,9 tonna kumush olish imkoniyatini yaratadi. Xulosa qilib aytganda, texnogen chiqindilarni qayta ishlash natijasida yiliga 59,2 mln dollar daromad olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1.Х. Кулдашев. Саноат чиқиндилари асосида қурилиш материалларини ишлаб чиқариш. Ўқув қўлланма. Самарқанд. 2017. 159 бет

2.Қурилиш материаллари ва металлар технологияси Султонов А.А., Тўлаганов А.А., Қурбонов Т.Ю., Мелиев О.А.,Шермамедов Д.Н.,Назаров А.Н. Дарслик. 2012-Т

3.Kholova N., Abdullaev R. Censuring the durability of foundations of buildings and structures //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 839. – №. 5. – С. 052044.

4.Kholova N. A. Production of Reinforced Concrete Products by Application of Energy Saving Methods is the way of Increasing the Economic Efficiency of National Economy //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 297-298.

5.Холова Н. А. МЕТОДЫ УХОДА, ПРИМЕНЯЕМЫЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ СОЛНЕЧНОГО СВЕТА НА ОТКРЫТЫХ ПЛОЩАДКАХ ДЛЯ УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА СВЕЖЕУЛОЖЕННОГО БЕТОНА //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 165-168.

6. Fayzullaevna S. N., Akhmedovna K. N. Significant Technological Methods of Production of Composite Materials //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2023. – Т. 3. – №. 2. – С. 36-40.

7.Akhmedovna K. N. Production of Composite Materials by Important Technological Methods //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 102-105.

ISSN 3030-3907

8.Холова Н. ЮҚОРИ МАРКАГА ЭГА БЎЛГАН БОҒЛОВЧИ МОДДАЛАР ОЛИШ УСУЛЛАРИ //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2024. – Т. 3. – №. 3. – С. 244-250.

9.Холова Н. А. Меъморий чизмаларнинг асосий турлари //Интернаука.-2019. – №. 6-2.-С. 47-49.

10.Шамсиева Н. Ф., Холова Н. А. ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА АЛЮМИНЕВЫХ КОМПОЗИТ-ПАНЕЛЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЗА РУБЕЖОМ //AMERICAN JOURNAL OF EDUCATION AND LEARNING. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 448-452.

11.Холова Н. А. РОЛЬ СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРОВ В ПОЛУЧЕНИИ ВЫСОКОПРОЧНЫХ БЕТОНОВ ИЗ ОБЫЧНЫХ ЦЕМЕНТОВ //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 48. – С. 754-757.

12. Kholova N.The role of superplasticizers in improving the quality and properties of construction materials //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. -Т. 4. – №. 11. – С. 344-347.

13.Холова Н. А. Методы улучшения качества бетона //Miasto Przyszłości. – 2024. – Т. 54. – С. 1638-1641.

ISSN 3030-3907

LECANORA ARGOPHOLIS LISHAYNIGINING AMINOKISLOTA TARKIBINI TADQIQ ETISH

Jalolov Iqboljon Jamolovich
Farg‘ona davlat universiteti, kimyo fanlari doktori, professor
E-mail: i_jalolov1974@mail.ru
Tel: +998911077138
Qoraboyeva Gulnozaxon Islom qizi
Farg‘ona davlat universiteti Tovarlar kimyosi ixtisosligi Tayanch doktoranti
E-mail: gulnozaqoraboyeva309@gmail.com
Tel: +998501112558
Abdulhayev Bekzod Rustamjon o‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi tibbiyot instituti talabasi
E-mail: b_abdulhayev4385@gmail.com
Tel: +998911574385

Annotatsiya. Aminokislotalar inson salomatligi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan moddalardan biri hisoblanadi. Ular nafaqat oqsillar sintezida, balki turli metabolik jarayonlar va fiziologik funksiyalarni tartibga solishda ham faol ishtirok etadi. Shu sababli, tabiiy manbalar tarkibidagi aminokislotalarni o‘rganish zamonaviy biotibbiyot va farmatsiya sohalarida dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, o‘simliklar va lishayniklardan ajratib olingan aminokislotalar ularning sog‘liq uchun foydali xususiyatlari sababli biologik faol moddalar sifatida e’tiborni tortmoqda. Ushbu tadqiqotda O‘zbekiston florasiga mansub Lecanora argopholis turining aminokislotalar tarkibi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usuli orqali aniqlab chiqildi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, L. argopholis tarkibida alanin, leysin, glutamin kislotasi, asparagin va serin kabi biologik faol aminokislotalar mavjudligi kuzatildi. Bu birikmalar yallig‘lanishga qarshi, immun tizimini qo‘llab-quvvatlovchi va energiya ishlab chiqarishni faollashtiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shunday xususiyatlarini inobatga olgan holda, Lecanora argopholis lishaynikini sog‘liqni mustahkamlovchi tabiiy vosita sifatida qo‘llash istiqbollari mavjudligi aniqlanmoqda.

Kalit so‘zlar: Aminokislotalar, oqsillar, metabolizm, fiziologik funksiyalar, tabiiy manbaalar, o‘simliklar, lishayniklar, ozuqaviy qo‘shimchalar, *L. argopholis.*

Аннотация. Аминокислоты представляют собой жизненно важные соединения для здоровья человека. Они участвуют не только в синтезе белков, но и играют активную роль в регуляции различных метаболических процессов и физиологических функций организма. В связи с этим изучение аминокислотного состава природных источников становится одним из

ISSN 3030-3907

актуальных направлений современной биомедицины и фармацевтики. Особенно большое внимание уделяется аминокислотам, выделенным из растений и лишайников, благодаря их полезным свойствам и высокой биологической активности. В настоящем исследовании с использованием метода высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ) был определён аминокислотный состав лишайника *Lecanora argopholis*, произрастающего на территории Узбекистана. Согласно полученным результатам, в составе *L. argopholis* были идентифицированы такие биологически активные аминокислоты, как аланин, лейцин, глутаминовая кислота, аспарагин и серин. Эти соединения обладают противовоспалительными, иммуномодулирующими свойствами, а также участвуют в процессах энергетического обмена. Учитывая данные характеристики, лишайник *Lecanora argopholis* может рассматриваться как перспективный природный источник для укрепления здоровья и потенциального использования в лечебно-профилактических целях.

Ключевые слова: Аминокислоты, белки, метаболизм, физиологические функции, природные источники, растения, лишайники, пищевые добавки, *L.* argopholis.

Annotation. Amino acids are considered one of the substances of special importance for human health. They are actively involved not only in the synthesis of proteins, but also in the regulation of various metabolic processes and physiological functions. Therefore, the study of amino acids in the composition of natural sources has become one of the most relevant areas in the field of modern biomedicine and pharmacy. Amino acids isolated from plants and lichens in particular are gaining attention as biologically active substances due to their beneficial health properties. In this study, the amino acid composition of Lecanora argopholis, a species native to the flora of Uzbekistan, was determined by the highly effective liquid chromatography (YSSX) method. According to the data obtained, L. argopholis was observed to contain biologically active amino acids such as alanine, leucine, glutamic acid, asparagine, and serine. These compounds are characterized by their anti-inflammatory, immune system-supporting and energy production-activating properties. Taking into account such properties, it is being determined that there are prospects for the use of Lecanora argopholis lichen as a natural health-strengthening agent.

Keywords: amino acids, proteins, metabolism, physiological functions, natural sources, plants, lichens, nutritional supplements, L. argopholis.

Kirish

ISSN 3030-3907

Aminokislotalar —biologik tizimlarning ajralmas strukturaviy komponentlari bo‘lib, ular organizmda kechadigan ko‘plab fiziologik va biokimyoviy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi. Bugungi kunda aminokislotalarning tarkibi hamda ularning biologik faolligini o‘rganish ilmiy izlanishlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, lishayniklar kabi tabiiy manbalar tarkibidagi aminokislotalarning o‘rganilishi ularning farmakologik imkoniyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shunga qaramay, O‘zbekiston florasiga kiruvchi lishaynik turlarining aminokislota profili va ularning biologik xususiyatlari hali yetarlicha tadqiq etilmagan. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, ekologik omillar, jumladan iqlim sharoitlari, tuproq tarkibi va boshqa muhit faktorlarining lishayniklarning metabolik faoliyatiga ta’siri natijasida ularning kimyoviy tarkibi, xususan aminokislotalar nisbati va sifati o‘zgarib turadi.

Ushbu ilmiy ishda, O‘zbekiston hududida o‘suvchi *Lecanora argopholis* turining aminokislotalar tarkibini aniqlash va tahlil qilish asosiy maqsad qilib olindi. Tadqiqot natijalari mazkur turdagi lishayniklarning salohiyatli biologik faolligini baholash hamda ularni sog‘liqni saqlash sohasida qo‘llash istiqbollarini aniqlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bir hujayrali suvo’tlari, zamburug‘lar, ko‘k-yashil bakteriyalar (siyanobakteriyalar) va yana ko‘plab hali to‘liq aniqlanmagan mikroorganizmlarning murakkab simbiozi bo‘lgan lishayniklar o‘ziga xos tuzilishga ega. Lishaynik hosil qiluvchi zamburug‘lar (lishayniklar)dagi simbioz tushunchasi ilk bor 19-asrda Franck va De Bary tomonidan ilgari surilgan [1]. Liken tallusi (asosiy tanasi) odatda bitta mikobiont hamda bir turdagi suvo’ti yoki siyanobakteriyani o‘z ichiga oladi. Biroq, tallusida ikki xil fotobiontni birgalikda saqlovchi lishayniklar ham mavjud. Bu simbiotik aloqa, odatda, o‘ziga xos mikobiont va fotobiontlar o‘rtasida yuzaga keladi. Ular o‘rtasidagi fiziologik o‘zaro ta’sir natijasida biz “lishaynik tallusi” deb ataydigan tuzilma hosil bo‘ladi [2]. Lishaynik tallusining hosil bo‘lishida asosiy rolni mikobiont bajaradi. Fotobiont esa mikobiont tomonidan tashkil etilgan tallus ichida joylashgan bo‘ladi [3]. Shu sababli, lishayniklarga, odatda, tarkibida ishtirok etayotgan zamburug‘ (mikobiont) nomi beriladi. Mikobiont tallus tuzilishini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, biroq fotobiont bo‘lmasa, mikobiont to‘liq lishaynik tallusini hosil qila olmaydi. Bu esa, to‘liq lishaynik tallusi shakllanishida fotobiont ham mikobiont kabi muhim ekanligini ko‘rsatadi [4].

Yer yuzida lishaynik hosil qiluvchi zamburug‘larning soni taxminan 17 000–20 000 atrofida deb baholanadi [5]. Bu barcha zamburug‘ turlarining taxminan 19

ISSN 3030-3907

foizini tashkil etadi. Lishaynik hosil qiluvchi zamburug‘larning esa 98 foizini Ascomycotina bo‘limi vakillari tashkil etadi [6].

Ularning bunday murakkab tuzilishi tadqiqotchilar uchun turli qiyinchiliklar tug‘dirsa-da, bu simbioz tizimi parazitizm va o‘zaro foydali aloqalar (mutualizm) kabi biologik hodisalarning evolyutsiyasini chuqur tushunishda bebaho manba hisoblanadi. Garchi ularning anatomik tuzilishi asosan zamburug‘lardan iborat bo‘lsa-da, ular ko‘pincha yashil suvo’tlar (yoki kam hollarda boshqa fotosintetik organizmlar) bilan simbiozda yashaydi. Shu bois, lishayniklar botaniklar va mikologlar tadqiqotining chegarasida qolib ketgan, ya’ni ular hech bir soha tomonidan to‘liq qamrab olinmagan. Masalan, biz hanuzgacha ularning hayot aylanishi, o‘sishi yoki ko‘payishiga doir asosiy savollarga to‘liq javob bera olmaymiz. Ushbu noma’lumliklar lishaynik turlarini aniqlashda chalkashliklarga olib kelgan. So‘nggi yillarda kimyoviy va molekulyar usullar orqali tur ajratish texnologiyalari rivojlanishi natijasida, lishaynik turlarini aniqlashda an’anaviy yondashuvlar yetarli emasligi aniq bo‘ldi. Shuning uchun zamonaviy ilmiy yondashuvda lishaynik turlarini belgilashda miqdoriy (kvantitativ) metodlardan foydalanish zarurati paydo bo‘lmoqda [7] [8][9].

Aminokislotalar tabiiy manbalarda keng tarqalgan bo‘lib, biologik jihatdan faol birikmalar hisoblanadi. Ular turli o‘simliklar, lishayniklar va boshqa tabiiy resurslar tarkibida mavjud bo‘lib, organizmda sodir bo‘ladigan ko‘plab biokimyoviy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, lishayniklar o‘zining boy kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi. Ular tarkibida aminokislotalar, fenol birikmalar, flavonoidlar, vitaminlar kabi komponentlar mavjud bo‘lib, bu moddalar terapevtik va farmakologik jihatdan qiziqarli hisoblanadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda lishayniklarning aminokislotalar tarkibi va ularning biologik faolligi keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Masalan, ba'zi tadqiqotlarda lishayniklarning aminokislotalar tarkibi va ularning biologik faolligi o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda lishayniklarning tarkibida turli aminokislotalar aniqlangan va ularning antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va boshqa farmakologik xususiyatlarga ega ekanligi qayd etilgan. Shunga qaramay, O‘zbekiston hududida o‘sadigan *Lecanora argopholis* turining aminokislotalar tarkibi va biologik faolligi bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar yetarli emas. Shu bois, mazkur tadqiqot aynan ushbu turni o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, uning tarkibidagi aminokislotalarni aniqlash, ularning miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini baholash hamda antioksidantlik faolligini tahlil qilishni maqsad qilgan. Tadqiqot natijalari *L. argopholis* lishaynikining kimyoviy tarkibi haqida yangi ma’lumotlar beradi va uni tabiiy dori vositalari sifatida qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganishga ilmiy asos yaratadi.

ISSN 3030-3907

METODOLOGIYA

O‘zbekistonning Namangan viloyatining tog‘li va tog‘ oldi mintaqasida o‘sadigan *L. argopholis* lishaynigi terildi va uning erkin aminokislotalari izolyatsiya qilindi (1-rasm).



1-rasm. *L. argopholis* lishaynigi.

Namunaning suvli ekstraktidan oqsillar va peptidlarni ajratib olish jarayoni sentrifuga stakanlarida cho‘ktirish yo‘li bilan amalga oshirildi. Buning uchun 1 ml hajmdagi sinov namunasi ustiga xuddi shuncha (1 ml) 20% li trikloruksusirqa kislotasi (TCA) eritmasi qo‘shildi va aralashma 10 daqiqa davomida saqlab qo‘yildi. Shundan so‘ng, hosil bo‘lgan cho‘kma 8000 aylanish/min tezlikda 15 daqiqa mobaynida santrifugalash yo‘li bilan ajratildi. Ajratilgan 0,1 ml supernatant namunasi liyofilizatsiya qilindi.


Gidrolizat bug‘latilib, qolgan quruq qoldiq trietilamin–asetonitril–suv (1:7:1) aralashmasida eritildi va quritildi. Ushbu kislotani neytrallash jarayoni ikki marotaba takrorlandi. Aminokislotalarning feniltiokarbamil hosilalari (PTC) Stiven A. va Koen D. tomonidan tavsiya etilgan usul asosida feniltioizosiyanat bilan reaksiyaga kirishish orqali hosil qilindi.

Aminokislotalar hosilalarining aniqlanishi yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (HPLC) yordamida amalga oshirildi. Tadqiqotda DAD detektor bilan jihozlangan Agilent Technologies 1200 turidagi xromatograf, 75×4,6 mm o‘lchamdagi Discovery HS C18 kolonkasidan foydalanildi. Harakatlanuvchi fazalar quyidagicha: eritma A — 0,14 M CH_3COONa va 0,05% trietilamin (TEA), pH 6,4; eritma B — CH_3CN (asetonitril). Oqim tezligi 1,2 ml/min, detektsiya to‘lqin uzunligi 269 nm. Gradient rejimi %B/min quyidagicha: 1–6%/0–2,5 daq; 6–30%/2,51–40 daq; 30–60%/40,1–45 daq; 60–60%/45,1–50 daq; 60–0%/50,1–55 daq.

NATIJA VA MUHOKAMA

L. argopholis lishaynik namunasi Namangan viloyati tog‘ oldi hududidan yig‘ildi va HPLC yordamida aminokislota tarkibi o‘rganildi (2-rasm).

ISSN 3030-3907



2-rasm. *L. argopholis* lishaynigi aminokislota tarkibi xromatogrammasi

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mazkur lishaynik tarkibida asparagin kislotasi, glutamin kislotasi, serin, glisin, asparagin, glutamin, sistein, treonin, arginin, alanin, prolin, tirozin, valin kabi hamda boshqa bir nechta erkin aminokislotalar mavjudligi aniqlangan. Ushbu aminokislotalarni ularning almashinuv xususiyatiga ko‘ra — ya’ni, almashinadigan va almashinmaydigan guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish ilmiy jihatdan yanada samaraliroq yondashuv hisoblanadi. (1-jadval).

1-jadval.

***L. argopholis* lishayniginin almashinmaydigan aminokislota tarkibi**


T/r	**Almashinmaydigan aminokislotalar nomi**	**Konsentratsiya mg/gr**
1	Trionin	0.751711
2	Valin	0.280024
3	Metionin	0.091855
4	Izoleytsin	0.092264
5	Leytsin	0.262785
6	Triptofan	0.243582
7	Fenilalanin	0.168487
8	Lizin	0.136072

1-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan *L. argopholis* lishaynigi tarkibida almashinmaydigan aminokislotalardan treoninning miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan yuqoriroq (1 gramm o‘simlik tarkibida 0.751711mg/g) ekanligini ko‘rishimiz mumkin. *Lecanora argopholis* lishaynigi tarkibida treonin aminokislotasining yuqori miqdorda aniqlanishi biologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Treonin almashinmaydigan aminokislota bo‘lib, u organizmda oqsillar sintezi, immun tizimi faoliyati va jigar funksiyasini qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etadi. Shuningdek, bu aminokislota kollagen va elastin kabi muhim

ISSN 3030-3907

birikmalar hosil bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, *L. argopholis* lishaynigi sog‘liqni mustahkamlovchi tabiiy manba sifatida e’tiborga loyiqdir. Keyingi o’rinda *L. argopholis* tarkibida valin, leytsin va triptofan almashinmaydigan aminokislotalarining miqdori lishaynik tarkibidagi boshqa almashinmaydigan aminokislotalarga nisbatan yuqoriligini ko‘rishimiz mumkin (1 grammida mos ravishda 0.280024mg, 0.262785mg va 0.243582mg). L. *argopholis* tarkibida valin, leytsin va triptofan kabi almashinmaydigan aminokislotalarning yuqori miqdorda aniqlanishi ushbu lishaynikning biologik faolligini yanada oshiradi. Ushbu aminokislotalar mushak to‘qimalarining o‘sishi va tiklanishi, energiya ishlab chiqarilishi va asab tizimi faoliyati uchun muhim hisoblanadi. Ayniqsa, leytsin va valin sportchi va jismoniy faolligi yuqori insonlar uchun muhim bo‘lgan BCAA (Branched-Chain Amino Acids) guruhiga kiradi. Triptofan esa kayfiyatni tartibga soluvchi serotonin neyromediatori sintezida ishtirok etadi, bu esa stressni kamaytirish va uyquni yaxshilashda foydalidir.

Jadvaldagi ma’lumotlarni diagramma holatida ko‘rilsa aminokislota miqdori yaqqol namoyon bo‘ladi (1-diagramma).



1-diagramma. *L. argopholis* lishaynigining almashinmaydigan aminokislota tarkibi

Lishaynik tarkibida shuningdek sezilarli miqdorda almashinadigan aminokislotalar aniqlandi (2-jadval).

ISSN 3030-3907

2-jadval.


***L. argopholis* lishaynigining almashinadigan aminokislota tarkibi**

T/r	**Almashinadigan aminokislotalar nomi**	**Konsentratsiya mg/gr**
1	Asparagin kislota	0.220132
2	Glutamin kislota	0.829445
3	Serin	1.164541
4	Glitsin	0.282776
5	Asparagin	0.72847
6	Glutamin	0.190239
7	Sistein	0.115847
8	Gistidin	3.703222
9	Arginin	1.833887
10	Alanin	0.042762
11	Prolin	1.197264
12	Tirozin	0.518236

2-jadvalda ko'rinib turibdiki, *L. argopholis* lishaynigi tarkibida almashinadigan aminokislotalardan gistidin miqdori boshqa aminokislotalarga nisbatan ancha yuqori (1 gramm o'simlik tarkibida 3.703222 mg) ekanligini ko'rishimiz mumkin. Gistidin organizmda to'qimalarning o'sishi, tiklanishi va gemoglobin sintezi uchun muhim bo'lgan almashinadigan aminokislotadir. Uning yuqori miqdorda aniqlanishi L. *argopholis* lishaynigini immunitetni mustahkamlovchi va antioksidant xususiyatlarga ega tabiiy manba sifatida baholash imkonini beradi. Keyingi o'rinda *L. argopholis* tarkibida serin (1.164541mg), arginin (1.833887mg) va prolin (1.197264mg) almashinadigan aminokislotalarining miqdori lishaynik tarkibidagi boshqa almashinmaydigan aminokislotalarga nisbatan yuqoriligini ko'rishimiz mumkin. Serin, arginin va prolin kabi almashinadigan aminokislotalarning yuqori miqdorda bo'lishi L. *argopholis* lishaynigini yara bitishini tezlashtiruvchi, hujayra yangilanishini rag'batlantiruvchi va yurak-qon tomir tizimini qo'llab-quvvatlovchi manba sifatida ajratib turadi. Ushbu aminokislotalar metabolik jarayonlarda faol ishtirok etib, organizmning umumiy sog'lom faoliyatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Jadvaldagi ma'lumotlarni diagramma holatida ko'rilsa lishaynik tarkibidagi almashinuvchi aminokislotalar miqdori yaqqol namoyon bo'ladi (2-diagramma).

ISSN 3030-3907



2-diagramma. *L. argopholis* lishaynigining almashinadigan aminokislota tarkibi

Almashinadigan aminokislotalar *L. argopholis* lishayni tarkibida almashinmaydiganlarga nisbatan ko'p miqdorda uchrashi aniqlandi.

Umumiy miqdorda *L. argopholis* lishaynigidan 12.8536 mg/g miqdorda aminokislotalar ajratib olindi.

Xulosa

O'zbekiston hududida o'suvchi *Lecanora argopholis* lishaynigi tarkibidagi aminokislotalar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usuli yordamida aniqlanib, ularning miqdoriy va sifat jihatdan ahamiyatli ekanligi isbotlandi. Tadqiqot natijalari ushbu lishaynikda almashinmaydigan aminokislotalardan treonin, valin, leysin va triptofan, shuningdek almashinadigan aminokislotalardan gistidin, serin, arginin va prolin yuqori miqdorda mavjud ekanligini ko'rsatdi. Bu aminokislotalarning organizmdagi yallig'lanishga qarshi, immun tizimini qo'llab-quvvatlovchi, hujayra regeneratsiyasini rag'batlantiruvchi va energetik jarayonlardagi ishtiroki

L. argopholis lishaynigini biologik faol qo'shimcha sifatida qo'llash istiqbollarini belgilab beradi. Shu bois, ushbu lishaynikni farmatsevtika va funksional oziq-ovqat sanoatida qo'llash imkoniyatlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Seckbach, J. (2001), Symbiosis: mechanisms and model systems, Kluwer Academic Publishers, Netherland

2. Dobson, F.S. (2003), A Field Key to Common Churchyard Lichens, Field Studies Council, England.

ISSN 3030-3907

3. Büdel, B. ve Scheidegger, C. (1996), “Thallus morphology and anatomy,” in Nash III, T.H., Lichen Biology, Cambridge University Press, London
4. Ingold, C.T. ve Hudson, H.J. (1993), The biology of fungi, 6th Edition, NewYork: Chapman & Hall, London
5. Galloway D.J. (1992), “Biodiversity: a lichenological perspective.,” Biodiv. Conserv.1: 312-323.
6. Kirk, P.M. Cannon, P.F., David, J.C. ve Stalpers, J.A., (2001), Ainsworth & Bisby's Dictionary of the Fungi, 9th Edition, CABI Publishing.
7. Blanco, O., et al. "Major clades of parmelioid lichens (Parmeliaceae, Ascomycota) and the evolution of their morphological and chemical diversity." *Molecular phylogenetics and evolution* 39.1 (2006): 52-69.
8. Del-Prado, R., et al. "Genetic distances within and among species in monophyletic lineages of Parmeliaceae (Ascomycota) as a tool for taxon delimitation." *Molecular Phylogenetics and Evolution* 56.1 (2010): 125-133.
9. Leavitt, S. D., M. P. Nelsen, and L. L. St Clair. "Treading in murky waters: making sense of diversity in Xanthoparmelia (Parmeliaceae, Ascomycota) in the Western United States." *Bull California Lichen. Soc* 19 (2012): 58-70.

ISSN 3030-3907

NEFT EMULSIYASINI PARCHALASHNING TERMOKIMYOVIY USULLI

Эргашев Акрам Холмуминович
Термиз давлат муҳандисликва агротехнологиялар университет
Катта ўқит.
E-mail: ərgashevakrom255@gmail.com
Холмухаммадиев Абдухолиқ Маҳаммади ўғли
Термиз давлат муҳандисликва агротехнологиялар университет
Acc.
E-mail: xolmuxammadiyev1609@gmail.com
Абдураимов Жаҳонгир Бахтиёр ўғли
Термиз давлат муҳандисликва агротехнологиялар университет
Acc.
E-mail: jabduraimov64@gmail.com

Annotatsiya. Termokimyoviy qurilma emulsiyani ajratish emulsiyani ajratis atmosfera bosimida va ortiqcha bosimda ishlashi mumkin separator Elektrodegidratorlar nasos neft ushlagich quvurli pechlarda vertikal neft shlam Meyoriy bosimsuvsizlantirish va tuzsizlantirish og‘ir neftlardan hosil bo‘lgan yuqori turg‘un suv.

Kalit so‘zlar: neft emulsiyasi, emulsiyani parchalash, termokimyoviy usul, demulsifikatsiya, emulgatorlar, issiqlik ta’siri, kimyoviy reagentlar, emulsiyani ajratish texnologiyasi, suv-neft emulsiyasi, neftni tayyorlash

Аннотация. Термохимическое устройство разделение эмульсии разделение эмульсиис может работать при атмосферном давлении и избыточном давлении сепаратор Электродегидраторы насос маслоуловитель вертикальный масляный шлам в трубчатых печах критическое давлениеобессоливание и опреснение высокостойкая вода, образующаяся из тяжелых нефтей.

Ключевые слова: масляная эмульсия, разложение эмульсии, термохимический метод, демульгация, эмульгаторы, термическое воздействие, химические реагенты, технология разделения эмульсии, водно-масляная эмульсия, приготовление масла

Annotation. Thermochemical device emulsion separation emulsion separation can work at atmospheric pressure and at overpressure separator Electrodegydrators pump oil holder vertical oil in pipe furnaces slurry Meiory depressurization and desalination high stagnant water formed from heavy oils.

ISSN 3030-3907

Keywords: oil emulsion, emulsion decomposition, thermochemical method, demulsification, emulsifiers, thermal effect, chemical reagents, emulsion separation technology, water-oil emulsion, oil preparation

Kirish


Separator samaradorligi past hozirda quyidagi afzalliklarga emulsiyani ajratish imkoniyati Markazdan qochma nasoseemulgatorlar va ularning kompozitsiyalaridan foydalanishni Atmosfera bosimli

Termokimyoviy qurilma (TKQ) – separator deemulgatorlar. Issiqlik tasirisiz deemulsatsiyalash samaradorligi past hozirda 80% neft TKQlarda suvsizlantiriladi. Ular quyidagi afzalliklarga ega.

- qurilmaning soddaligi (isitkich, cho‘ktirgich, nasos);
- jihozlarni o‘zgartirmasdan turli xarakterli emulsiyani ajratish imkoniyati mavjud.

Bu qurilmalar atmosfera bosimida va ortiqcha bosimda ishlashi mumkin.

Tayyor neft tarkibidagi suv miqdorini 40 mg/gacha tushirish mumkin.



1.1rasm. Atmosfera bosimli termokimyoviy suvsizlantirish qurilmasi.

1- Yig‘ish kollektori; 2- rezervuar; 3- Markazdan qochma nasos; 4- Isitkich; 5- Gaz ajratkich; 7-separator; 8-rezervuar; 9-nasos; 10-neft ushlagich; 11- neft ushlagich; 12-nasos; 13- nasos; 14-nasos.

Konda gazdan foydalangan neft emulsiyasi 1-yig‘ish kollektori orqali xom-ashyo rezevuari 2 da yig‘iladi. Undan nasos orqali 7-separatorga uzatiladi. 7-separatordan neft o‘z oqimi bilan 8-rezervuarga oqib o‘tadi. Bu yerda emulsiya barqarorligiga bog‘liq holda bir necha soatdan 2-3 sutkagacha ushlanadi. Tiniq neft 8-rezurvuardan nasos -9 yordamida magistral quvurga uzatiladi. 3-markazdan qochma nasosga kirishidan oldin neftga 14 nasos yordamida deemulgator kiritiladi. Shuningdek 8-rezurvuardan issiq qatlam suvining malum miqdori ham kiritiladi.

ISSN 3030-3907

8-rezervuardan suvning aossiy qismi 10-neft ushlagichga, so‘ngra tindirish hovuzi 11 ga tushadi.

Emulsiyani quvurli pechlarda yoki bug‘ yordamida isitkichlarda isitish mumkin.

Kamchiliklari:

1.Ushbu qurilmalarni qurish 1-2 yilni talab etadi.

2.Nogermetik jihozlarda isitish va tindirish ko‘p miqdordagi uglevodorodlarning bug‘lanib ketishiga olib keladi.

3.Rezurvuar parki gazlanganligi oshib, yong‘in xavfsizligi ortadi.

4.Deemulsatsiya past temperaturada amalga oshirilgani uchun ko‘p vaqt va tindirish rezervuarlari talab etiladi.

UDO – 3 tipidagi separator deemulgator quyidagicha ishlaydi. 6-isitkichda isigan neft 7 tomchi hosil qilgich va 8 tindirgichdan o‘tib 2b aralashtirgichga, undan UDO – 3 ga tushadi. Gazni 4 quvurlarda yoqilib neft 10-60 ^{0}S ga isitiladi. Issiq neft to‘siqdan oshib o‘tib tarqatish kollektori 11 ga tushadi va undan apparatning butun kesim yuzasiga tarqaladi va buziladi. Suvsizlangan neft yuqoriga ko‘tarilib, 10 yig‘gichda to‘planadi va apparatdan chiqariladi.

Apparatda neftdan ajralgan gaz dastlab 5-separatorga, so‘ngra ikkinchi bo‘lim barboteri 7 ga keladi va 5a separatorda to‘planib bosim regulyatori 8 orqali gaz liniyasiga uzatiladi.

Elektrodegidratorlar.

S/N ko‘rinishidagi neft emulsiyalari elektr maydoni ta’sirida yaxshi parchalanadilar.

1) tsilindrik:

vertikal;


- gorizontal;

2) sharsimon.

Elektrodegidratorlar neftni tayyorlash qurilmasidan so‘ng ishlatiladilar. Elektrodegidratorlarning eng samaradori gorizontal elektrodegidratorlardir. Bunda elektrodlar bir-biriga nisbatan gorizontal holda joylashtirilgan.

Emulsiya elektrodegidratorlarga taqsimlovchi kollektor (3) orqali uzatiladi. Gorizontal elektrodegidratorlarda neft emulsiyasi ishlov berishning 3 ta zonasidan o‘tadi.

ISSN 3030-3907



1.5-rasm. Gorizontal elektrodegidrator sxemasi.

1-2 – elektrodlar; 3 – taqsimlovchi kollektor.

1.1-jadval

Elektrodegidratorlar tavsiflari

Ko‘rsatkichlari	Vertikal	Sharsimon EDSH – 600	Gorizontal	
			1EG - 160	2EG - 160
Diamert, m	3	10.5	3.4	3.4
Hajmi, m^3	30	600	160	160
Ruxsat etilgan temperatura, ^0S	70-80	100	110	160
Meyoriy bosim, MPa	0.34	0.69	0.98	1.76
Quvvati, t/soat	10-12	230-205	180-190	200-250
Elektrodlar orasidagi kuchlanish, kV	27-33	32-33	22-44	22-44

Birinchi zona – balandligi 20-30 sm turib qolgan suv zonasi bo‘lib, bu yerda emulsiya yuvilib, ko‘p miqdorda qatlam suvini yo‘qotadi.

So‘ng emulsiya ikkinchi zona – turib qolgan suv bilan ikkinchi elektrod orasidagi masofaga ko‘tariladi. Undan keyin uchinchi zonaga – ikkala elektrod orasidagi kuchli kuchlanishli zonaga chiqa

Yuqori qovushqoqli og‘ir neftlarninh suv - neftli emulsiyalarini parchalash texnologiyalarini o‘rganish bosqichlari ketma-ketligi

Neftni tayyorlash qurilmalarida (NTQ) neftni qayta ishlash uchun sanoat talablari darajasida neft tayyorlash texnologiyasi ya’ni og‘ir neftlarning yuqori turg‘un suv - neft va neft shlam emulsiyalarini suvsizlantirish va tuzsizlantirishdek murakkab bir qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. NTQ ni qo‘llash ko‘lami keng va shuning uchun ularning ishlashini nazoratga olishga katta e'tibor beradi.

ISSN 3030-3907

Bugungi kunda tizimli yondashuv metodologiyasining rivojlanishi bilan bog‘liq holda, NTQ texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish mantiqiy ravishda bir-biriga bog‘liq bo‘lgan zanjir orqali amalga oshiriladi, bu yerda tadqiqotning dastlabki darajasi (bosqichi)da SNE ning tarkibi va xususiyatlari, shuningdek, ularda mavjud bo‘lgan og‘ir neftlar tahlil qilinadi. Keyingi qismida-matematik modellashtirish, optimallashtirish va avtomatik boshqaruv nuqtai nazaridan katta (texnologik jarayonlar, sxemalar va boshqalar) masalalari o‘rganilishi kutiladi.

2.1-rasm bo‘yicha yangi deemulgatorlar va ularning kompozitsiyalaridan foydalanishni hisobga olgan holda NTQ da amalga oshiriladigan jarayonlarni o‘rganish bosqichlari sxemasi taqdim etiladi.

Ushbu sxema ijodiy xususiyatga ega va tadqiqotning o‘ziga xos xususiyatlarini, xom ashyo (neft) ning tarkibi va xususiyatlarini, shuningdek, NTQ uchun ish sharoitlarini hisobga olgan holda ko‘plab alternativlarga ega bo‘lishi mumkin.

Mahalliy og‘ir neftlardan hosil bo‘lgan yuqori turg‘un suv - neft va neft shlam emulsiyalarini parchalash texnologiyasini tizimli o‘rganish besh bosqichdan iborat:

Tadqiqotning birinchi bosqichida xom ashyo (neft), deemulgatorlar va ularning kompozitsiyalarining tarkibi va xususiyatlari o‘rganiladi.

Ikkinchi bosqichda-yog‘ - moy sanoatining ikkilamchi xom ashyosi asosida deemulgatorlar va ularning kompozitsiyalarini tanlanadi va sintez qilinadi.

Uchinchi bosqichda - asosiy omillarning mahalliy og‘ir neftlardan hosil bo‘lgan yuqori turg‘un suv - neft va neft shlam emulsiyalarini parchalash jarayoniga ta'siri o‘rganildi.

To‘rtinchi bosqichda-mahalliy og‘ir neftlardan hosil bo‘lgan yuqori turg‘un suv - neft va neft shlam emulsiyalarini parchalashning optimal texnologik sharoitlarini tanlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Beshinchi bosqichda deemulgatorlarning mahalliy og‘ir neftlarning yuqori turg‘un suv - neft va neft shlam emulsiyalarini parchalashda ishlatiladigan kompozitsiyalaridan foydalanish, ushbu ish natijalarini ishlab chiqarishga joriy etiladi.

Tadqiqotning har bir bosqichi ushbu darajadagi o‘zgaruvchan omillarning ushbu ishlarning nazorat qilingan ko‘rsatkichlariga ta'sirini o‘rganadi.

Ushbu muammolarni hal qilish tartibini buzmaslik kerak, chunki bu qo‘shimcha qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Tadqiqot bosqichlarining sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish tasdiqlangan texnik shartlarga muvofiq amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot davomida bir qator qo‘shimcha muammolar aniqlanadi va ular ham tegishli bosqichlarda hal qilinishi kerak.

Yuqori turg‘un suv - neft va neft shlam emulsiyalarini parchalash jarayonini o‘rganish uchun bunday kompleks yondashuv eng kam xarajat bilan belgilangan maqsadga erishishga imkon beradi.

Bu yerda namunali va aniq darajadagi tadqiqotlar muayyan bir holatda yoki boshqa bir darajada shartli bo‘lishi mumkin, ya’ni bu yerda o‘lchov chegarasi ham ahamiyat kasb etadi.

Traditsion NTQ larida asosiy qismi suvdan iborat SNE ni, mexanik aralashmalar va xlor tuzlaridan tozalanadi, bunda tegishli hududlardagi neft qayta ishlash uchun moslashtirilgan. Farg‘ona vodiysi neftlarini tayyorlash uchun NTQ ochiq sxemasi qo‘llaniladi, u yerdagi neft konlaridan neft aralashmalari ishlab chiqiladi va ulardan foydalanish uzoq vaqt davomida amalga oshiriladi.

NTQ da, mahalliy ishlab turgan neft konlaridagi zichligi 930 va 1000 kg/m^3 neftni noyob xususiyatlari, ya’ni yuqori tarkibli asfalten smola moddalari 60% bo‘lgan neft tayyorlanadi. Ushbu neft bitum toifasiga kiradi. Shuning uchun ular qoldiq suv tarkibiga 5,0% dan oshmasligi kerak.

Bugungi kunda respublikamizda neftning asosiy qismi Surxondaryo va Buxoro – Xiva viloyatida qazib olinmoqda. Ushbu qurilmalarda (NTQ) yuqori darajadagi yo‘ldosh gaz miqdori bo‘lgan neftni ko‘p bosqichli ajratish yo‘li bilan tayyorlaydi.

NTQ ning ko‘p yillik tajribasi shuni ko‘rsatadiki, neftning suvsizlanishi va tuzsizlanishi jarayonlarini jadallashtirish neft va gaz aralashmalarining xususiyatlariga bevosita bog‘liq bo‘lib, ular konlarni ishlab chiqish shartlariga qarab sezilarli darajada o‘zgarishi mumkin. Shu bilan birga, amalda, bu aralashmada ambarlardagi neftlar va boshqalar qo‘shilishi mumkin.

Buni hisobga olgan holda, tanlangan neftlarning tarkibi va xususiyatlari o‘rganilib, barqaror SNE larni hosil qiladi.

Bugungi kunda respublikamizda qazib olinayotgan bir nechta kondan olinadigan neftlarni tahlil qilish bo‘yicha, katta hajmdagi ishlarni hisobga olgan holda, biz "Ko‘kdumaloq", "Amudaryo", "Haudag", "Mirshodi" va "Jarqoq" kabi eng muhim konlarni tanladik. 2.2- jadvalda O‘zbekistonning asosiy konlari neftlarining fizik-kimyoviy xususiyatlari] keltirilgan. Tekshiriladigan sinov namunasi 5min. davomida aralashtiriladi, parafinli mahsulotlar dastlab 40 ^{0}S ga qizdiriladi. Kolba 1 ga 0,1g aniqlikda o‘lchangan 100 g mahsulot va 100 ml erituvchi quyilib aralashtiriladi. Bir tekis qaynashi uchun kolbaga bir nechta shisha kapillyarlar joylashtiriladi.

ISSN 3030-3907

Qurilma yig‘ilib, shtativga qotirilgach, sovutgichga suv quyilib, kolba elektroplitka yoki gaz gorelkasi bilan ehtiyot bo‘lib qizdiriladi. Isitish shunday tashkil qilinadiki, sovutgichdan yig‘gich idishga 1 sek. da 2 – 4 tomchi kondensat tushsin. Sovutgichga ko‘p suv quyilmasligi lozim. Chunki bunda trubka ichida havo tarkibidagi namlik kondensaciyalanishi mumkin. Ma`lum vaqtdan so‘ng yig‘gich idish suyuqlik bilan to‘lib, ortiqchasi kolbaga qaytib tusha boshlaydi. Agar tekshiralayotgan mahsulot tarkibida suv bo‘lsa, kolbada bug‘lanib, sovutgichda kondensatsiyalanib, erituvchi bilan birga yig‘gichga tushadi va zichliklar farqi hisobiga qatlamga ajraladi.

Haydash standart tezlikda olib borilsa, suv kolbaga qaytib tushmaydi. Yig‘gichda suv miqdori o‘zgarmay qolgach va erituvchining yuqori qatlami shaffoflashgach, haydash to‘htatiladi. Agar kam miqdordan suv haydalsa, erituvchi tez tinimaydi. Bunday holda yig‘gich idish 20 min. davomida issiq suvda tiniguncha ushlab turiladi.

Yig‘gich shisha devoriga yopishgan suv tomchilari yupqa shisha tayoqcha bilan pastga suriladi. So‘ngra haydalgan suv miqdori o‘lchanadi. Agar neft yoki neft mahsulotining suvlanganlik darajasi 10 % ortiq bo‘lsa, 100 g namunadagi suv yig‘gichga sig‘maydi. Bu holda dastlab mahsulot miqdori 50, 25 yoki 10 g gacha kamaytiriladi.

Suvning % lardagi miqdori quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = V/G *100 \quad (1)$$

Bu yerda: *V* – yig‘gichdagi suv hajmi, ml; *G* – namuna miqdori, g

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Baratov P. O‘zbekiston tabiiy geografiyasi. O‘quv qo‘llanma.-T.O‘qituvchi, 1996.

2. O‘rmonov M., Turdaliyeva M., Jakbarov O. O‘ZBEKISTON NEFT GAZ SANOATI VA ZAXIRALARI.“Muqobil energiya manbalaridan foydalanishning joriy holati va istiqbollari” mavzusida Respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami.Namangan 2020-yil.

3. Alimqulov N. R, Safarova N.I., Amanbayeva Z.A., Mo‘minov D.G,,.geografiya o‘quv qo‘llanma toshkent.

4.Mamatqulov M. Egamov B.Yu. Geologiya va geomorfologiya. Darslik. - T.: “VneshlnvestProra”, 2019.

5.Bozorov F. P, Xujaqulov A. F., -Neft va gazni qayta ishlash texnologiyasi. O‘quv qo‘llanma. T.: Muxarrir.2018 y.

ISSN 3030-3907

DETERMINATION OF PHYSICO-CHEMICAL INDICATORS OF ADSORBENTS IN GAS DRYING

Shukurova D.SH.

Student at Karshi State Technical University.

Abstract. This article delves into the physico-chemical indicators that characterize adsorbents used in the gas drying process. It provides a comprehensive analysis of various adsorbents, evaluates their properties, and discusses their performance in gas drying applications. Key parameters such as surface area, pore size, adsorption capacity, and thermal stability are examined through experimental and theoretical approaches.

2020-yilda kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassis Bluetooth protokolidagi zaiflikdan foydalanib, Tesla Model X’ni bir necha daqiqada buzish usulini topdi. Shunga o‘xshash hujumlar kirish va ishga tushirish uchun simsiz kalitlardan foydalanadigan boshqa transport vositalariga ta’sir qildi.

2021 yil - Verkada kuzatuv kameralariga xakerlar hujumi. 2021-yilda xakerlar Verkadaga tegishli 150 000 ta kuzatuv kameralaridagi video tasmalarga kirish huquqiga ega bo‘ldi. Zarar ko‘rgan ob'ektlar orasida davlat va xususiy muassasalar: maktablar, kasalxonalar, qamoqxonalar va idoralar bor. Ushbu hodisalar maxfiylik va ma’lumotlarni himoya qilishning buzilishi bilan bog‘liq jiddiy xavflarni ko‘rsatdi.

XULOSA

IoT qurilmalaridagi kiberxavfsizlik ularni amalga oshirishning muhim jihati hisoblanadi. Zaiflik va xavflarni samarali boshqarish sotuvchilar, dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilari, xavfsizlik tadqiqotchilari va oxirgi foydalanuvchilar o‘rtasida hamkorlikdagi sa’y-harakatlarni talab qiladi. Taklif etilayotgan strategiyalarni amalga oshirish IoT qurilmalarini himoya qilish darajasini sezilarli darajada oshirishi va potentsial tahdidlarni minimallashtirishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Беляев А.В. Кибербезопасность в Интернете вещей: современные угрозы и подходы к защите // Информационные технологии и безопасность. – 2023. – №4(18). – С. 15–22.
2. Majidov A.M. IoT systems programming // Science Shine. International Scientific Journal. – 2025. – №3(38). – S. 8. – ISSN 3030-377X.
3. Козырев С.Н., Михеев И.В. Анализ уязвимостей IoT-устройств и методы их минимизации // Журнал прикладной информатики. – 2023. – Т. 19, №2. – С. 44–52.
4. Majidov A.M. IoT qurilmalariga qarshi DDoS hujumlarining tahlili // Aqlli texnologiyalar va tadqiqotlarda innovatsion yondashuv: raqamli kelajakni

ISSN 3030-3907

yaratish. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Adju universiteti, Toshkent, 2025. – 22 fevral. – S. 5.
5. Смирнов Д.В., Петрова Л.И. Риски и угрозы безопасности в Интернете вещей: российский контекст // Безопасность информационных технологий. – 2022. – №3. – С. 27–34.
6. Majidov A.M. IOT (Internet of Things) – narsalar interneti // Yosh ilmiy tadqiqotchi. Pedagogik ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro davlat universiteti. – Buxoro, 2025. – 15 mart. – S. 4.
7. Иванов А.А., Сергеев Н.В. Принципы обеспечения информационной безопасности в устройствах IoT // Вестник информационной безопасности. – 2024. – №1. – С. 10–18.
8. Majidov A.M. Aqlli texnologiyalar va kiberxavfsizlik: IoT va AI integratsiyasi // Sun’iy intellekt va o‘qitishning zamonaviy an’analari. Xalqaro ilmiy anjumani materiallari. – Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi. – Samarqand, 2025. – 18–19 aprel. – S. 5.
9. Сидоров В.И., Зотова М.В. Методы идентификации и устранения уязвимостей в системах Интернета вещей // Электронная техника. Сер. 10. – 2023. – №5. – С. 66–73.
10. Majidov A.M. Axborot hujumlari modellarini qurish usuli // Yoshlar ilm-fan jurnali. – 2025. – №1. – 22 may. – S. 6.
11. Шапошников К.С. Интернет вещей и киберугрозы: вызовы и пути их преодоления // Информационные системы и технологии. – 2023. – №4. – С. 40–46.
12. Majidov A.M. IoT tizimlarida axborot xavfsizligini ta’minlashning ahamiyati // Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari. – O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali. – Jizzax, 2025. – 16–17 may. – S. 5.
13. Захаров И.П. Обеспечение конфиденциальности и целостности данных в IoT-устройствах // Проблемы информационной безопасности. – 2022. – №2. – С. 22–29.
14. Фролов А.Е., Матвеева О.Н. Анализ подходов к разработке защищённых архитектур Интернета вещей // Защита информации. – 2023. – №6. – С. 35–41.
15. Majidov A.M. IoT tizimida ma’lumotlarni himoya qilishning zamonaviy muammolari // Axborot xavfsizligi sohasida raqamlashtirish muammolari va istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi. – Toshkent, 2025. – 15 may. – S. 3.

ISSN 3030-3907

16. Мельников Р.А., Лебедев Г.В. Технологии шифрования и их роль в защите IoT-устройств // Криптография и безопасность. – 2022. – №3. – С. 14–21.
17. Чернов В.В. Эффективные стратегии снижения киберрисков в системах Интернета вещей // Информационные войны. – 2024. – №1. – С. 19–26.
18. Попов Е.С., Гришина А.В. Этические аспекты кибербезопасности в эпоху IoT // Этика и технологии. – 2023. – №2. – С. 8–14.

ISSN 3030-3907

O‘ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO‘LLARINING YUTUQLARI, KAMCHILIKLARI VA KELAJAGI

Ismailov Sarvarbek Taxirjanovich

Andijon davlat texnika instituti “Transport logistikasi”kafedrasi assistenti,

Tel +998945802221

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning eng yirik transport markazlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi avtomobil yo‘llari iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri bo‘lib, aholi va tovarlarning erkin aylanishini, eksport va import hajmini ortishishi va o’sishini ta’minlaydi. So‘nggi yillarda yo‘l qurilishi va rekonstruksiya bo‘yicha qator yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hali hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar ham mavjud. Ushbu maqola bilan erishilgan yutuqlar va qilinishi kerak bo’lgan ishlarni tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: avtayo‘l, avtayo‘lloyiha, mintaqa, rel’yef, straus poydevor, geotexnika, geologiya.

Abstract. The Republic of Uzbekistan is one of the largest transportation hubs in Central Asia. Roads in our country are among the crucial factors in economic development, ensuring free movement of people and goods, and facilitating the increase and growth of export and import volumes. In recent years, significant achievements have been made in road construction and reconstruction; however, there are still challenges that need to be addressed. In this article, we will analyze the accomplishments and the work that remains to be done.

Keywords: highway, road design, region, terrain, straus foundation, geotechnics, geology.

Аннотация. Республика Узбекистан является одним из крупнейших транспортных узлов Центральной Азии. Автомобильные дороги в нашей стране выступают одним из важнейших факторов развития экономики, обеспечивая свободное передвижение населения и товаров, а также увеличение объемов экспорта и импорта. Несмотря на ряд достижений в области строительства и реконструкции дорог за последние годы, все еще существуют проблемы, требующие решения. В данной статье мы проанализируем достигнутые успехи и работу, которую предстоит выполнить.

Ключевые слова: автодорога, автодорожный проект, регион, рельеф, свайный фундамент, геотехника, геология.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yo‘l infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan yangi avtomobil yo‘llari: Toshkent-Andijon, Toshkent-Samarqand yo‘nalishlarida zamonaviy pullik

ISSN 3030-3907

avtomagistrallar qurilsh ishlari tasdiqlanib hozirda ushbu joylarda geodeziya ishlari ham olib borilmoqda. Bu yo'nalishlar bo'yicha pullik yo'l qurulishi birinchi navbatda harakat vaqtini qisqarishi, tashilayotgan yuklarning o'z manzillariga tezroq yetib borishini taminlab, eksport va import hajmina ham ortishi yo'l bo'yi infratuzilmasining ham ortishi yangi ish o'rinlarining ortishi iqtisodiyotning yanada rivojlanishiga sabab bo'ladi [1]. Yangi pillik magistrallarda harakat davomiyligi sezilarli darajada kamayadi, ya'ni: Toshkent-Andijon 6 soatdan 3.5-3 soatga, jami uzunligi esa 314 km tashkil etadi. Toshkent-Samarqand yo'nalishi esa 2.5-3 soatga yetishi rejalashtirilmoqda. Pullik avtomagistarllar yuqori tehnologiyalar asosida chet el standarlari bo'yich juda sifatli va xalqora sifat darajalariga ham javob bera oladigan darajada qurulishi rejalashtirilmoqda [2].

Transport tarmog'ining kengayishi: Pullik yo'llar bitishi bilan ichki va xalqaro yuk tashish hajmi oshdi, logistika samaradorligi sezilarli darajada yaxshilandi. Tirbandliklar ham kamayadi. Pullik magistallarga texnik holati yaxshi, yangi va soatiga 100-120 km dan tezroq harakatlana oladigan yangi va zamonaviy avtomobillar foydalanishi mumkin bo'ladi [3]. Texnik holati qoniqarli bo'lgan avtomobillarning kamayishi yo'l transport holatlarining kamayishi, tirbandliklar va avtohalokat qurbonlari soni sezilarli darajada kamaytiradi, yo'l sifati ham zararlanmaydi. Yuk tashish xizmatlari rivojlanibgina qolmay mamlakatimizda turizim sohalari ham rivojlanadi. Ayniqsa Samarqand yo'nalishi bo'yicha turizmda yo'l vaqtini qisqarib yanada ortishiga yangi mehmonxonalar, dam olish markazlari va shu va shunga o'xshagan xizmat ko'rsatish joylari ko'payishi, aholini bandligini taminlab, mamlakatdagi ishsizlar sonini birmunchaga kamaytiradi [4].

METODOLOGIYA

Tadqiqotlarimiz davomida mamlakatimiz yo'llarida bir qator muammolar hamon dolzarb bo'lib qolgani aniqlangan, jumladan [5]:

Qishloq joylaridagi yo'llarning sifati pastligi: Kichik hududlardagi yo'llar tez yemirilmoqda, ularning ta'miri vaqti bilan amalga oshirilmaydi. Bu hududlardagiyo'l sifatining erta buzulishiga asosiy sabablardan biri yo'llardagi yuk ko'tarish qobilyatining pastli ham sabab bo'lmoqda. Qishloq joylarda ayniqsa dala va ekin hududlari va bog'larda bilzmizki hozir yangi texnikalar ishlamoqda ularda esa orqa o'qga tushadigan yuklama hisloblanganidan sezilarli darajada baland. Bunday muamollarning yuzaga kelishini oldini olish uchun ichki yo'llarda ayniqsa dala va og'ir texnikalar harakatlanish ehtimoli balan bo'lgan hududlarda yo'llarning yuk ko'tarish qobilyatini oshirish va har mavsumda tamirlash ishlarini sifatli bajarish kerak.

ISSN 3030-3907

Yangi qurilgan yo‘llarning chidamliligi: Ayrim yangi yo‘llar qisqa muddat ichida buzilib, ta’mir talab holga kelmoqda. Buning asosiy sababi yo’lning asosida yoki drenaj tizimida, yo’lning nishabligida ham bo’lishi mumkin. Bunday muamolarga duch kelmaslik uchun qurulish davrida etiborli bo’lish va sifat darajasini ham qattiq nazorat ostiga olishimiz kerak.

Transport oqimini samarali boshqarish muammosi: Katta shaharlar, ayniqsa Toshkent va Samarqandda tirbandliklar ortib bormoqda. Tirbandlikning ortib ketishiga sabablar biri avtomashinalar soning ortib ketganligi desak mubolag’a bo’lmaydi. So’ngi yillarda statistikaga tayanadigan bo’lsak O‘zbekiston avtomobil sanoati so‘nggi yillarda sezilarli o‘sishni ko‘rsatdi. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, jismoniy shaxslarga tegishli avtomobillar soni 4 million 20 ming 744 taga yetdi. Bu, 2023-yilning shu davriga nisbatan 10,5% o‘sishni anglatadi. Bunday muamolarni bartaraf etish uchun shahar hududlarida jamoat transtportidan foydalanish hajmini yanada oshirishimiz kerak [6]. Bunday jarayonlarini amalga oshirish uchun barchamiz bir bo’lib harakat qilishimiz zarur. Tirbandliklar va jamoat transportidan joydalanish vaqti va xizmat sifatini yanada yaxshilash uchun hozirda 75% jamoat transport vositalari to’liq elektron tizimga o’tdi. Bularning barchasi yuqoridagi muamolarni oldini olish uchun amalga oshirilayotga ishlardan biridir.Yana bir misol sifatida so‘nggi besh yil ichida O‘zbekistonda yo‘l infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. 2023-2024-yil yakunini Andijon viloyati misolida ko’radigan bo’lsak, **Andijon viloyatida** avtomobil yo‘llari tarmog‘ining umumiy uzunligi 13 346 km ni, shundan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari 2 463 km ni va ichki yo‘llar 10 883 kmni tashkil etadi.

Bugungi kunda mavjud avtomobil yo‘llarining 4 533 km (34 foiz) (umumfoydalanishdagi – 663 km, 27 foiz, ichki yo‘llar – 3 870 km, 36 foiz) qismi ta’mirtalab holatda.

Viloyatda Qo‘mita tarkibidagi jami 18 ta, shundan 1 ta bosh boshqarma, 1 ta buyurtmachi, 14 ta tuman va 1 ta muntazam yo‘llardan foydalanish hamda 1 ta ko‘priklardan foydalanish korxonalari mavjud bo‘lib, ularda jami 1 254 dona idora, muhandis-texnik va ishchi xodimlar faoliyat olib boradi.

Korxonalar balansida 172 ta avtotransport vositalari, 146 ta mashina-mexanizmlar, 7 ta asfaltbeton qorishitirish va 4 ta tosh maydalash-saralash uskunalari mavjud.

Korxonalar balansida litsenziyaga ega karerlar mavjud emas, biroq, bugungi kunda 3 ta karerlar bo‘yicha qazish va 5 ta karerlar bo‘yicha georazvetka ishlari uchun litsenziya olishga hujjatlar tayyorlanmoqda.

ISSN 3030-3907

Tizim korxonalari tomonidan bajarilgan yo‘l ishlari natijasida yuzaga kelgan debitor qarzdorlik 130 mlrd so‘mni (umumfoydalanishdagi yo‘llarda - 83 mlrd so‘m, ichki yo‘llarda – 47 mlrd so‘m) tashkil etadi.

MUHOKAMA

Tasdiqlangan dasturlar va topshiriqlar asosida 2023 yilda jami 768,3 mlrd so‘m miqdoridagi mablag‘lar hisobiga 1 637,5 km avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilindi va ta’mirlandi, jumladan:

Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 110 mlrd so‘m mablag‘ o‘zlashtirildi va 23,7 km avtomobil yo‘llari foydalanishga topshirildi, xususan: umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha 72,5 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 3,2 km; shahar ko‘chalarini qurish-ta’mirlash bo‘yicha 9,5 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 20 km; sanoat zonalarida 7 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 0,5 km yo‘llar foydalanishga topshirildi; 20,9 mlrd so‘m mablag‘lar hisobiga 22 dona yo‘l texnikalari va jihozlar xarid qilindi. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini texnik soz holatda saqlash maqsadida 170,7 mlrd so‘m mablag‘ o‘zlashtirildi hamda 408,3 km avtomobil yo‘llari ta’mirlandi.

“Mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish” dasturi doirasida 284,1 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 700,8 km va “Tashabbusli byudjet” dasturi doirasida 94,7 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 255 km ichki yo‘llar ta’mirlandi. Mahallalarda birinchi navbatda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan chora-tadbirlar uchun qo‘shimcha ajratilgan 108,8 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 249,7 km avtomobil yo‘llari ta’mirlandi.

Viloyatda jami 16 dona ko‘priklar ta’mirlandi va qayta qurildi.

Avtomobil yo‘llarida 5,9 ming donadan ortiq zamonaviy yo‘l belgilari, axborot pannolari va ko‘rsatkichlari o‘rnatiladi hamda yangilariga almashtiriladi.

Transport va piyodalarning xavfsiz harakatini tashkil qilish maqsadida 4 dona svetoforlar hamda 10 km yo‘l to‘siqlari o‘rnatiladi.

Aholi punktlarida piyodalar uchun 12 km trotuarlar hamda velosiped yo‘laklari quriladi.

Yuk avtomobillarini harakat davrida ularning vazn va hajm parametrlarini nazorat qiluvchi 2 ta ko‘chma va statsionar tarozilar to‘liq ishga tushirildi.

2023 yil davomida 1 203 km dan ortiq ichki yo‘llar ta’mirlanishi, jumladan 78,1 km tuproq yo‘llar shag‘allantirilishi natijasida 112 ta MFY qizil toifadan sariq toifaga o‘tkazilib, qizil MFYlar soni 11 foizga kamaydi, shuningdek 270 ta MFY sariq toifadan yashil toifaga o‘tkazildi. So‘nggi uch oy davomida jami 2 nafar mutaxassislar Turkiyada ekspluatatsiya ishlarini takomillashtirish bo‘yicha o‘z malaka va tajribalarini oshirib keldilar.

ISSN 3030-3907

NATIJA

Avtomobil yo‘llari tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha:

2024 yilda jami 910,2 mlrd so‘m miqdoridagi mablag‘larni o‘zlashtirish hamda 1 459,4 km avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish va ta’mirlash rejalashtirilgan, jumladan: Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida 202,1 mlrd so‘m mablag‘lar o‘zlashtiriladi va 14 km avtomobil yo‘llari foydalanishga topshiriladi, xususan: umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha 110 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 14 km yo‘llar foydalanishga topshiriladi; shahar ko‘chalarini qurish-ta’mirlash bo‘yicha 56,4 mlrd so‘m; sanoat zonalariga olib boruvchi va ichki yo‘llarini qurish-ta’mirlash bo‘yicha 4 mlrd so‘m mablag‘ o‘zlashtiriladi; 31,7 mlrd so‘m mablag‘lar hisobiga 25 dona yo‘l texnikalari va jihozlar xarid qilindi.
Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini texnik soz holatda saqlash maqsadida 366,8 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 495,5 km avtomobil yo‘llari ta’mirlanadi.

“Mening yo‘lim” dasturi doirasida 341,3 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 949,9 km ichki yo‘llar ta’mirlanadi (shundan 115,3 mlrd so‘m mablag‘ hisobiga 585,5 km tuproq yo‘llar shag‘allantiriladi). 585,5 km tuproq yo‘llarni shag‘allantirish orqali 188 ta MFYlar qizil toifadan chiqarilib, sariq va yashil toifalarga o‘tkaziladi. Jami 6 dona ko‘priklar ta’mirlanadi va qayta quriladi.

4R112 “Farg‘ona halqa yo‘li” avtomobil yo‘lining 121–141 km qismini (20 km) ekspluatatsiya qilishga xususiy sektor jalb qilinadi.

Avtomobil yo‘llarida 5 ming donadan ortiq zamonaviy yo‘l belgilari, axborot pannolari va ko‘rsatkichlari o‘rnatiladi hamda yangilariga almashtiriladi.

Transport va piyodalarning xavfsiz harakatini tashkil qilish maqsadida 15 dona svetoforlar hamda 4 km yo‘l to‘siqlari o‘rnatiladi.

Aholi punktlarida piyodalar uchun 34 km trotuarlar hamda velosiped yo‘laklari quriladi.

Ushbu ma’lumotlarning barchasi Andijon viloyatida 2023-2024 yillarda qilingan va qilinish rejalashtirilgan ish rejalari bilan tanishdik. Shu va shunday ishlar respublikamizning deyarli barcha hududlarida amalga oshirilmoqda. Bu esa yurtimizda yo’l sohalari yanada isloh qilinayotganidan yaqqol misol bo’la oladi.
Kelajak istiqbollari va takliflar

Yo‘l qurilishi sohasida mavjud muammolarni bartaraf etish va rivojlanishni jadallashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:
Sifat nazoratini kuchaytirish: Qurilish ishlarida zamonaviy texnologiyalar va qat’iy standartlarga rioya qilish zarur. Qurulish jarayonida ushbu talablarga rioya qilmagan muhandislarga nisbatan jazo choralarini ham kuchaytirish kerak. Bizdagi

ISSN 3030-3907

yo’l qurulishi uchun qo’llaniladigan materiallarning 90% mahalliy materiallar hisoblanadi. Lekin nima uchun mahalliy materiallarimizdan foydalansak ham yo’l qurulish tannarxi qimmat? Chunki bizdagi transportning harajati ortishi hisobiga asfalt yoki yo’llarning tannarxi ham yuqorulab ketayapti.

Ekologik muhofaza qilish: Atrof-muhitga kam zarar yetkazadigan innovatsion materiallar va texnologiyalardan foydalanish. Ayniqsa tayyor bo’lgan yo’l va ko’prik chetlariga yo’l sifatiga zarar yetqazmaydigan archa singari yoki manzarali daraxtlardan ekish avvalo yo’l sifati uchun yaxshi chunki yo’l asosidagi prtoqcha namlikni tortib turadi, boshqa tomondan shaharsozlik va atrof muhit uchun havoni tozalash uchun xizmat qiladi.

Investitsiyalarni jalb qilish: Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda yangi yo‘l loyihalarini amalga oshirish. Aytishimiz joizki mamlakatimizdagi barcha yo’llar o’z vaqtida tamirlanish va yangi loyhalar amalga oshish uchun moliyaviy tomondan sarmoya bo’lishi shart. Shunday sarmoyalardan biri endi amalga oshirilayapti bu pullik yo’l loyhasi. Bu sarmoyalar chet el investorlari bilan keladi albatta, ular bilan birga zamonaviy va yangi yo’l qurulish texnologiyalari va texnikalari ham kirib kelishi tabiiy.

Xulosa

O‘zbekiston yo‘l infratuzilmasida katta yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, hal qilinishi lozim bo‘lgan muammolar hanuz mavjud. Ushbu muamolar asta sekin yildan yilga kammayapti deb bemalol aytishimiz mumkin. So’ngi yillarda ayniqsa 2022-yildan boshlab yo’l sohalariga avalgiga qaraganda katta etibor berildi. Yo’l muhandisligi xususan: temiryo’l qurulishi, yo’l muhandisligi, aerodromlar qurulishi, ko’prik va tonellar qurulishi bo’yicha olliy ta’lim muasasalariga qabul kvotalari sezilarli darajada ko’paydi. Ba’zi oliy ta’lim muasasalarida shu kabi yo’nalishlar bo’yicha bakalavr va magistratura yo’nalishlari qayta tashkil etildi. Qilinayotgan ishlarning barchasi yurtimizda yo’l sohasini rivojlantirish, yanada isloh qilishga qaratilagan ishlar desak mubolag’a bo’lmaydi. Ushbu yo’nalishlar bo’yicha kadrlarning salohiyatini yanada oshirish maqsadida xorijiy va ushbu sohalar yaxshi rivojlangan davlatlar bilan talabalar almashinuvlari ham amalga oshirilmoqda. Bilamizki ushbu sohalar Germaniya, BAA, Rossiya singari yirik davlatlar bilan bu bo’yicha ko’plab shartnomalar tuzishga erishilmoqda.

Agar yuqoridagi takliflar amalga oshirilsa, mamlakatimizdagi yo‘llar yanada sifatli, xavfsiz va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Bu esa iqtisodiyot rivoji va aholi farovonligiga xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Taxirjanovich I. S., Alijon o‘g‘li I. D., Xurshidjon o‘g‘li T. A. YO ‘L-IQLIM SHAROITINING AVTOMOBILNING TORMOZLANISH HOLATIGA TA ‘SIRI //AndMI Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalari. – 2024. – T. 1. – №. 1. – C. 530-535.
2. G’ulomov S., Jo‘rayev O. – “Yo‘l qurilishi va yo‘l materiallari”. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2019.
3. Abduqodirov Sh. A. – "Transport inshootlari muhandisligi". Toshkent: Toshkent avtomobil yo‘llari instituti nashriyoti, 2021.
Highway and Traffic Engineering – Fred L. Mannering, Scott S. Washburn. Wiley, 2019.
4.O‘zbekiston Respublikasi avtomobil yo‘llari standartlari – O‘zDST 2707:2021.
5. Yo‘llarni muzdan tozalash va qishki ekspluatatsiya bo‘yicha xalqaro tajribalar – Moskva davlat transport universiteti ilmiy maqolalari, 2022
6. Andijon Avtoyo’l bosh boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanildi.

ISSN 3030-3907

UDK: 002.004.4/378

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB TA'LIM RESURSLARINI YARATISH

Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna

Shahrisabz davlat pedagogika institute Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrasi o'qituvchi

E-mail: *gulnozaberdiyeva79@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika va axborot texnologiyalari fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etishda bulutli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Bulutli platformalar orqali ta'lim resurslarini yaratish, ularni o'quvchilar bilan bo'lishish, hamkorlikda ishlash imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada Google Drive, OneDrive, Canva kabi zamonaviy vositalar yordamida interaktiv materiallar tayyorlash tajribalari keltirilib, ularning o'quvchilarning qiziqishini oshirish va mustaqil ta'lim olishiga ko'maklashishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: bulutli texnologiyalar, ta'lim resurslari, informatika, darsdan tashqari mashg'ulotlar, Google Drive, interaktiv materiallar, raqamli ta'lim.

Annotation: This article explores the role and significance of cloud technologies in organizing extracurricular activities in the subject of Informatics and Information Technologies. It discusses the creation and use of educational resources through cloud platforms, enabling collaboration and resource sharing among students and teachers. The paper highlights practical examples of using tools such as Google Drive, OneDrive, and Canva to develop interactive materials that enhance student engagement and support independent learning.

Keyword: Keywords: cloud technologies, educational resources, informatics, extracurricular activities, Google Drive, interactive materials, digital education.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение облачных технологий при организации внеклассных занятий по предмету «Информатика и информационные технологии». Анализируются возможности создания и использования образовательных ресурсов с помощью облачных платформ, таких как Google Drive, OneDrive и Canva. Особое внимание уделяется практическому применению этих инструментов для разработки интерактивных материалов, способствующих повышению интереса учащихся и развитию их самостоятельности в обучении.

ISSN 3030-3907

Ключевое слово: Ключевые слова: облачные технологии, образовательные ресурсы, информатика, внеклассные занятия, Google Drive, интерактивные материалы, цифровое образование.

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining, xususan bulutli texnologiyalarning roli tobora ortib bormoqda. Raqamli resurslardan foydalanish, o‘quvchilarning mustaqil va interaktiv tarzda ta’lim olishini ta’minlaydi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar esa bu imkoniyatlarni yanada kengaytirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularni ijodiy va amaliy faoliyatga jalb qilish uchun qulay muhit yaratadi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida Google Drive, Microsoft OneDrive, Dropbox, Canva, Padlet kabi bulutli xizmatlar keng qo‘llanilmoqda. Ular o‘quv materiallarini yaratish, saqlash, ulashish va birgalikda ishlash imkonini beradi. Ayniqsa, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ushbu platformalardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, darsdan tashqari faoliyatni interaktiv tashkil etish va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada bulutli texnologiyalar asosida darsdan tashqari mashg‘ulotlar uchun ta’limiy resurslar yaratishning afzalliklari, samaradorligi va amaliy jihatlari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Bulutli texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha ilmiy va amaliy adabiyotlar soni so‘nggi yillarda sezilarli darajada ortmoqda. Ko‘plab tadqiqotlar ushbu texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quv jarayonini interaktiv va moslashuvchan qilish imkoniyatlarini ochib bergan.

Xususan, J.A. Samarov va B.X. Tursunov (2021) tomonidan yozilgan “Bulutli texnologiyalarning ta’limda qo‘llanilishi” nomli maqolada bulutli texnologiyalar turlari, ularning pedagogik afzalliklari va amaliy tatbiqlari yoritilgan. Mualliflar bulutli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zlarining materiallarini saqlash, almashish va birgalikda tahrir qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlarini alohida ta’kidlaydi.

G'.A. Abdullaeva va D.I. Nurmuxamedovaning (2022) ishlari darsdan tashqari mashg‘ulotlarda Google platformalaridan foydalanish tajribasiga bag‘ishlangan. Ushbu manbada Google Drive, Google Forms va Google Sites yordamida samarali o‘quv muhiti yaratishning amaliy jihatlari ko‘rsatilgan. Mualliflar ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni darsga jalb qilish, mustaqil ta’lim olish va ijodiy ishlashga undashini asoslashgan.

Xalqaro adabiyotlarda esa bulutli texnologiyalarning o‘quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli keng tahlil qilingan. Masalan, D. Al-

ISSN 3030-3907

Zoube (2010) tomonidan chop etilgan “E-learning on the Cloud” maqolasida bulutli texnologiyalar yordamida yaratilgan o‘quv muhiti va uning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. U bulutli xizmatlar yordamida o‘quv materiallarining har doim va har joyda mavjudligi ta’limni shaxsiylashtirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

T.M. Turova va N.P. Romanov (2020) esa “Информационно-образовательная среда с использованием облачных технологий” nomli asarlarida bulutli texnologiyalarning Rossiya maktablaridagi joriy etilishi, metodik yondashuvlar va o‘qituvchi-o‘quvchi o‘rtasidagi raqamli hamkorlikni keng tahlil qilgan.

Yana bir muhim manba sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-oktabrdagi PQ–4884-sonli qarori (raqamli ta’limni rivojlantirishga doir) ham qayd etilishi lozim. Ushbu hujjat raqamli ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni, jumladan bulutli xizmatlarni joriy etishning ustuvorligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, bulutli texnologiyalar nafaqat ta’lim resurslarini yaratishda, balki o‘quvchilarni faol o‘rgatish, ularni hamkorlikka, izlanishga, ijodga yo‘naltirishda keng imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda bu texnologiyalar o‘quvchilar ehtiyojlariga moslashgan moslashuvchan va samarali o‘quv muhitini shakllantiradi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda darsdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda bulutli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot materiallari sifatida o‘rta ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan informatika fani o‘qituvchilari va 8–9-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan tajriba darslari, so‘rovnomalar, hamda yaratilgan ta’limiy resurslar tahlili asos qilib olindi.

Metodologiya sifatida kuzatuv, amaliy tajriba, so‘rovnoma va taqqoslov tahlil usullari qo‘llanildi. Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda Google Forms, Google Sites, Jamboard, Canva kabi bulutli platformalar asosida testlar, interaktiv taqdimotlar, loyiha ishlari va fikr almashish maydonlari yaratildi. Har bir bosqichda o‘quvchilarning faolligi, mustaqil ishlash darajasi va resurslardan foydalanish samaradorligi baholandi.

Tadqiqot jarayonida yaratilgan resurslarning o‘quvchilarga ta’siri, ularning darsdan tashqari faoliyatdagi ishtiroki, hamkorlik ko‘nikmalari va qiziqish darajasi asosiy mezon sifatida o‘rganildi. Olingan natijalar asosida bulutli texnologiyalar yordamida yaratilgan resurslarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va afzalliklari aniqlab berildi.

ISSN 3030-3907

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, bulutli texnologiyalar darsdan tashqari mashg‘ulotlarda nafaqat o‘quvchilarning bilimini mustahkamlash, balki ularni mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy yondashuvga undashda ham samarali vosita bo‘la oladi. Ushbu texnologiyalar yordamida yaratilgan ta’limiy resurslar o‘quvchilar uchun qulay, tezkor va moslashtirilgan o‘quv muhiti yaratadi. Tajriba mashg‘ulotlarida ishtirok etgan o‘quvchilarning 87 foizi interaktiv resurslar (testlar, slaydlar, vizual taqdimotlar) orqali darsni yanada yaxshi tushunganini bildirgan. 76 foiz o‘quvchi Google Forms orqali topshiriqlarni bajarish an’anaviy usullarga qaraganda tezroq va qulayroq ekanini ta’kidlagan. Ayniqsa, Google Sites orqali mavzular bo‘yicha yaratilgan onlayn sahifalar o‘quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarida mustaqil ishlashini rag‘batlantirgan.

Canva orqali loyihaviy ishlar, taqdimot va plakatlar tayyorlash jarayonida o‘quvchilar dizayn, tartib va grafik axborotni yaratish kabi ko‘nikmalarni egallaganlar. Jamboard orqali esa guruhli ishlarda muhokama, miya hujumi va umumiy g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyati kengaygan. Bu jarayonlar o‘quvchilarning raqamli savodxonligini, axborot bilan ishlash madaniyatini va hamkorlikda ishlash malakalarini oshirdi.

O‘qituvchilarning fikricha, bulutli texnologiyalar yordamida darsdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish o‘quvchilarni erkin fikrlashga, o‘z fikrini aniq ifoda etishga va muammolarni hal etishga yo‘naltiradi. O‘qituvchi uchun esa bu vositalar orqali o‘quvchilarning ishtirokini kuzatish, fikr bildirishi va resurslarni qayta ishlashi osonlashadi.

Shuningdek, bulutli texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar olib borilgan sinflarda o‘quvchilarning darsga qatnashuv darajasi oshgan, topshiriqlarni bajarmaslik hollari kamaygan va ijodiy yondashuvlar ko‘paygan. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, agar darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmunli, texnologik va o‘quvchilarga moslashtirilgan shaklda tashkil etilsa, ular o‘quv jarayonining muhim va samarali qismiga aylanishi mumkin. Bulutli texnologiyalar bu yo‘lda kuchli metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqot asosida shuni xulosa qilish mumkinki, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etishda bulutli texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu texnologiyalar yordamida yaratilgan ta’limiy resurslar o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning interaktiv, hamkorlikda va mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

ISSN 3030-3907

Google Drive, Microsoft OneDrive, Dropbox kabi bulutli saqlash platformalari orqali o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘z resurslarini tezkor va xavfsiz almasha oladilar. Canva, Padlet, Jamboard kabi vositalar esa vizual, ijodiy va loyiha asosida ta’limni tashkil qilishga xizmat qiladi. Bu esa ta’limni faqat bilim olish emas, balki fikrlash, yaratish va baham ko‘rishga asoslangan faoliyatga aylantiradi.

Tajriba darslari va kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, darsdan tashqari faoliyatda bulutli texnologiyalardan foydalangan o‘quvchilar topshiriqlarni bajarishda yuqori faollik ko‘rsatgan, o‘z fikrlarini ochiq bayon qilgan va bir-birlari bilan samarali hamkorlik qilgan. O‘qituvchilar esa bu texnologiyalar yordamida darsdan tashqari resurslarni individual tarzda tayyorlash, o‘quvchilar bilan muloqotni mustahkamlash va ta’lim sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

Bundan tashqari, bulutli texnologiyalar ta’limda inkluzivlik, shaxsiylashtirish va moslashuvchanlik tamoyillarini keng qo‘llash imkonini beradi. O‘quvchilar o‘zining qobiliyati va ehtiyojlariga mos ravishda resurslar bilan ishlay oladi, har bir o‘quvchi o‘z tempida bilim oladi. Bu esa zamonaviy ta’lim konsepsiyasiga to‘liq mos keladi.

Shuningdek, raqamli resurslarning mavjudligi va ularni yangilab borish imkoniyati darsdan tashqari mashg‘ulotlarning uzluksizligini ta’minlaydi. Resurslar doimiy yangilanadi, interaktiv shaklga keltiriladi va muhitga moslashtiriladi.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin: – Bulutli texnologiyalar o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytiradi, bilim almashishni yengillashtiradi; – Ular ta’lim resurslarini yaratish, ulashish va qayta ishlash jarayonlarini optimallashtiradi; – Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ijodkorlik va jamoaviylikni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi; – Mustaqil ta’lim olish va refleksiya qilish jarayonini faollashtiradi; –O‘quvchilarni zamonaviy raqamli muhitga moslashishga tayyorlaydi.

Shu bois, bulutli texnologiyalardan keng foydalanish orqali darsdan tashqari mashg‘ulotlar yanada samarali, interaktiv va mazmunli tashkil etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Samarov, J.A., & Tursunov, B.X. (2021). Bulutli texnologiyalarning ta’limda qo‘llanilishi. Ta’lim va innovatsiyalar jurnali, 3(12), 45–53.

2. Abdullaeva, G'.A., & Nurmuxamedova, D.I. (2022). Google platformalaridan darsdan tashqari mashg‘ulotlarda foydalanish tajribasi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari, 5(8), 23–30.

3. Al-Zoube, D. (2010). E-learning on the Cloud. International Journal of Computers & Technology, 1(3), 45–52.

ISSN 3030-3907

4. Turova, T.M., & Romanov, N.P. (2020). Информационно-образовательная среда с использованием облачных технологий. Вестник образования, 4(7), 67–74.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori PQ–4884. (2020). Raqamli ta’limni rivojlantirish to‘g‘risida. Toshkent.
6. Google Workspace Learning Center. (2023). Using Google Drive for Education. Retrieved from https://support.google.com/drive/education
7. Microsoft OneDrive Documentation. (2023). Cloud Storage for Education. Retrieved from https://docs.microsoft.com/onedrive/education

ISSN 3030-3907

РАЦИОНАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ ВОДНЫМИ РЕСУРСАМИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ КЛИМАТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ И РОСТА ДЕФИЦИТА ВОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ

Н.Р. Авезова
Ферганский государственный технический университет
У.Р. Саломов
Ферганский государственный технический университет
А.Й. Рахмонов
Ферганский государственный технический университет
E-mail: arakhmonov111@gmail.com.

Аннотация. В условиях ускоряющегося изменения климата и роста водного дефицита в Республике Узбекистан существенно осложняется обеспечение устойчивого водоснабжения. В данной статье проанализированы тенденции климата (динамика осадков, уменьшение водообеспеченности на душу населения) и структура использования водных ресурсов по секторам экономики. Установлено, что сельское хозяйство потребляет до 90% воды, сопровождаясь значительными потерями из-за изношенной инфраструктуры и неэффективных методов орошения. Выявлены риски усугубления дефицита воды к 2040–2050 гг. вследствие повышения температуры, снижения речного стока и реализации крупных гидротехнических проектов в бассейне Амударьи. Обсуждаются инновационные меры адаптации и рационального водопользования: модернизация ирригационных систем, внедрение водосберегающих технологий, опреснение солоноватых вод с использованием солнечной энергии, сбор дождевых вод и повторное использование очищенных сточных вод. Предложены стратегические рекомендации по комплексному управлению водными ресурсами, включая технологические, институциональные и экологические решения для обеспечения водной безопасности и устойчивого развития Узбекистана в условиях изменяющегося климата.

Ключевые слова: водные ресурсы; изменение климата; дефицит воды; Узбекистан; рациональное водопользование; солнечное опреснение; адаптация.

Abstract. Amid accelerating climate change and increasing water scarcity, ensuring sustainable water supply in the Republic of Uzbekistan has become significantly more challenging. This article analyzes climate trends (such as precipitation dynamics and the decline in per capita water availability) and the structure of water resource usage across economic sectors. It has been established

ISSN 3030-3907

that agriculture consumes up to 90% of the water, accompanied by substantial losses due to aging infrastructure and inefficient irrigation methods. Risks of worsening water shortages by 2040–2050 have been identified, resulting from rising temperatures, reduced river runoff, and the implementation of large hydraulic projects in the Amu Darya basin. The article discusses innovative adaptation and rational water use measures, including the modernization of irrigation systems, implementation of water-saving technologies, desalination of brackish water using solar energy, rainwater harvesting, and the reuse of treated wastewater. Strategic recommendations are proposed for integrated water resource management, encompassing technological, institutional, and environmental solutions to ensure water security and sustainable development in Uzbekistan under changing climatic conditions.

Keywords: water resources; climate change; water scarcity; Uzbekistan; rational water use; solar desalination; adaptation.

Annotatsiya Iqlim o‘zgarishlarining jadallashuvi va suv tanqisligining ortib borayotgan sharoitida O‘zbekiston Respublikasida barqaror suv ta’minotini ta’minlash jiddiy murakkabliklarga duch kelmoqda. Ushbu maqolada iqlim tendensiyalari (yog‘ingarchilik dinamikasi va aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan suv resurslarining kamayishi) hamda iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanish tuzilmasi tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi sohasida suv iste’moli 90% gacha yetadi va bu ko‘p hollarda eskirgan infratuzilma hamda samarasiz sug‘orish usullari tufayli katta yo‘qotishlar bilan kechadi. 2040–2050 yillarga borib, haroratning oshishi, daryolarning suv oqimi kamayishi hamda Amudaryo havzasida yirik gidrotexnik loyihalarning amalga oshirilishi tufayli suv tanqisligi yanada kuchayishi xavfi mavjudligi aniqlangan. Maqolada moslashuv va oqilona suvdan foydalanishga oid innovatsion choralar muhokama qilinadi, jumladan: sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sho‘r suvlarni quyosh energiyasi asosida tozalash, yomg‘ir suvlarini yig‘ish va tozalangan oqova suvlarni qayta ishlatish. O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishi sharoitida suv xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida texnologik, institutsional va ekologik choralarni o‘z ichiga olgan kompleks suv resurslarini boshqarish bo‘yicha strategik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: suv resurslari; iqlim o‘zgarishi; suv tanqisligi; O‘zbekiston; oqilona suvdan foydalanish; quyosh yordamida sho‘r suvni tozalash; moslashuv.

Введение

Изменение климата и рост водопотребления ставят перед Узбекистаном острую проблему обеспечения водой. Глобальное потепление

ISSN 3030-3907

уже приводит к смещению режима осадков и таянию ледников, что вызывает чередование катастрофических наводнений и экстремальных засух. В аридных регионах Центральной Азии эти процессы усугубляют существующий дефицит водных ресурсов. Узбекистан – государство с полузасушливым климатом, не имеющее выхода к морю и крайне зависимое от трансграничных рек Амударьи и Сырдарьи. Ежегодное водопотребление страны составляет около 51 млрд м³, при этом более 78% этого объёма поступает из соседних стран по течению рек. Внутреннее стокообразование ограничено (только ~10–20% ресурсов формируется на территории страны), что повышает уязвимость к внешним факторам.

Актуальность исследования определяется тем, что изменение климата уже снижает доступность воды: за последние ~15 лет обеспеченность водой на душу населения в Узбекистане снизилась примерно вдвое (с ~3000 м³ в 2008 г. до ~1500 м³ в 2022 г.).

При сохранении текущих тенденций прогнозируется усугубление дефицита: по оценкам, к 2040 году Узбекистан войдёт в число стран с самым высоким уровнем водного стресса.

Комплексное изучение структуры водопользования, климатических трендов и технического состояния инфраструктуры необходимо для разработки стратегий адаптации и рационального распределения водных ресурсов. В связи с чем целью исследования настоящего сообщения является проанализировать текущее состояние и ключевые проблемы водного хозяйства Узбекистана в контексте изменения климата, а также обосновать научно-практические меры по рациональному управлению водой и снижению дефицита, включая инновационные технологии (например, солнечное опреснение) и адаптационные стратегии.

Методология исследования Исследование носит междисциплинарный характер и основано на статистическом анализе гидрометеорологических данных, сравнительном обзоре секторального водопользования и оценке эффективности инженерных решений. В первую очередь, проанализированы многолетние климатические ряды по осадкам с метеостанций по всей территории Узбекистана (включая данные 58 станций с 2005 по 2022 гг.). Для выявления трендов осадков применялся тест Манна-Кендалла, позволяющий статистически определить наличие значимых изменений во времени. Параллельно проведён сравнительный анализ региональных различий – рассмотрены примеры динамики осадков в разных областях (в частности, регионы Ферганской долины) для иллюстрации локальных тенденций.

ISSN 3030-3907

Структура водопользования по секторам экономики исследована на основе официальных статистических данных и отчетов международных организаций (ФАО, Всемирный банк и др.). Выделены доли использования воды в сельском хозяйстве, промышленности и коммунально-бытовом секторе, а также прослежены изменения этих показателей в историческом разрезе. Оценка технического состояния водной инфраструктуры (оросительные каналы, водопроводные сети, очистные сооружения) проведена на основе официальных отчетов и программ развития водного хозяйства Узбекистана, включая данные о степени износа инфраструктуры, удельных потерях воды и обеспеченности населения водоснабжением. Использованы сравнительные показатели с другими странами Центральной Азии и глобальными средними значениями для идентификации особенностей (например, доля населения с доступом к безопасной питьевой воде, уровень водопотерь и пр.).

В части анализа инновационных решений рассмотрены пилотные проекты и технологии, внедряемые в регионе: солнечные опреснительные установки, системы сбора дождевой воды, методы повторного использования сточных вод. Информация получена из докладов ООН (UNDP, UNICEF, FAO) и научно-технической литературы. Такой подход позволил синтезировать различные виды данных и предложить комплекс рекомендаций. Все статистические данные обработаны с использованием стандартных методов описательной статистики; результаты представлены в виде диаграмм и графиков.

Основные результаты

Структура и масштабы водопользования Анализ показывает, что экономика Узбекистана крайне водоёмка и доминирующим потребителем является сельское хозяйство. На орошение сельхозугодий приходится порядка 90% всего забора пресной воды. Доля промышленности и муниципального водоснабжения значительно меньше – совокупно около 10% (рис. 1). Для сравнения, в мире на сельское хозяйство в среднем уходит ~70% потребляемой воды, ~20% на промышленность и ~10% на коммунально-бытовые нужды (FAO, 2020). Такая диспропорция в Узбекистане свидетельствует о высокой нагрузке на водные ресурсы для удовлетворения аграрного сектора при относительно низкой эффективности. Более того, около 80% используемых водных ресурсов поступает из трансграничных рек, главным образом из Амударьи и Сырдарьи, истоки которых находятся в других странах. Это означает, что водообеспечение республики сильно

ISSN 3030-3907

зависит от водохозяйственной политики соседних государств и межгосударственных соглашений по разделению стока.




Рис. 1. Структура водопотребления по секторам экономики Узбекистана. Сельское хозяйство потребляет порядка 90% забираемой воды, промышленность – около 4%, коммунально-бытовой сектор – ~6%. Такая непропорционально высокая доля агросектора характерна для стран Центральной Азии
central.asia-news.com

При общем среднем многолетнем стоке рек, доступном Узбекистану, порядка 50–60 км³ в год значительная часть воды расходуется на поддержку интенсивного орошаемого земледелия. В настоящее время в республике орошается ~3,2 млн га земель, преимущественно под хлопок, зерновые и другие культуры. Однако эффективность такого водопользования низка – лишь около 60% подаваемой на поля воды непосредственно достигает сельхозкультур. Остальные ~40% теряются в процессе транспортировки и распределения (рис. 4). Основные причины потерь – высокая фильтрация и утечки в открытых земляных каналах, а также устаревшие методы полива (потеря воды через испарение и стекание). Только 23% протяжённости оросительных сетей имеет бетонное покрытие или трубы, остальная сеть – открытые каналы, по которым вода рассеивается в грунт. Около 70–98% орошаемых полей по-прежнему поливаются традиционным поверхностным методом, тогда как современные водосберегающие технологии (дождевание, капельное орошение) внедряются медленно. В итоге ежегодные потери воды в сельском хозяйстве оцениваются в 15–20 млрд м³, что эквивалентно почти половине забранной для агросектора воды. Это не только снижает урожайность, но и ведёт к прямым экономическим потерям: по некоторым оценкам, упущенная выгода аграриев из-за неэффективного водообеспечения достигает $4,8 млрд в год.

Доступ населения к воде и состояние инфраструктуры
Водоснабжение питьевой водой в стране также сталкивается с серьезными проблемами. По данным на 2023 год, около 71% сельского населения

ISSN 3030-3907

Узбекистана имеет доступ к безопасной питьевой воде, тогда как в городах этот показатель достигает 89%. Средняя обеспеченность по стране оценивается примерно в 80%, то есть порядка 20% жителей (примерно 7 миллионов человек) не обладают надежным доступом к чистой воде. Особенно остро проблема стоит в сельской местности отдалённых регионов. Основная причина – износ и недостаточное развитие коммунальной инфраструктуры. Как было выявлено, до 80% сетей водоснабжения и водоотведения морально и физически устарели. Неблагоприятное наследие советского периода и недостаточные инвестиции в 1990–2000-е гг. привели к тому, что значительная часть водопроводных сетей нуждается в замене. В результате перебои в подаче воды и её потери на пути к потребителю весьма распространены. Оценочно, каждое пятое сельское поселение в стране испытывает дефицит питьевой воды, а более 3,4 млн жителей (около 9% населения) вынуждены пользоваться небезопасными или привозными источниками водоснабжения. Кроме того, остро стоит вопрос очистки сточных вод. В Узбекистане эксплуатируется 140 городских и районных очистных сооружений, из которых свыше 60% не обеспечивают должной очистки из-за устаревших технологий или перегрузки. По оценкам, лишь около 32% образующихся сточных вод проходит полную биологическую очистку и обеззараживание. Остальной объем либо недостаточно очищен, либо вовсе сбрасывается в реки и каналы после первичной отстойной обработки, что усугубляет проблемы качества воды. Сети канализации также во многом изношены: требуется модернизация более 77 крупных очистных станций и свыше 8600 км канализационных коллекторов. Дефицит финансирования в этой сфере приводит к тому, что темпы модернизации отстают от роста городского населения и промышленности, увеличивая риски для санитарно-эпидемиологической обстановки

Климатические тенденции и гидрологический режим Многолетний анализ осадков на территории Узбекистана не выявил однозначного повсеместного тренда к снижению – в большинстве регионов общее годовое количество осадков остаётся в пределах исторической нормы. Однако отчетливо прослеживается возрастание межгодовой изменчивости и сдвиги по сезонам. Так, статистика показывает, что в последние 10–15 лет увеличилась контрастность между сухим летом и влажной зимой. Летние месяцы стали ещё более засушливыми, с частыми пиками высоких температур и очень низкой относительной влажностью воздуха. Зимние же периоды характеризуются большей влажностью и участившимися

ISSN 3030-3907

интенсивными осадками в виде дождя и мокрого снега. Эти изменения подтверждают влияние глобального потепления на региональный климат.
Локальные исследования в Ферганской долине выявили снижение годовых осадков после 2014 года. Например, в Андиджанской области ежегодное количество осадков в 2005–2013 гг. колебалось около 400–600 мм, с экстремально влажным 2008 годом (~1200 мм). Но начиная с 2014 г. там наблюдается устойчивое выпадение лишь 200–300 мм в год
. Похожая картина в Ферганской области: периоды обильных дождей (2008, 2010 гг. – до 1200 мм) сменились резким снижением после 2014 г. до уровня ~250–400 мм

В Наманганской области разброс осадков ещё более значительный – от максимумов ~1800 мм (2008, 2012 гг.) до минимумов ~200 мм (2014 г.)

Bu yerda $f_{decoder}$ - decoder tarmog'ining neyron qatlamlaridan olingan funksiya.

BERT va Chuqur Neyron Tarmog'ini birgalikda qo‘llash jarayonining asosiy maqsadi, BERT yordamida matnning semantik ma'nosini o'rgatib, undan so'ng bu ma'lumotlarni chuqur neyron tarmog'iga (encoder-decoder) uzatishdir. BERT, matnni ikki tomonlama o'qish orqali barcha kontekstual xususiyatlarni o'rganadi va har bir so'z yoki jumlaga nisbatan semantik embeddinglarni hosil qiladi.

$$h_i^{BERT} = BERT(x_1, x_2, \dots, x_i)$$

Bu yerda h_i^{BERT} - BERT tomonidan yaratilgan semantik embeddinglar.

Chuqur Neyron Tarmog'i – Decoder.BERT tomonidan yaratilgan embeddinglar chuqur neyron tarmog'ining decoder qismini o'qitishda ishlatiladi. Decoder matndan muhim qismlarni ajratib, qisqartirishni yaratadi.

$$y_i = f_{decoder}(h_1^{BERT}, h_2^{BERT}, \dots, h_n^{BERT})$$

Bu yerda y_i - qisqartirishni yaratish uchun model tomonidan tahmin qilingan so'zlar.

BERT va chuqur neyron tarmog'ining kombinatsiya qilgan holda qo‘llashda **attention mexanizmi** juda muhim rol o'ynaydi. Attention mexanizmi modelga matnning muhim qismlariga e'tibor qaratish imkonini beradi. BERTda, bu mexanizm yordamida, matnning barcha qismlariga alohida e'tibor berilib, faqat kerakli qismlar tanlanadi.

$$\alpha_i = \frac{\exp\left(score(h_i, q)\right)}{\sum_{j=1}^{n} \exp\left(score(h_j, q)\right)}$$

Bu yerda α_i i-so'zni tanlash uchun e'tibor (attention) balansi, $score(h_i, q)$ - BERT embeddinglari bilan so'rov (query) o'rtasidagi moslikni hisoblashdir.

Matnning qisqartirishini yaratish uchun model quyidagi yakuniy formulani ishlatadi:

$$\tilde{y} = argmax_y P(y|h_1^{BERT}, h_2^{BERT}, \dots, h_n^{BERT})$$

Bu yerda $\tilde{y}$ −qisqartirish, h_i^{BERT} −BERT tomonidan yaratilgan embeddinglar va $P(y|h_1^{BERT}, h_2^{BERT}, \dots, h_n^{BERT})$ − model tomonidan chiqarilgan ehtimollik.

ISSN 3030-3907


BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) asosan matnni tushunish uchun mo‘ljallangan va summarization uchun odatda qo‘shimcha qatlam yoki model (masalan, klassifikator yoki decoder) bilan birgalikda ishlatilib, matnni kontekstual vektorlar sifatida ifodalaydi va qaysi qismlar muhimligini aniqlashga yordam beradi.

Biz matnni $\boldsymbol{S = \{s_1, s_2, \dots, s_n\}}$ deb olsak, bu yerda $\boldsymbol{s_i}$ – i-jumla hisoblanadi va BERT har bir jumlani kontekstual vektorga aylantiradi: $h_i = BERT(s_i)$ –bu yerda $h_i \in \mathbb{R}^d$ –d-o‘lchamli vektor. Muhimlik scoreni hisoblash uchun qo‘shimcha qatlam (masalan, linear yoki softmax) qo‘llanilib, $score(s_i) = W \cdot h_i + b$ hisoblanadi. Bu yerda W – og‘irlik matritsasi, b–bias. Eng yuqori scorega ega bo’lgan jumlalar tanlanadi.

$$Summary = \{s_i | score(s_i) > \theta\}$$


Bu yerda θ –muhimlik chegarasi.

BERT algortmi orqali exktraktiv usulda mattni qisqartish dasturiy ta’minotini ishlab chiqdik va uning ko ‘rinishi quyidagicha



Ko’rib turganizday katta hajmdagi ma’lumotdan qisqa va mazmunli natija olish mumki, matn sifatida pdf fayl yoki doc fayl yoki yangiliklarni olish mumkin

ISSN 3030-3907



Xulosa: BERT va chuqur neyron tarmoqlarining integratsiyasi matnni qisqartirishda yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. BERT modelining semantik va kontekstual ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi xususiyatlari, matnni chuqur o'rganish orqali yanada aniqroq qisqartirishlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Chuqur neyron tarmog'i (encoder-decoder) BERT tomonidan yaratilgan matn vakillarini (embeddings) qo'llanib, qisqartirish jarayonini optimallashtiradi. Shuningdek, attention mexanizmi modelga matnning eng muhim qismlariga e'tibor qaratish imkonini berib, natijada yuqori sifatli qisqartirishlar ishlab chiqiladi. Bu yondashuv matnni qisqartirishda an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli samaradorlikni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gambhir, M.; Gupta, V. Recent automatic text summarization techniques: A survey. Artif. Intell. Rev. **2017**, 47, 1–66. [CrossRef]
2. Gupta, S.; Gupta, S.K. Abstractive summarization: An overview of the state of the art. Expert Syst. Appl. **2019**, 121, 49–65.
[CrossRef]
3. Thu, H.N.T.; Huu, Q.N.; Ngoc, T.N.T. A supervised learning method combine with dimensionality reduction in Vietnamese text
summarization. In Proceedings of the 2013 Computing, Communications and IT Applications Conference (ComComAp), Hong
Kong, China, 1–4 April 2013; pp. 69–73.
4. Abuobieda, A.; Salim, N.; Kumar, Y.J.; Osman, A.H. Opposition differential evolution based method for text summarization. In

ISSN 3030-3907

Proceedings of the Asian Conference on Intelligent Information and Database Systems, Kuala Lumpur, Malaysia, 18–20 March
2013; Springer: Berlin/Heidelberg, Germany, 2013; pp. 487–496.
5. Kabeer, R.; Idicula, S.M. Text summarization for Malayalam documents—An experience. In Proceedings of the 2014 International
Conference on Data Science & Engineering (ICDSE), Chicago, IL, USA, 31 March–4 April 2014; pp. 145–150.
6. Hong, K.; Nenkova, A. Improving the estimation of word importance for news multi-document summarization. In Proceedings
of the 14th Conference of the European Chapter of the Association for Computational Linguistics, Gothenburg, Sweden,
26–30 April 2014; pp. 712–721.
7. Fattah, M.A. A hybrid machine learning model for multi-document summarization. Appl. Intell. 2014, 40, 592–600. [CrossRef].
8. M. Hu and B. Liu, "Mining and summarizing customer reviews," in *Proceedings of the tenth ACM SIGKDD international conference on Knowledge discovery and data mining*, pp. 168–177, ACM, 2004.
9. L. Zhuang, F. Jing, and X.-Y. Zhu, "Movie review mining and summarization," in *Proceedings of the 15th ACM international conference on Information and knowledge management*, pp. 43–50, ACM, 2006.
10. I. F. Moawad and M. Aref, "Semantic graph reduction approach for abstractive text summarization," in *2012 Seventh International Conference on Computer Engineering & Systems (ICCES)*, pp. 132–138, IEEE, 2012.
11. R. Nallapati, B. Zhou, C. Gulcehre, B. Xiang, *et al.*, "Abstractive text summarization using sequence-to-sequence rnns and beyond," *arXiv preprint arXiv:1602.06023*, 2016.
A. M. Rush, S. Chopra, and J. Weston, "A neural attention model for abstractive sentence summarization," *arXiv preprint arXiv:1509.00685*, 2015.

ISSN 3030-3907

UO‘K 621.31

BIR VA UCH FAZALI KONTAKTSIZ ISHGA TUSHIRISH QURILMALARINI SIMULINK DASTURIDA MODELLASHTIRISH

Xalikova Xurshida Abdullayevna
Qarshi davlat texnika universiteti-assistent
E-mail: xalikovaxurshida3@gmail.com
Nurova Malika Abduzairovna
Qarshi davlat texnika universiteti - assistent
E-mail: nurovamalika414@gmail.com
Mustayev Ruslan Aktamovich
Qarshi davlat texnika universiteti PhD, dotsent,
Qarshi sh O‘zbekiston.
E-mail: ruslanmustayev89@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada bir va uch fazali elektr iste’molchilarni kommutatsiyalashda kontaktsiz ishga tushirish va boshqaruv qurilmalarining afzalliklari yoritilgan. Kontaktsiz qurilmalar an’anaviy kontaktli qurilmalarga nisbatan ishonchli, uzoq xizmat muddati va xavfsizlik darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ular elektr tarmoqlarida uchqunlanish va kamonli razryadlarning oldini oladi, ayniqsa portlovchi muhitlarda xavfsizlikni ta’minlaydi. Bunday qurilmalar yarimo‘tkazgichli texnologiyalarga asoslanib, yuklamalarni silliq ishga tushirish va tez javob berish imkonini beradi. Shuningdek, Simulink dasturiy muhitida modellashtirish orqali qurilmalar ish rejimlari tahlil qilinib, optimal boshqaruv algoritmlari ishlab chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: kontaktsiz qurilma, kommutatsiya, yarimo‘tkazgich, Simulink, boshqaruv, xavfsizlik

Аннотация. В статье рассматриваются преимущества бесконтактных устройств пуска и управления при коммутации одно- и трёхфазных электроприемников. Бесконтактные устройства отличаются высокой надёжностью, длительным сроком службы и повышенным уровнем безопасности по сравнению с традиционными контактными устройствами. Они предотвращают искрение и дуговые разряды в электрических сетях, что особенно важно в потенциально взрывоопасных зонах. Такие устройства основаны на технологии полупроводников, обеспечивают плавный пуск нагрузок и быструю реакцию. Кроме того, моделирование в среде Simulink позволяет заранее анализировать режимы работы и разрабатывать оптимальные алгоритмы управления.

Ключевые слова. бесконтактное устройство, коммутация, полупроводник, Simulink, управление, безопасность

ISSN 3030-3907

Abstract. This article discusses the advantages of contactless starting and control devices used for switching single- and three-phase electrical consumers. Compared to traditional contact-based devices, contactless systems offer higher reliability, longer service life, and improved safety. They prevent arcing and sparking in electrical networks, which is crucial in explosive environments. These devices rely on semiconductor technologies, providing smooth load starting and fast response times. Additionally, modeling such systems in the Simulink software environment allows for detailed analysis of operating modes and development of optimal control algorithms, thereby increasing energy efficiency and reducing interruptions.

Key words: contactless device, switching, semiconductor, Simulink, control, safety

Kirish

Bugungi kunda elektr energiyasidan samarali va xavfsiz foydalanish talablari ortib bormoqda. Xususan, bir va uch fazali elektr iste'molchilarni kommutatsiyalashda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan kontaktsiz ishga tushirish va boshqaruv qurilmalari keng qo'llanilmoqda. An'anaviy kontaktli qurilmalarga nisbatan, kontaktsiz qurilmalar texnik va amaliy jihatdan ko'plab afzalliklarga ega. Avvalo, kontaktsiz qurilmalarning asosiy ustunligi ularning xizmat muddati uzunligi va ishonchliligidadir. Kontaktlarning mexanik ishqalanishi yo'qligi sababli, bunday qurilmalar kamroq ishdan chiqadi va kam xizmat ko'rsatishni talab qiladi.


Bundan tashqari, kontaktsiz qurilmalar yordamida elektr tarmoqlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan uchqunlanish va kamonli razryadlar oldini olish mumkin. Bu esa sanoat obyektlarida va portlovchi muhitga ega hududlarda xavfsizlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Kontaktsiz kommutatsiya texnologiyalari, masalan, yarimo'tkazgichli kalitlar va tiristorlar asosida ishlovchi qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Ular yuklama oqimlarini silliq yoqish, tez javob berish va tarmoqdagi kuchlanish tebranishlariga kam sezuvchanlik kabi xususiyatlarga ega.

Shuningdek, Simulink dasturiy muhitida bunday qurilmalarni modellashtirish orqali ularning ish rejimlari oldindan tahlil qilinadi va optimal boshqaruv algoritmlari ishlab chiqiladi. Bu esa energiya samaradorligini oshirish va tizimdagi uzilishlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Uslub va materiallar. MATLAB tizimining eng ajoyib xususiyatlaridan biri unda dastur modellarini immitatsiya qilish uchun samarali vosita - Simulink vizual dasturlash paketining mavjudligidir[1; 74-b., 2; 142-145-b., 3; 226-229-b.].

ISSN 3030-3907

Simulink to‘plami dinamik chiziqli va chiziqli bo‘lmagan tizimlarning harakatlarini o‘rganish (vaqt bo‘yicha tadqiq qilish) imkonini beradi. Dasturni tuzish hamda tizim xususiyatlarini kiritish dialog rejimida, elementar tizimlarning ulanish sxemasini yig‘ish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunday yig‘ish natijasida tizimning S-model deb ataladigan modeli olinadi. Simulink kutubxonalarida saqlanadigan vizual bloklar (modullar) S-modelni qurishda “qurilish bloklari” sifatida ishlatiladi[1; 74-b., 2; 142-145-b., 3; 226-229-b.].



1-rasm. Simulink Library Browser dasturiy oynasi.


S-modeli iyerarxik tuzilishga ega bo‘lishi mumkin, ya’ni quyi darajadagi modellardan iborat va iyerarxiya darajalari soni amalda cheklanmagan holatda bo‘ladi. Simulink bloklari kutubxonasi (1-rasm) vizual obyektlar to‘plami hisoblanib, ular orqali, alohida bloklarni bir-biriga ulanish liniyalari orqali bog‘lab, istalgan qurilmaning funksional blok-sxemasini yaratish imkoniyati mavjud va imitatsion model orqali chiqish parametrlarini ossillograflardan foydalanib olish imkonini beradi[1; 74-b., 68; 142-145-b., 3; 226-229-b.].

Imitatsion model, bir yoki bir nechta manba bloklaridan va chiqsh signallarini qabul qiluvchi bir nechta bloklarni o‘z ichiga olishi mumkin. Imitatsion modelni qurishda barcha kerakli elementlarni tanlashdan tashqari, ularning parametrlarini ham to‘g‘ri tanlash muhim hisoblanadi. Bir qutbli kontrollerlar modellarini qurish hamda eksperimental o‘rganish uchun MATLAB R2015bdan foydalanildi.

Imitatsion Model quyidagi ketma-ketlikda qurilgan. Matlab Simulink 2015b dasturini ishga tushirish. Simulyatsion model uchun yangi oyna ochish. Shundan so‘ng Simulink kutubxonasidan quyidagi elementlar tanlab olinib, model uchun ochilgan yangi oynaga tartib bilan joylashtiriladi. Ularga tiristorlar, o‘zgaruvchan kuchlanish manbayi, signal ishlab chiqaruvchi qurilmalar, zaminlash qurilmasi, tok o‘chash qurilmalari, kuchlanish o‘lchash qurilmalari, ossilloskoplar, bir fazali qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron motor hamda boshqa bir qator sxema


ISSN 3030-3907

elementlaridan foydalanilgan. Ushbu bloklarni ikkita tiristorni qarama qarshi parallel ulash sxemasi bo‘yicha ulash orqali biz ushbu qurilmaning 2-rasmda tasvirlangan modelini olamiz[1; 74-b., 2; 142-145-b., 3; 226-229-b.].



2-rasm. Bir fazali tiristorli kontaktsiz ishga tushirish modeli.

Immitatsion modelda qo‘llanilgan elementlar hamda ularni parametrlari quyidagicha bo‘ladi. Kuchlanish manbayi va tiristor parametrlari 3-rasmga muvofiq o‘rnatiladi[1; 74-b., 2; 142-145-b., 3; 226-229-b.].



3 – rasm. O‘zgaruvchan kuchlanish manbayi va tiristor parametrlari.

Impuls signal manbasi Pulse Generator - To‘g‘ri burchakli impulslarni shakllantirish uchun foydalaniladi.

Pulse Type – signalni shakllantirish usuli. Quyidagi ikki qiymatni qabul qilishi mumkin:

Time-based – joriy vaqt bo‘yicha.

Sample-based – model vaqtining kittaligi va hisobiy qadamlar soni bo‘yicha:

Amplitude — amplituda.

Period — davr. **Time-based Pulse Type** uchun sekundlarda yoki **Sample-based Pulse Type** uchun model vaqtining qadamlarida.


Pulse width —impulslarning kengligi. **Time-based Pulse Type** uchun foizlarda yoki **Sample-based Pulse Type** uchun model vaqtining qadamlarida beriladi.

ISSN 3030-3907


Phase delay — fazaviy kechikish. **Time-based Pulse Type** uchun sekundlarda yoki **Sample-based Pulse Type** uchun model vaqtining qadamlarida beriladi.

Sample time — model vaqtining qadami. **Sample-based Pulse Type** uchun beriladi[4; 191-192-b., 5; 169-182-b., 6; 125-142-b.].

Pulse Generator blokidan foydalanishga misol 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Pulse Generator




5-rasm. Pulse Generator parametrlari.

Pulse Generator parametrlari o‘zgaruvchan sinusoidal tok qiymatidan kelib chiqib tanlanadi. O‘zgaruvchan tok amplitudasi 5 V, chastotasi 50 Hz bo‘lganligi uchun uning davri 0,02 s ni tashkil etadi. **Pulse width** —impulslarning kengligi esa 50 %ni tashkil etadi, ya’ni 0,01 s. **Phase delay** - fazaviy kechikish o‘zgaruvchan tokning birinchi musbat davr uchun 0 ga teng. manfiy yarim davr uchun esa fazaviy kechikish 0,01 s chunki shu vaqtdan boshlab manfiy yarim davr boshlanadi (5 – rasm)[4; 191-192-b., 5; 169-182-b., 6; 125-142-b.].

Bir fazali asinxron motorning texnik parametrlari 6-rasmda keltirilgan.


ISSN 3030-3907



6-rasm. Bir fazali asinxron motorning parametrlari.

Tiristorlar va ularda sodir bo‘ladigan jarayonlarga asoslangan kontaktsiz qurilmalarni simulyatsiya qilish uchun Simulink va SimPowerSystems paketlarining versiyalari bilan birlashtirilgan Matlab eng maqbul muhit hisoblanadi[1; 79-b., 2; 142-145-b., 3; 226-229-b.].

Natijalar. Ushbu modellardan foydalanish minimal xarajat bilan ishga tushirgichlarning ishlashi va samaradorligini tekshirishga, asinxron motorlar parametrlarining ta’sirini, uning yuklamasining xususiyatini, ishga tushirish uchun qo‘llaniladigan boshqaruv tizimini qurishda qabul qilingan sxema yechimlarini baholashga imkon beradi[4; 191-192-b., 5; 169-182-b., 6; 125-142-b.].




7-rasm. Bir fazali tiristorli kontaktsiz ishga tushirish modelida kuchlanish va tok egri chiziqlari.


Tadqiq qilingan qurilma bilan jihozlangan va bir vaqtning o‘zida MATLAB paketidagi kompyuter simulyatsiyasi uchun asinxron elektr yuritma diagrammasi 8-rasmda ko‘rsatilgan. Elektr yuritmasini ishga tushirish rejimini simulyatsiya qilish natijalari 9 - va 10 - rasmlarda ko‘rsatilgan. Sxema uch fazali kuchlanish manbayini simulyatsiya qiluvchi “yulduz” usulda ulangan o‘zgaruvchan kuchlanishli uchta Voltage Source deb nomlangan blokdan iborat. Har bir fazalarga

ISSN 3030-3907

qarama – qarshi parallel ulangan oltita Tiristor-Tiristor5 simulyatsiya qilinuvchi tiristorlar bloklaridan va elektr parametrlarni o‘lchash hamda olingan natijalarni aks ettiruvchi ossillograflardan ham foydalanilgan. Ishga tushirish vaqtida asinxron motorining parametrlarini nazorat qilish uchun o‘lchov qurilmalari hamda qisqa tutashtirilgan rotorli asinxron elektr motoridan iborat[1; 80-b., 2; 142-145-b., 3; 226-229-b.].



8 – rasm. Uch fazali asinxron motorni kontaktsiz qurilma orqali ishga tushirish modeli.




9-rasm. Uch fazali asinxron motorning parametrlari.

Motorning quvvat manbayi impuls generatoriga bir vaqtning o‘zida kuchlanishni berilishi orqali boshlanadi. Impuls generatori ishga tushiriladi va u tiristorlarning boshqaruv elektrodlariga signallar yuboradi.

ISSN 3030-3907

Buning natijasida katta quvvatli tiristorlar ochiladi va asinxron motorning klemmalariga 220V kuchlanish beriladi. Natijada, motor elektr energiya bilan ta’minlanadi va aylana boshlaydi.



10 – rasm. Asinxron motorni kontaktsiz ishga tushirishdagi uch fazali tokning ossillogrammalari.

10 - rasmda keltirilgan ossillogramma asinxron motorning ishga tushirishdagi stator toklarining o‘zgarishi parametrlarini ko‘rsatadi. Ushbu egri chiziqdan ko‘rinib turibdiki, motorning ishga tushish toki 0,1 soniyadan so‘ng ruxsat etilgan qiymatga erishadi, bu kichik quvvatli asinxron motorlar uchun xosdir. Bundan shuni anglash mumkinki, tiristorli ishga tushirgich an’anaviy kommutatsiya qurilmasi sifatida ishlaydi va elektr motorlari hamda texnologik uskunalarni ishga tushirish uchun kommutatsiya qurilmasi sifatida foydalanilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. М.Саъдуллаев, М.Бобожанов, З.Эшмуродов. Бесконтактные средства регулирования реактивной мощности электротехнических устоновок и пуска электродвигателей. Монография, Ташкент, Навои., ТашГТУ и НГГиТУ: “NAVOIY”, 2022.
2. Моделирование электрических устройств в Matlab Sim Power Systems и Simulink- М.: ДМК Пресс; СПб.: Питер, 2008.-288с
3. М.К. Бобожанов, М. Саъдуллаев, Ф.Н. Туйчиев. Моделирование бесконтактного тиристорного пускателя в пакете МАТЛАБ. Труды Республиканской научно-технической конференции «Перспективы науки и производства химической технологии в Узбекистане». Навои. 23-24 мая, 2014.
4. T. Dadajonov., M. Muxitdinov. MATLAB asoslari. Oliy o‘quv yurtlari uchun

ISSN 3030-3907

darslik. Farg‘ona 2008 yil. 600 bet.
5. Герман-Галкин С. Г. Компьютерное моделирование полупроводниковых систем в MATLAB 6.0: Учебное пособие. - СПб.: КОРОНА принт, 2001. -320 с.
6. Дьяконов В. П. MATLAB 6/6.1/6.5 + Simulink 4/5. Основы применения. Полное руководство пользователя. - М.: Солон-Пресс. - 2002. - 768 с.
7. Fayziyev, M., Tuychiev, F., Mustayev, R., & Ochilov, Y. (2023). Development and research of non-contact starting devices for electric consumers and motors. In E3S Web of Conferences (Vol. 384, p. 01038). EDP Sciences.
8. Kalandarovich, B. M., Mansurovich, F. M., Aktamovich, M. R., Elmurodovich, B. O., & Erkinovich, T. S. (2021). Applying the non-contact devices for starting a single-phase asynchronous electric motor. Вестник науки и образования, (11-2 (114)), 31-35.
9. Bobojanov, M., Fayziyev, M., & Mustayev, R. (2022). Elektr motorlarni ishga tushirish uchun kontaktsiz qurilmalar. Innovatsion texnologiyalar, 1, 11-13.
10. Бобоназаров, Б. А., Бейтуллаева, Р. Х., & Мустаев, Р. А. (2019). энергосберегающий привод для магнитных пускателей. Интернаука, (12-1), 43-46.
11. Mustayev, R. A., & Babayev, O. E. (2024). Mikrokontroller orqali boshqariluvchi kontaktsiz ishga tushirish qurilmasi orqali kondensator batareyalarni boshqarish. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 14(3), 19-21.

ISSN 3030-3907

ISSIQ RUXLASH (ГАРЯЧЕЕ ЦИНКОВАНИЕ) ISHLAB CHIQARISH CHIQINDILARINING GRANULOMETRIYASI, KIMYOVIY VA FAZAVIY TARKIBINI TADQIQ ETISH

Samadov A.U.
Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali direktori, t.f.d., professor
E-mail: *a.samadov@tdtuof.uz*
Muzafarova N.M.
Assistent, Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali,
E-mail: *nafisamuzafarova1521@gmail.com*
Mirzaraimov A.M.
Islom Karimov nomidagi TDTU Olmaliq filiali Talaba
E-mail: *mirzaraimovaziz756@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada issiq ruxlash (g‘aroyib sinklash) texnologiyasi natijasida yuzaga keladigan ishlab chiqarish chiqindilarining granulometrik, kimyoviy va fazaviy tarkibi chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotlar natijasida chiqindilarning zarracha o‘lchamlari 50–200 mikron oralig‘ida ekanligi, ularning tarkibida Zn, Fe, Pb, Cu kabi metall elementlar mavjudligi va ZnO, $FeZn_{13}$ kabi asosiy fazalar aniqlangani ko‘rsatildi. Tahlil natijalari chiqindilarning qayta ishlanish imkoniyatlarini belgilab berdi va ularning iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali utilizatsiyasini asoslashga xizmat qiladi. Mahalliy sanoat sharoitida ushbu chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: issiq ruxlash, chiqindi tahlili, granulometriya, kimyoviy tarkib, fazaviy faza, ZnO, $FeZn_{13}$, ekologik xavfsizlik, qayta ishlash, metallurgiya.

Аннотация. В данной статье проведен всесторонний анализ гранулометрического, химического и фазового состава отходов, образующихся в результате технологии горячего цинкования. Исследования показали, что размеры частиц варьируются в пределах 50–200 микрон, а в составе присутствуют такие элементы, как Zn, Fe, Pb, Cu, а также фазы ZnO и $FeZn_{13}$. Результаты анализа определяют возможности переработки отходов и служат основой для их экономически эффективной и экологически безопасной утилизации. Рассматриваются перспективы использования таких отходов в качестве вторичного сырья в условиях местной промышленности.

Ключевые слова: горячее цинкование, анализ отходов, гранулометрия, химический состав, фазовый анализ, ZnO, $FeZn_{13}$, экологическая безопасность, переработка, металлургия.

Annotation. This article presents a comprehensive analysis of the granulometric, chemical, and phase composition of waste products generated during the hot-dip galvanizing process. Research has shown that the particle sizes range between 50–

ISSN 3030-3907

200 microns, and the waste contains metal elements such as Zn, Fe, Pb, and Cu, along with key phases like ZnO and $FeZn_{13}$. The findings define the potential for recycling these wastes and provide a basis for their economically and environmentally sound utilization. The prospects of using such waste as a secondary raw material under local industrial conditions are discussed.

Keywords: hot-dip galvanizing, waste analysis, granulometry, chemical composition, phase analysis, ZnO, $FeZn_{13}$, environmental safety, recycling, metallurgy.

Kirish

Zamonaviy sanoat ishlab chiqarishida metall materiallarning korroziyaga chidamliligini oshirish muhim texnologik muammolardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, metall buyumlarni himoyalashda issiq ruxlash (garachiy ruxlash – горячее цинкование) keng qo‘llaniladigan, samaradorligi yuqori bo‘lgan texnologik jarayonlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu usul metall yuzasini rux qatlami bilan qoplash orqali uning xizmat muddatini uzaytiradi, tashqi muhit ta’siridan himoyalaydi va texnik-iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi. Issiq ruxlash jarayoni davomida turli fizik-kimyoviy reaksiyalar natijasida bir qancha chiqindilar hosil bo‘ladi. Ushbu chiqindilar asosan rux oksidlari, temir-rux qotishmalari, shlaklar va boshqa komponentlardan iborat bo‘lib, ularning tarkibi va xossalari ishlab chiqarish sharoitiga, ishlatilgan metallning xususiyatlariga va texnologik parametrlarning to‘g‘ri tanlanishiga bevosita bog‘liq. Bu chiqindilar sanoat miqyosida katta miqdorda to‘planadi va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfini tug‘diradi. Shu sababli, ushbu chiqindilarni chuqur o‘rganish, ularning granulometrik tarkibini, kimyoviy moddalari va fazaviy holatini aniqlash, kelgusida ularni qayta ishlash yoki ekologik xavfsiz tarzda utilizatsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash jihatidan muhim hisoblanadi. Bugungi kunda sanoat chiqindilarini tahlil qilish, ularni qayta ishlash orqali ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish masalalari global miqyosda dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, rux va uning birikmalari muhim sanoat metallaridan biri bo‘lgani sababli, issiq ruxlash chiqindilarini ikkilamchi resurs sifatida o‘rganish iqtisodiy va ekologik jihatdan foydali hisoblanadi. Bunda granulometriya – ya’ni zarracha o‘lchamlarining taqsimlanishi, ularning fizik xossalari va strukturasini aniqlash, shuningdek, kimyoviy va fazaviy tarkiblarining kompleks tahlili orqali mazkur chiqindilar tarkibi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, mazkur tadqiqotlar sanoat chiqindilarining ilmiy jihatdan o‘rganilgan ma’lumotlar bazasini kengaytiradi, ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik standartlarga moslashtirishda, chiqindilardan samarali foydalanish yo‘llarini takomillashtirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ushbu

ISSN 3030-3907

maqolada aynan issiq ruxlash jarayonida hosil bo‘ladigan chiqindilarning granulometriyasi, kimyoviy va fazaviy tarkibi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tahlillar bayon qilinadi hamda ularning amaliy ahamiyati yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Issiq ruxlash texnologiyasi sanoatda keng qo‘llaniladigan metall himoya usullaridan biri bo‘lib, uning ilmiy va amaliy jihatlari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlarda ushbu texnologiya jarayonining fizik-kimyoviy asoslari, rux va temir orasidagi o‘zaro ta’sirlar, qotishmalar hosil bo‘lishi, shuningdek, ruxlash jarayonida yuzaga keladigan chiqindilarning tabiati va ularni qayta ishlash masalalari keng yoritilgan. Jahon olimlarining ilmiy ishlanmalarida issiq ruxlash jarayoni davomida hosil bo‘ladigan shlaklar, rux oksidlari, qotishma qatlamlari kabi komponentlar granulometrik jihatdan noan’anaviy zarracha taqsimlanishiga ega ekanligi ko‘rsatilgan. Masalan, M. Schuhmacher va hamkorlarining tadqiqotlarida ruxlash chiqindilarining zarracha o‘lchamlari 1 mikrondan 500 mikrongacha bo‘lgan diapazonda tarqalgani aniqlangan va bu ularning qayta ishlanish texnologiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Kimyoviy tarkib bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ruxlash chiqindilarida Zn, Fe, Al, Pb kabi elementlarning mavjudligini ko‘rsatadi. Ayrim hollarda ushbu chiqindilarda og‘ir metallar miqdori ham yuqori bo‘lib, ekologik xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, tadqiqotlarda ularning xavfsiz utilizatsiyasi yoki qayta ishlanishi muhim yo‘nalish sifatida alohida e’tiborga olingan. Xitoy, Germaniya va AQSh kabi mamlakatlarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda chiqindilardan ruxni qayta ajratib olish uchun gidrometallurgik va pirometallurgik usullar taklif etilgan.

Fazaviy tarkibni tahlil qilish bo‘yicha olib borilgan ilmiy ishlarda ruxlash chiqindilarida asosan ZnO, $FeZn_{13}$, $FeZn_7$, $Zn_5(OH)_8Cl_2 \cdot H_2O$ kabi fazalar aniqlangan. Bu fazalar ruxlash jarayonining harorati, eritma tarkibi va davomiyligi kabi parametrlariga bog‘liq holda hosil bo‘lishi mumkin. Xususan, fazaviy tahlil qilishda rentgen difraksiyasi (XRD) va skanerlovchi elektron mikroskopiya (SEM) usullari keng qo‘llanilgan. Masalan, E. Fernández va uning ilmiy guruhining tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, chiqindilarning mineralogik tarkibini aniqlash orqali ularning texnologik qayta ishlanish imkoniyatlari ancha yaxshilanadi. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham ushbu sohada muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, O‘zbekiston texnika universitetlari olimlari metallurgiya chiqindilarining iqtisodiy samarali utilizatsiyasi va ekologik xavfsizligi masalalariga e’tibor qaratgan. Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, aynan issiq ruxlash chiqindilarining kompleks — ya’ni granulometrik, kimyoviy va fazaviy jihatdan birgalikda va tizimli tarzda o‘rganilgan holatlari yetarli emas. Bu esa, ushbu mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Yuqorida

ISSN 3030-3907

keltirilgan adabiyotlar asosida xulosa qilish mumkinki, issiq ruxlash chiqindilarining chuqur o‘rganilishi ularni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlashda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim o‘rin egallaydi. Shu boisdan, ushbu maqolada ushbu chiqindilarning granulometriya, kimyoviy va fazaviy tarkibini kompleks ravishda tadqiq etish ilmiy va amaliy nuqtai nazardan katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, adabiyotlarda issiq ruxlash jarayonida yuzaga keladigan chiqindilarning morfologik xususiyatlari, ularning yuzasida paydo bo‘ladigan kristall tuzilmalar, yuzaki notekisliklar va sirt mayda zarrachalarining mikrostrukturasini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ham mavjud. Ayniqsa, skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) yordamida olingan tasvirlar asosida tadqiqotchilar ushbu chiqindilarning tarkibida dendritik tuzilmalarning mavjudligini aniqlashgan. Bu esa ularning sovish tezligi va fazalararo almashinuvlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, difraksion usullar yordamida aniqlangan intermetallik fazalar tarkibi va ularning nisbatlari texnologik parametrlarning o‘zgarishiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatib beradi.

Issiq ruxlash chiqindilarining tarkibida ko‘pincha ruxning turli valentli holatlari, ya’ni Zn^{2+} va Zn^{0} shaklida mavjud bo‘lishi kuzatiladi. Bu holat ularning kimyoviy faoliyatini oshiradi va chiqindilarni qayta ishlashda muayyan kimyoviy reaktivlar bilan tez reaksiyaga kirishishiga olib keladi. Shuningdek, chiqindilardagi temir miqdori ularning ishlatilgan materiallar – ya’ni temir asosidagi metall buyumlar bilan ruxlash jarayonida yuzaga kelgan korroziyaviy reaksiyalar natijasida ajralib chiqqanligini ko‘rsatadi. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik talablarga asoslangan chiqindilarni boshqarish tizimlari ishlab chiqilgan bo‘lib, issiq ruxlashda hosil bo‘ladigan chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish aniq yo‘riqnomalar asosida amalga oshiriladi. Jumladan, Germaniyada chiqindilarni ajratish, metallurgik korxonalarda ikkilamchi xomashyo sifatida qayta eritish va ularni ikkilamchi rux mahsulotlariga aylantirish texnologiyalari samarali yo‘lga qo‘yilgan. AQShda esa chiqindilarning energetik qiymati va ularning yoqilg‘i sifatida ishlatilish ehtimoli ustida ham tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mahalliy sharoitlarda olib borilgan ilmiy izlanishlarda, xususan, O‘zbekistonning metallurgiya va kimyo yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida bu boradagi izlanishlar hali yetarlicha rivojlanmagan. Aksariyat hollarda chiqindilar oddiy texnologik filtrlar yoki mexanik tozalash qurilmalari orqali yig‘ib olinib, maxsus poligonlarga chiqariladi. Bu esa ekologik xavf darajasining ortishiga, yer resurslarining zaharlanishiga va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, ushbu chiqindilarni qayta ishlash, ularni foydali

ISSN 3030-3907

komponentlarga ajratish, ekologik xavfsiz yo‘llar bilan utilizatsiya qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ilmiy manbalarda metallurgik chiqindilarning granulometrik tahlili ularning fizik xossalarini, shu jumladan, zichligi, solishtirma sirt maydoni va reaktivlik darajasini belgilashda asosiy o‘rin egallashi qayd etilgan. Bu parametrlar chiqindilarning texnologik jarayonlarda qanday ishlatilishini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Shunday qilib, issiq ruxlash chiqindilarining o‘rganilishi ularni metallurgik, qurilish, kimyo va hatto energetika sohalarida qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, aytish mumkinki, mavjud adabiyotlarda issiq ruxlash chiqindilarining ayrim xususiyatlari alohida ravishda yoritilgan bo‘lsa-da, ularning granulometrik, kimyoviy va fazaviy tarkibi kompleks tarzda, birgalikda tahlil etilgan holatlar juda kam uchraydi. Bu esa mazkur maqolada olib borilayotgan tadqiqotning yangiligi, ilmiy ahamiyati va amaliy foydaliligini yanada oshiradi. Mazkur yo‘nalishda chuqur va tizimli tadqiqotlar olib borish, nafaqat ilmiy-nazariy asoslar yaratadi, balki amaliyotda chiqindilarni iqtisodiy jihatdan samarali va ekologik xavfsiz qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ishda issiq ruxlash jarayonidan kelib chiqqan chiqindilarning granulometrik, kimyoviy va fazaviy tarkibini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-tadqiqot metodlari tizimli va puxta tarzda qo‘llanildi. Tadqiqot materiali sifatida ishlab chiqarishning turli bosqichlaridan va vaqt omillarini hisobga olgan holda olingan chiqindi namunalari tanlandi. Namunalar olinishida namunaviylik tamoyiliga qat’iy rioya qilinib, ishlab chiqarish liniyasining turli qismlaridan bir necha marta yig‘ildi, bu esa olingan natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qildi. Granulometrik tahlil zarrachalar hajmini aniqlash uchun lazer granulometriya usuli asosida amalga oshirildi. Ushbu metod yuqori aniqlik va tezlik bilan zarracha taqsimotini o‘lchash imkonini beradi hamda chiqindi tarkibidagi mayda va katta zarrachalar foizini aniq belgilashga xizmat qildi. Shuningdek, materialning fraksiyalar bo‘yicha taqsimotini yanada chuqurroq o‘rganish uchun siftalash usuli ham qo‘llanildi, bu granulometriya natijalarini mustahkamlashga yordam berdi. Kimyoviy tarkibni aniqlash uchun rentgen-fluoresentsiya spektroskopiyasi (XRF) va atom absorpsiya spektrometriyasi (AAS) usullari qo‘llanildi. Ushbu ilg‘or metodlar chiqindilardagi asosiy metall elementlar — xususan, rux (Zn), temir (Fe), qo‘rg‘oshin (Pb), mis (Cu) va boshqa iz elementlarning miqdori va taqsimotini aniqlashda yuqori aniqlikni ta’minladi hamda kimyoviy xossalarni batafsil o‘rganishga imkon berdi. Fazaviy tarkibni o‘rganish uchun rentgen diffraktsiyasi (XRD) metodi ishlatildi. Ushbu usul yordamida chiqindilarda mavjud bo‘lgan asosiy kristall fazalar — ZnO, $FeZn_{13}$ va

ISSN 3030-3907

$Zn(OH)_2$ aniqlanib, ularning nisbati va strukturaviy xususiyatlari yoritildi. Bu ma’lumotlar chiqindilarning qayta ishlash jarayonidagi xatti-harakatlarini tushunishga, shuningdek, ularning fizik-kimyoviy barqarorligini baholashga xizmat qildi.

Olingan granulometrik, kimyoviy va fazaviy ma’lumotlar statistik tahlil vositalari yordamida qayta ishlanib, parametrlarning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganildi. Natijalar ilmiy adabiyotlar, milliy standartlar va ilg‘or tajribalar bilan solishtirildi, bu esa tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligini ta’minladi. Shuningdek, tadqiqot doirasida chiqindilarning ekologik xavfsizligi, sanoat sharoitida qayta ishlanish imkoniyatlari va ikkilamchi xomashyo sifatida foydalanish istiqbollari ilmiy asosda baholandi. Ushbu baholash chiqindilarning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish va ularning resurs sifatida samarali qayta ishlanishini ta’minlash nuqtai nazaridan ahamiyatga ega.

Tadqiqot munozarasi. Olib borilgan tajriba va tahliliy ishlanmalar asosida aniqlanishicha, issiq ruxlash texnologiyasi natijasida hosil bo‘ladigan chiqindilar turli granulometrik xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning zarracha o‘lchamlari keng diapazonda tarqalgan. Bu esa chiqindilarning texnologik xossalarini, qayta ishlanish darajasini va ularning metallurgik jarayonlardagi rolini belgilab beradi. Xususan, granulometrik tahlil natijalariga ko‘ra, chiqindilar tarkibida 50–200 mikron oralig‘idagi zarrachalar ustunlik qilishi kuzatildi. Bu ko‘rsatkich boshqa tadqiqotlar (masalan, Schuhmacher va boshqalarning ishlari) bilan muvofiqlikda bo‘lib, bunday fraksiyalar termik ishlov berish va metall ajratib olishda yuqori samaradorlikni ta’minlashi aniqlangan. Kimyoviy tarkibni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, chiqindilar asosan rux (Zn) va temir (Fe) elementlaridan iborat bo‘lib, ulardan tashqari qoldiq miqdorda qo‘rg‘oshin (Pb), alyuminiy (Al), mis (Cu) va ba’zan xrom (Cr) kabi komponentlar mavjud. Ushbu elementlar miqdori va ularning birikma shakllari chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotlar natijalari mavjud adabiyotlar bilan mos keladi va ularning asosida chiqindilardan ruxni gidrometallurgik usullar bilan ajratib olish texnologik jihatdan maqsadga muvofiq ekanligi tasdiqlandi. Fazaviy tahlil (XRD) natijalari esa chiqindilarda ZnO, $FeZn_{13}$, $Zn(OH)_2$ kabi asosiy fazalarning mavjudligini ko‘rsatdi. Bu fazalar ruxlash jarayonidagi harorat, eritma tarkibi, vaqt va sirtning holatiga bevosita bog‘liq. Aniqlangan fazalar tarkibi ilgari e’lon qilingan xalqaro ilmiy maqolalar ma’lumotlari bilan hamohang bo‘lib, ular chiqindilarning mikrostrukturasi va fizik-kimyoviy barqarorligini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ZnO va $FeZn_{13}$ fazalarining ustunligi ularning metallurgik xatti-harakatini boshqarishda muhim omil hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Olingan ilmiy natijalar chiqindilarning qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan texnologik yo‘llarini asoslashga imkon berdi. Shu bilan birga, chiqindilarni qayta ishlash orqali ruxni ikkilamchi xomashyo sifatida olish, ularning miqdorini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, chiqindilarning tarkibida og‘ir metallar mavjudligi ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri utilizatsiya qilishda muayyan ekologik talablarni keltirib chiqaradi. Bu esa chiqindilarni ilmiy asosda tahlil qilish va saralash orqali ularni maqsadli texnologik yo‘nalishlarda qayta ishlash zarurligini ko‘rsatadi. Mahalliy ishlab chiqarish sharoitlarida esa bu boradagi amaliyot hali yetarlicha shakllanmagan. Aksariyat hollarda chiqindilar oddiy yo‘llar bilan to‘planadi yoki tashlanadi, bu esa atrof-muhit ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkin-ki, mavjud chiqindilarni chuqur va kompleks o‘rganish orqali ularning iqtisodiy, texnologik va ekologik samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa nafaqat metallurgiya sanoati balki boshqa tarmoqlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda issiq ruxlash (goryachee sinkovanie) jarayonida hosil bo‘ladigan ishlab chiqarish chiqindilarining granulometrik, kimyoviy va fazaviy tarkibi batafsil o‘rganildi. Tadqiqot natijalari chiqindilarning zarracha o‘lchamlari 50 dan 200 mikrongacha diapazonda taqsimlanganligini ko‘rsatdi, bu esa ularning qayta ishlash imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi. Kimyoviy tarkib tahlili chiqindilarda asosiy metall elementlar — rux (Zn), temir (Fe), qo‘rg‘oshin (Pb), mis (Cu) va alyuminiy (Al) kabi metallarni aniqladi. Bu elementlarning mavjudligi chiqindilarning metallurgik va ekologik jihatdan ahamiyatini oshiradi. Fazaviy tahlillar (rentgenografik analiz) ZnO, $FeZn_{13}$ va $Zn(OH)_2$ kabi asosiy fazalarning mavjudligini tasdiqladi. Ushbu fazalar chiqindilarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini belgilab, ularning termik va kimyoviy barqarorligini ta’minlaydi. Bu esa chiqindilarning qayta ishlash jarayonida samaradorlik va sifatni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, chiqindilarning qayta ishlanishi nafaqat resurslarni tejash, balki atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va sanoat chiqindilarining ekologik xavfsiz utilizatsiyasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy sanoat sharoitida bunday chiqindilarni ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish va sanoatni yanada barqaror qilish imkonini beradi. Bu tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar va takliflar sanoat chiqindilarini samarali boshqarish va qayta ishlash sohasida yangi yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi. Umuman olganda, mazkur ish nafaqat ilmiy tadqiqotlar sohasida, balki amaliy ishlab chiqarish jarayonlarida ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, metallurgiya sohasidagi

ISSN 3030-3907

chiqindilarni qayta ishlash va ekologik muammolarni hal etishda muhim ilmiy-amaliy asos yaratdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Бабушкин, А. Д. (2018). Горячее цинкование: технологии и оборудование. Москва: Машиностроение.
2. Schuhmacher, M., Domingo, J. L., & Garreta, J. (2004). Pollutants emitted by a hot-dip galvanizing process. Science of the Total Environment, 322(1-3), 137–149.
3. Luo, Y., Zhang, X., & Wang, H. (2017). Phase formation in hot-dip galvanized coatings. Journal of Materials Science & Technology, 33(5), 451–456.
4. Миронов, С. П., & Ермаков, И. В. (2019). Исследование фазового состава отходов цинкования методом рентгенофазового анализа. Металлообработка и материалы, №2, 25–30.
5. Korolev, V. D., & Kuznetsov, V. A. (2020). Utilization of industrial waste in metallurgy: current challenges and solutions. Metallurgical Review, 12(1), 47–58.
6. Karamanov, A., Pelino, M., & Hristov, T. (2011). Recycling of galvanizing ash for the production of glass–ceramics. Journal of Hazardous Materials, 189(3), 383–388.
7. Jo, Y., Kim, H. J., & Lee, S. Y. (2019). Environmental assessment of hot-dip galvanizing waste recycling. Environmental Engineering Research, 24(3), 456–464.
8. GOST 14192–96. (1996). Markirovka gruzov. Etirovanie otxodov metallurgii. Moskva: Gosstandart.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi. (2022). Sanoat chiqindilari va ularning utilizatsiyasi bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar. Toshkent: “Fan va texnologiya”.
10. Tojiboyev, B. N., & Raxmonov, A. A. (2021). Mahalliy sharoitda metall chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalari. O‘zbekiston texnika jurnali, 3(45), 112–118.

ISSN 3030-3907

TRANSPORT OQIMINING O‘RTACHA TEZLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR TAHLILI

Nazirov Nodirbek Jamoliddin o‘g‘li
Andijon mashinasozlik instituti, tayanch doktoranti
E-mail: nazirovnodirbek668@gmail.com
Tel.: +998 88 234 54 51
Yusupov Sarvarbek Sodiqovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, PhD., dotsenti
E-mail: sarvarbek.83@mail.ru
Tel.: +998 90 217 54 27.

Annotatsiya. Ushbu maqolada transport oqimining o‘rtacha tezlik ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida yo‘l infratuzilmasi, transport vositalarining texnik xususiyatlari, haydovchilar va piyodalarning xatti-harakatlari, ob-havo sharoitlari hamda transport boshqaruv tizimlarining o‘rtacha tezlikka ta’siri o‘rganilgan. Olingan natijalar Andijon shahri misolida transport oqimining dinamik o‘zgarishlarini yorituvchi jadvallar, diagrammalar va formulalar orqali ifodalangan.

Kalit so‘zlar: Yo‘l infratuzilma, transport, svetafor, oqim, intensivlik, tirbandlik, optimallashtirish, intellektual transport tizimi (ITT), harakat zichligi.

Аннотация. В статье анализируются основные факторы, влияющие на среднюю скорость транспортного потока. В исследовании изучалось влияние дорожной инфраструктуры, технических характеристик транспортных средств, поведения водителей и пешеходов, погодных условий и систем управления дорожным движением на среднюю скорость. Полученные результаты представлены в таблицах, диаграммах и формулах, иллюстрирующих динамику изменения транспортного потока на примере города Андижана.

Ключевые слова: Дорожная инфраструктура, транспорт, светофоры, , поток, интенсивность, транспортные заторы, оптимизация, интеллектуальная транспортная система (ИТТ), плотность движения.

Abstract. This article analyzes the main factors affecting the average speed of traffic flow. During the study, the impact of road infrastructure, technical characteristics of vehicles, driver and pedestrian behavior, weather conditions, and traffic management systems on average speed was studied. The results are presented in tables, diagrams, and formulas illustrating the dynamic changes in traffic flow in the case of Andijan.

ISSN 3030-3907

Key words: Road infrastructure, transport, traffic lights, flow, intensity, traffic congestion, optimization, intelligent transportation system (ITS), traffic density.

Kirish

Jahonda avtotransport oqimlarining samaradorlik va xavfsizlik ko‘rsatkichlarini optimallashtirish bo‘yicha ko‘plab ilg‘or texnologiyalarni, innovatsion yondashuvlar asosida intellektual transport tizimlari (ITT) orqali energetik samaradorlikni oshirish va xavfsizlikni ta'minlovchi boshqaruy modellaridan oqilona foydalanish yetakchi masalalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda aholining avtomobillar bilan ta'minlanganlik darajasi ortib borayotgan sharoitlarda mavjud avtomobil yo‘llarida dinamik o‘zgaruvchan axborotlarni haydovchilarga taqdim etish amaliyoti yo‘lga o‘yilgan. Bu borada, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi boshqa rivojlangan davlatlarda avtomobillarning harakat intensivligini hisobga olib, avtomobilni infratuzilma bilan ta'sirlashuvi (vehicle-to-infrastructure - V2I) ning aqlli texnologiyalarini samarali qo‘llash orqali yo‘l harakatini tavsiflovchi ya'ni yo‘lning o‘tkazuvchanlik qobiliyati, harakatning jadalligi, transport oqimining tarkibi, transport vositalari harakatlanishining o‘rtacha tezligi, yo‘lning bir kilometrida harakatlanayotgan transport vositalarining o‘rtacha soni (harakat zichligi) ko‘rsatkichlarini yaxshilash masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan avtomobillarning konstruksiyalaridagi mavjud intellektual tizimlari barcha infratuzilma elementlarini o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali V2I ning darajasi transport oqimlarining samaradorlik xavfsizlik ko‘rsatkichlarini belgilashga yordam beradigan yangi texnologiyalarni yaratish bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish va ularni amalda qo‘llash keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil martdagi PQ-3589-sonli "Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 18 yanvardagi 48-sonli "O‘zbekiston Respublikasida "Aqlli shahar" texnologiyalarini joriy etish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi va 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-sonli "Innovasion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun real vaqtda "Avtomobil-haydovchi-yo‘l-piyoda-muhit" muhitida transport oqimining o‘rtacha tezligi ko‘rsatkichini optimallashtirishda ITT ning integratsiyalashuv darajalaridan kelib chiqib tanlangan maqola mavzusining dolzarbligini belgilaydi [1].

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLARE TAHLILI.

M.Sumit, Sh.Horinov, M.Vanderschuren, N.Parmar va X.Zhanglarning nazariy va amaliy tadqiqotlarida yo‘l xarakati va ITT extiyojlarini nazorat qilish orqali GPS, Wi-Fi va Kamera kabi ITT texnologiyalaridan foydalanib, avtomobillarning xarakat sharoitlarini baxolash, tirbandlikni oldini olish va energiya resurslarini tejashga yordam berish mumkinligi o‘rganilgan [2-5].

L.Razi, A.Stevens, E.Dahlman va K.Chailarning ilmiy-tadqiqot ishlarida avtomobil bilan infratuzilmaning o‘zaro ta’sirlashuvi o‘rganilgan. Ekspluatasion sharoitda, avtomobillarga yaqinlashib kelayotgan yo‘l belgilari, xavfli burilishlar, temir yo‘l kesishmalari va hokazolar tugrisidagi axborotlar kiska masofali simsiz aloka texnologiyalari orqali, tasodifiy YTHning oldini olishga yordam berishi aniqlangan [6-7].

METODIK QISMI. Transport tizimlarida oqimning o‘rtacha tezligi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Harakat tezligi ko‘rsatkichlariga qarab, harakat xavfsizligining ta’minlanganlik darajasi, qatnovning qulayligi va tejamkorligiga baho berish mumkin. Harakat tezligini oshirish bir tomondan transport tizimi samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, yo‘l-transport hodisalarini sodir bo‘lish xavfini oshiradi [8]. Bu ko‘rsatkich transport vositalarining harakat samaradorligi, yo‘l xavfsizligi va yo‘l infratuzilmasining umumiy holatini baholashda asosiy rol o‘ynaydi. Transport oqimining o‘rtacha tezligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_{o'rt} = \frac{\sum Vi*n}{\sum \text{ni}} \qquad (1)$$

bu yerda: $V_{o'rt}$- transport oqimining o‘rtacha tezligi, km/soat, V_i -transport vositasining harakat tezligi, km/soat, n- harakatdagi transport vositalari soni [9].

Shuningdek, harakat zichligi va harakat oqimining quvvati bilan bog‘liq formula quyidagicha ifodalanadi:

$$q = k*V \qquad (2)$$

bu yerda: q – transport oqimining quvvati (avtomobil/soat), k – harakat zichligi (avtomobil/km), V – o‘rtacha tezlik (km/soat) [10].

Transport oqimining turli yo‘l sharoitlarida o‘rtacha tezlik ko‘rsatkichlari (1-jadval) keltirilgan [11]:

1-jadval.

Turli yo‘l sharoitlarida o‘rtacha tezlik ko‘rsatkichlari.

Yo‘l turi	O‘rtacha tezlik (km/soat)
Shahar yo‘llari	30-60
Magistral yo‘llar	70-110

ISSN 3030-3907

Qishloq yo‘llari	60-70
Tog‘li hududlar	20-50

O‘rtacha tezlikni tahlil qilish orqali transport tizimlarini optimallashtirish, yo‘l sharoitlarini yaxshilash va yo‘lovchilar va yuk tashishning samaradorligini oshirish mumkin.

Transport oqimining o‘rtacha tezlik ko‘rsatkichini kamaytrishga ta’sir etuvchi quyidagi asosiy omillarni misol keltirishimiz mumkin:

Yo‘l infratuzilmasi va uning holati. Yo‘l infratuzilmasi – bu transport tizimining muhim qismi bo‘lib, yo‘llar, ko‘priklar, tunnelar, yo‘l belgilari, svetoforlar, yo‘l qurilmalari va boshqa inshootlardan iborat kompleksdir. Yo‘llarning sifati, kengligi, burilishlari, qayrilishlar, pastlik balandlik transport vositalarining harakat tezligini belgilaydi. Masalan, notekis holatdagi yo‘llar transport vositalarining tezligini pasaytiradi, chunki haydovchilar xavfsizlikni ta’minlash uchun tezlikni cheklashga majbur bo‘lishadi. Bundan tashqari, yo‘l belgilari, svetoforlar va boshqa infratuzilma elementlari ham o‘rtacha tezlikkaning pasayishiga yoki aksincha ta’sir qiladi.

Transport vositalarining texnik xususiyatlari. Bular avtomobilning dvigatelning quvvati, avtomobilning og‘irligi, tezlanishi va tormoz tizimlari o‘rtacha tezlikka ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, yengil avtomobillar og‘ir yuk mashinalariga qaraganda tezroq harakatlanadi. Shuningdek, elektr transport vositalari an’anaviy ichki yonuv dvigatel bilan ta’minlangan transport vositalariga qaraganda turliy tezlik dinamikalariga ega.

Haydovchilar va piyodalarning xatti-harakatlari, transport oqimining o‘rtacha tezligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Haydovchilarning qoidabuzarliklari, masalan, avtomobil boshqarayotgan vaqtda mobil telefonlardan foydalanish, svetoforning qizil chirog‘ida harakatlanish, yo‘l harakati belgilariga e’tibor bermaslik yoki noto‘g‘ri qatnov chizig‘ini tanlash, transport oqimining sekinlashishiga olib kelishi mumkin. Piyodalarning xavfsiz harakatlanish qoidalariga rioya qilmasligi ham yo‘l harakatini sekinlashishiga olib keladi.

Ob-havo sharoitlari. Ob-havo sharoitlari asosan 2xil bo‘ladi:

Normal (xavfsiz) ob-havo sharoiti - transport vositalarining standart rejimda harakatlanishiga imkon beruvchi sharoitlar;

Noqulay (xavfli) ob-havo sharoiti - transport vositalarining harakatini qiyinlashtiruvchi yoki xavf tug‘diruvchi meteorologik sharoitlar.

Biz asosan transport oqimining o‘rtacha tezligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan ya’ni noqulay ob-havo sharoitlariga to‘xtalamiz. Yomg‘ir, qor, muzlik va tuman kabi ob-havo sharoitlari yo‘l sharoitlarini qiyinlashtirib, transport vositalarining

ISSN 3030-3907

tezligini pasaytiradi. Bundan tashqari, ob-havo sharoitlari haydovchilarning xavfsizlikni ta’minlash uchun tezlikni cheklashiga olib keladi.

Transport tizimining boshqarilishi. Transport tizimi temir yo‘l, avtomobil yo‘llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan temir yo‘l vokzallari, styalari, bekatlari, yuk omborlari, pristanlar, g‘avo flotining yirik aerovokzallari va boshqa infratuzilma bo‘linmalarini qamraydigan xalq xo‘jaligi kompleksini tashkil etadi [12]. Transport tizimining boshqarilishi, jumladan svetofor sikllarining no‘to‘g‘ri tanlanganligi, yo‘l belgilari va o‘rtacha tezlikni kamayishiga ta’sir ko‘rsatadi.


Tirbandlik darajasi. Tirbandlik darajasi, transport oqimining o‘rtacha tezligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tirbandlikning kuchayishi bilan transport vositalarining harakat tezligi pasayadi. Tirbandlikni kamaytirish uchun aqlli boshqaruv tizimlari (yo‘l-transport hodisasi yoki to‘siqlar yuzaga kelganda avtomatik aylanma yo‘llarni tavsiya qiluvchi axborot tizimlari, adaptiv svetoforlar orqali harakatni real vaqtda boshqarish va yo‘llardagi yuklama monitoringini avtomatik tizimlar orqali nazorat qilish), jamoat transportini rivojlantirish (maxsus avtobus yo‘laklari tashkil etish va elektr transport vositalari, tramvay, metro kabi jamoat transportlarini rivojlantirish), talabni boshqarish strategiyalari (avtomobil bilan shaxsiy qatnovdan ko‘ra jamoat transportiga rag‘batlantirish, ish va ta’lim muassasalari ish boshlash va tugash vaqtlarini almashlab tashkil qilish orqali pik soatlarni tarqatish va avtoturargohlar narxini oshirish yoki cheklash orqali markaziy hududlarda avtomobillar sonini kamaytirish), ekologik transportni rivojlantirish (kichik masofalarga avtomobildan foydalanish o‘rniga piyoda va velosiped harakatini rag‘batlantirish), va markaziy cheklovlar (shahar markaziga kirishni pullik qilish (Congestion Charge) va faqat jamoat transporti va maxsus transportlarga ruxsat berilgan hududlar tashkil etish) choralar ko‘rilishi mumkin.

MUHOKAMA QISMI. Tirbandlikni aniqlash masadida transportlarning oqim dinamikasini Andijon shahri Dukchi Eshon va Muqiymi ko‘chalari kesishmasidagi chorraxada kuzatish usuli orqali aniqlangan natijalarni quyidagi 1-rasmlar oraqli kunining ertalabki soat 07:00 da kechki soat 17:00gacha olinga natijalar.

1-rasmda natijalari shuni ko‘rsatdiki, transport oqimi ertalab soat 07:00 dan boshlab asta-sekin ortib boradi va 09:00 da maksimal darajaga yetadi. Bu davrda eng ko‘p transport vositalari harakatda bo‘lib, 2350 birlikka yetgan. Bu esa shahar aholisi ish joylariga borish va o‘quv muassasalariga yetib olish uchun yo‘lga chiqqanligini ko‘rsatadi. Soat 10:00 dan keyin transport oqimi kamayadi va 12:00–15:00 oralig‘ida nisbatan barqaror holatda saqlanadi. Soat 16:00 dan boshlab esa kechki pik soatlar boshlanib, 17:00 da transport oqimi yana yuqori ko‘rsatkichga (2300 birlik) yetadi.

ISSN 3030-3907

Mazkur dinamik o‘zgarishlar transport oqimining vaqtlarga qarab qanday o‘zgarishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ertalab va kechqurun transport harakatining intensivligi tirbandliklarning kuchayishiga olib keladi. Bu esa o‘rtacha tezlikning pasayishiga, harakat quvvatining kamayishiga va umumiy samaradorlikning tushishiga sabab bo‘ladi.



1-rasm. Transport oqim dinamik ko‘rsatkichi avtotransport vositalari (Andijon shahri misolida olingan natijalar)

Ilmiy asos va muhim xulosalar. Transport oqimining o‘rtacha tezligi kamayishiga ta’sir qiluvchi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi: yo‘l infratuzilmasining sifati, transport vositalarining texnik xususiyatlari, haydovchilar va piyodalarning xatti-harakati, ob-havo sharoitlari va boshqaruv tizimlarining samaradorligi.

Andijon shahri misolida o‘rganilgan natijalarga ko‘ra:

Pik soatlarda (07:00–09:00 va 16:00–17:00) transport oqimi 35–40% ga oshadi, bu esa harakat tezligini 30–40% ga kamaytiradi.

Yengil avtomobillar umumiy oqimning 60% ini tashkil etadi va tirbandliklarga asosiy sababchi bo‘lmoqda.

ISSN 3030-3907

ITT yordamida tirbandliklarni 15–20% ga kamaytirish va o‘rtacha tezlikni oshirish mumkin.

Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ITTlarini joriy qilish, jamoat transportini rivojlantirish va ekologik transportga o‘tishni rag‘batlantirish orqali harakat samaradorligini oshirish mumkin.

NATIJALAR. Andijon shahri misolida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni berdi:

Transport oqimi ertalab (07:00–09:00) va kechqurun (16:00–18:00) pik soatlarda 35–40% ga oshib, harakat tezligi o‘rtacha 30–40% ga pasaydi. Bu holat shahar markaziy chorrahalarida maksimal yuklama natijasida yuzaga kelmoqda.

Yengil avtomobillar pik vaqtlarda umumiy oqimning 60% ini tashkil etib, bu turdagi transport vositalari tirbandlikka asosiy hissa qo‘shadi. Avtobuslar esa 09:00 da maksimal yuklama bilan 51 birlikka yetgan bo‘lib, jamoat transporti talabining yuqoriligini ko‘rsatadi.

Yo‘nalishli taksilar harakati 13:00 da eng yuqori ko‘rsatkichga (185 ta) yetib, kun davomida o‘zgaruvchanlik ko‘rsatadi. Bu tushlikdan keyingi ish faoliyati va yo‘lovchi oqimi bilan bog‘liq.

Maxsus transport vositalarining faolligi 14:00–15:00 oralig‘ida eng yuqori bo‘lib, umumiy oqimda 22 birlikni tashkil etdi. Bu vaqt oralig‘ida favqulodda xizmatlar va yuk tashuvlar faollashadi.

Yo‘l infratuzilmasining sifati va boshqaruv tizimlarining (svetoforlar, belgilashlar) samaradorligi transport oqimiga 20–25% ta’sir ko‘rsatmoqda. Sifatli va samarali boshqaruv tizimlari tezlikni oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tirbandlik oshishi natijasida transport tezligi pasayib, quvvat va oqim samaradorligi 30% gacha kamayadi. Bu esa transport tizimi samaradorligining sezilarli pasayishiga olib keladi.

ITTni joriy qilish orqali tirbandliklarni 15–20% ga kamaytirish, transport oqimini 18–22% ga yaxshilash va o‘rtacha tezlikni oshirish imkoniyati mavjud.

Tavsiya etiladi:

Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va kengaytirish;

Jamoat transporti imkoniyatlarini 25–30% ga oshirish va harakat jadvalini optimallashtirish;

ITT va zamonaviy boshqaruv tizimlarini keng joriy etish;

Ekologik va piyoda transportini rivojlantirish va targ‘ib qilish;

Pik soatlarda harakatni tartibga soluvchi qo‘shimcha chora-tadbirlarni qo‘llash.

ISSN 3030-3907

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Andijon shahrida transport oqimining o‘rtacha tezligiga quyidagi asosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi: yo‘l infratuzilmasining sifati, tirbandlik darajasi, haydovchi va piyodalarning xatti-harakati, ob-havo sharoitlari va transport boshqaruv tizimlari. Ayniqsa, ertalab va kechki pik soatlarda transport tezligi keskin pasayadi.

Transport oqimini yaxshilash va tezlikni oshirish uchun quyidagi choralarni tavsiya etamiz:

Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish;

- Jamoat transporti tizimini rivojlantirish;
- Aqlli transport boshqaruv tizimlarini joriy etish;
- Shahar markazida avtomobil harakatini cheklash va ekologik transportni qo‘llab-quvvatlash.

Ushbu tadbirlar transport harakati xavfsizligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yusupov S. S. “INNOVATSION INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINI MAHALLIY SHAROITDA SINERGIYASINI ASOSLASH” Toshkent 2022y 28-30 betlar
2. Sumit M. Intelligent Transportation System, International Journal of Civil Engineering Research. ISSN 2278-3652.-2014. -Vol. 5(4). pp. 367-372.
3. Horinov Sh. Intelligent transport systems constantly growing network of urban transport systems. // ResaerchGate. Turin Polytechnic University in Tashkent. -Uzbekistan. -2015.-pp. 1-2.
4. Vanderschuren M. The benefits of intelligent transport systems: modelling the effects of different ITS systems. // ResaerchGate. -2003.-P. 10.
5. Zhang X, Liu H, Mao C, Shi J, Meng G, Wu J, et al. The intelligent engine start-stop trigger system based on the actual road running status. // PLoS ONE. -2021. 16(6). pp. 1-16.
6. Razi 1., Kenichi Yu. Intelligent Transportation Systems Using Short Range Wireless Technologies. // Journal of Transportation Technologies. -2011.-Vol. 1.-pp. 132-137.
7. Stevens A., Hopkin J. Benefits and deployment opportunities for vehicle/roadside cooperative ITS. // Research Gate. -2016. -pp. 1-7.
8. Normuxammadov Asilbek Alimardanovich. SHAHAR SHAROITIDA YO‘L HARAKATI TAVSIFLARINING TRANSPORT VOSITALARI HARAKAT TEZLIGIGA TA’SIRINI O‘RGANISH VOLUME 2 | ISSUE 12 ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 ASI Factor = 1.7 https://cyberleninka.ru/article/n/shahar-

ISSN 3030-3907

sharoitida-yo-l-harakati-tavsiflarining-transport-vositalari-harakat-tezligiga-ta-sirini-o-rganish
9. Nicholas J. Garber, Lester A. Hoel. Fundamentals of Traffic Flow and Queuing Theory**Maynard,**
10. **Maynard C.H. –** "Traffic Flow Theory" (Federal Highway Administration, 1975).
11. O‘zbekiston Respublikasi Qurilish me’yorlari (KMK) – “Avtomobil yo‘llarini loyihalash. O‘z DSt 2267:2018
12. https://uz.wikipedia.org/wiki/Transport
13. Васильев А.П. Проектирование дорог с учетом влияния климата на условия движения. М.:/ Транспорт, 1986. – 248 с. 2.
14. Азизов Қ.Х. Йўлларда ҳавфсиз ҳаракатланиш асослари: Олий ўқув юртарининг бакалаврият таьлим йўналиши талабалари учун ўқув қўлланма /С.М.Қодиров таҳрири остида.-Т..”ТАЙИ”,2004-71 б
15. Yusupov S. S. Synergetic Properties of the Interaction of the Vehicle with the Element of Road Infrastructure in Urban Driving Modes //Journal of Siberian Federal University. Engineering & Technologies. – 2022. – Т. 15. – №. 5. – С. 593-608.
16. Yusupov S. SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES: SYNERGETIC PROPERTIES OF VEHICLE TO INFRASTRUCTURE IN URBAN DRIVING MODES //Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent. – 2022. – Т. 12. – №. 2.
17. Yusupov Sarvarbek Sodiqovich, & Inoyatkhodjaev Jamshud Shukhratullaevich. (2021). Analysis of test results using an automatic start-stop system in vehicle driving modes. Open Journal of Science and Technology, 4(2), 77–84. https://doi.org/10.31580/ojst.v4i2.1791.
18. Usmanova M.N., Abdurazakova D.A. The role of non governmental organizations in ensuring road safety.// World Economics & Finance Bulletin (WEFB) Available Online https://scholarexpress.net/index.php/wefb/article/view/756/681 March 30th 2022
19. Road Intersection Improvement–Main Step for Emission Reduction and Fuel Economy S Khakimov, S Rajapova, F Amirkulov, E Islomov - IOP Conference Series: Earth and Environmental …, 2021
20. Dildora Abdurazakova Anvarovna., Utkirov Shokirxoja Shavkat o‘g‘li Organization of traffic at uncontrolled intersections science and innovation in the education system International scientific-online conference https://doi.org/10.5281/zenodo.7695531

ISSN 3030-3907

21. САРИМСАҚОВ, А. М., & НАЗИРОВ, Н. Ж. Ў. ОРГАНИЗАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ШАХРИХАНСКОГО АВТОВОКЗАЛА С ИНФОРМАЦИОННЫМИ ТЕХНОЛОГИЯМИ. UNIVERSUM, 52-54.
22. Саримсаков А.М., Хакимов М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ СИСТЕМ ПОЖАРОТУШЕНИЯ, СКОРОСТНОГО ДВИЖЕНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ СКОРОЙ ПОМОЩИ НА ПЕРЕКРЕСТКАХ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 4(97). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/13416 (дата обращения:19.12.2022)
23. Nazirov, N. (2023). SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDA ZAMONAVIY TO‘LOV TIZIMLARIDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(5), 5-9.
24. Nazirov Nodirbek. (2023). ANDIJON VILOYATI SHAHRIXON TUMANIDA JOYLASHGAN AVTOSHOXBEKATDAGI AVTOBUSLAR VA MIKROAVTOBUSLAR FAOLIYATIDA GPS-NAZORATI MARKAZINI TASHKIL ETISH ORQALI FAOLIYATINI TAKOLADI. TA'LIMDAGI ZAMONAVIY MUAMMOLAR VA ULARNING ILMIY YECHLARI , 1 (1), 175-182. https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/102 dan olindi
25. Nazirov Nodirbek Jamoliddin o‘g‘li, Omonov Sanjarbek Alijon o‘g‘li. (2023). Global logistika muammolari va uning rivojlanish istiqbollari: O‘zbekiston misoli.

ISSN 3030-3907

NEFT SHLAMIDAN ORGANIK QISMLARNI AJRATISH VA ANTIKORROZION MATERIAL OLISH UCHUN XOMASHYO TAYYORLASH JARAYONI

Xurmamatov Abdug‘affor Mirzabdullayevich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, texnika fanlari doktori, professor.
Jo‘raqulov Muslimbek Mahsud o‘g’li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqola neft sanoati chiqindilari, xususan, neft shlamini qayta ishlash texnologiyasini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot davomida neft shlamining fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘rganilib, uning asosiy tarkibiy komponentlari aniqlandi. Eksperimental ishlar davomida neft shlamidan anti-korroziya material olish uchun hom ashyo tayyorlash jarayonlari tahlil qilindi. Neft shlamining qovushqoqligi yuqori bo‘lgani sababli, uni qayta ishlashda erituvchi sifatida 30% yengil nafta ishlatildi. Bunda, optimal aralashtirish parametrlari quyidagicha: aralashtirgich diametri sig‘im diametriga nisbatan 1,43; aralashtirgichning aylanish chastotasi 60 ayl/min, parraklar soni 6 dona, aralashtirish samaradorligi 99,87% ga yetdi. Rektifikatsiya jarayoni o’tkazildi va natijada yengil uglevodorod fraksiyalarining zichligi 762–785 kg/m³, qovushqoqligi esa 0,93–1,35 mm²/s diapazonda o‘zgarishi kuzatildi.

Kalit so‘zlar: Neft shlami, yengil nafta, aralashtirgich samaradorligi, rektifikatsiya, deasfaltsizlantirish, suyultirilgan propan.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу технологии переработки отходов нефтяной промышленности, в частности, нефтешламов. В ходе исследования были изучены физико-химические свойства нефтешлама, определены его основные составляющие. В ходе опытно-экспериментальной работы были проанализированы процессы подготовки сырья для получения антикоррозийного материала из нефтешлама. Из-за высокой вязкости нефтешлама при его переработке в качестве растворителя использовалась 30% Легкая НАФТА. При этом оптимальные параметры перемешивания следующие: диаметр мешалки 1,43 относительно диаметра емкости; частота вращения мешалки 60 об/мин, количество лопастей 6 штук, эффективность перемешивания достигла 99,87%. Был проведен процесс ректификации, в результате которого наблюдалось изменение плотности легких углеводородных фракций в пределах 762-785 кг/м3, а вязкости–в диапазоне 0,93-1,35 мм2/с.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: нефтешлак, легкая НАФТА, эффективность смесителя, ректификация, деасфальтизация, сжиженный пропан.

Annotation. This article focuses on the analysis of oil industry emissions, in particular oil shale processing technology. During the study, the physicochemical properties of the oil slurry were studied and its main structural components were identified. During the experimental work, the processes of preparation of hom materials for obtaining anti-corrosion material from an oil slurry were analyzed. Due to the high viscosity of the oil slurry, 30% light naphtha was used as a solvent in its processing. In this case, the optimal mixing parameters are as follows: the mixer diameter is 1.43 with respect to the capacitance diameter; the rotation frequency of the mixer is 60 ayl/min, The number of particles is 6 PCs., the mixing efficiency has reached 99.87%. A rectification process was carried out and resulted in a change in the density of light hydrocarbon fractions to 762-785 kg/m3, and the viscosity to 0.93–1.35 mm2/s range.

Keywords: oil slurry, light naphtha, mixer efficiency, rectification, deasfalcification, diluted propane.

Kirish

Neft sanoati atrof-muhitga ta’siri darajasi bo‘yicha ko‘p miqdordagi geterogen chiqindilar hosil qilishi tufayli yetakchi tarmoqlar orasida birinchi o‘rinlardan birini egallaydi. Ulardan biri neft shlami (neft quyqasi) - neftning yuqori molekulali birikmalari, turli tarkibli mineral zarrachalar va qatlam suvidan iborat kolloid tizimdir. Bu neft qazib olish va neftni qayta ishlash sanoatining eng ko‘p tonnali chiqindisi bo‘lib, kimyoviy tarkibining murakkabligi bilan ajralib turadi va doimiy o‘zgarish jarayonida bo‘ladi [1,2].

Neft-kimyo yo‘nalishidagi ishlab chiqarishlarda neft-shlam chiqindilarining to‘planishi muqarrar. Xususan, neft va gaz quduqlarini qurishda, konlarni sanoat miqyosida ishlatishda, tarkibida neft mahsulotlari bo‘lgan oqova suvlarni tozalashda, rezervuarlar va boshqa uskunalarni tozalashda hosil bo‘ladigan neft quyqalarini utilizatsiya qilish muammosi mavjud. Odatda, shlamlar og‘ir neft qoldiqlari bo‘lib, tarkibida o‘rtacha (massa bo‘yicha) 10-56% neft mahsulotlari, 30-85% suv, 1,3-46% qattiq aralashmalar (loy, qum, mexanik aralashmalar) mavjud. Neft quyqalarini to‘plash maxsus ajratilgan maydonchalarda yoki bunkerlarda amalga oshiriladi, chiqindilar fizik-kimyoviy tarkibi bo‘yicha saralanmaydi. Shlam yig‘gichlarda atmosfera yog‘inlari hisobiga tabiiy namlik to‘planadi, mikroorganizmlar rivojlanadi, oksidlanish jarayonlari sodir bo‘ladi, ammo umumiy kislorod tanqisligida ko‘p miqdordagi tuzlar va neft mahsulotlari mavjudligi sababli bunday chiqindilarning o‘z-o‘zini tiklash jarayoni o‘nlab yillar davomida cho‘zilishi mumkin. Shu bilan birga, shlamlarning fizik-kimyoviy

ISSN 3030-3907

tarkibi vaqt o‘tishi bilan o‘zgaradi, shuningdek, neft mahsulotlarini saqlash rezervuarlaridan olingan shlamlar va tozalash inshootlarining shlamlari morfologiyasi bilan farqlanadi [3].

Soddalashtirilgan modelda neft quyqalari neft mahsulotlari, suv va mineral qo‘shimchalar (qum, loy, metall oksidlari) dan tashkil topgan ko‘p komponentli fizik-kimyoviy tizimlar (aralashmalar)dan iborat. Neft quyqalari ishlab chiqarish faoliyati jarayonida neft xom-ashyosini qazib olish, tashish va qayta ishlashda hosil bo‘ladi. Bir xil tabiatli neft quyqalari bo‘lishi mumkin emas, chunki ularning asosida turli xil hosil bo‘lish sharoitlari va turli xil saqlash sharoitlari yotadi [4].

Ko‘p miqdorda to‘plangan suyuq va pastasimon neft quyqalari bo‘lgan ochiq omborlarning mavjudligi atrof tabiiy muhit - tuproq, yer usti va yer osti suvlari, shuningdek, atmosfera havosining yengil fraksiyalarning bug‘lanishi hisobiga uglevodorodlar, vodorod sulfid va boshqa chiqindilar bilan doimiy ifloslanishiga olib keladi. Suv havzalariga to‘plagichlarda saqlanayotgan neft tarkibli chiqindilar, asosan, toshqin suvlari ta’sirida omborlar devorlarining yemirilishi, yomg‘ir va erigan qor suvlari bilan yuvilishi natijasida tushadi. Tuproqning neft va neft mahsulotlari bilan ifloslanishi tuproqning morfologik xususiyatlarida sezilarli o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Uning kapillyarlari tiqilib qolishi natijasida aeratsiya kuchli buziladi, anaerob sharoitlar yuzaga keladi, oksidlanish-qaytarilish potensiali buziladi [5].

Shuning uchun neft quyqasining tarkibiga qarab turli xil jarayonlar sodir bo‘lishi mumkin, ya’ni bu korroziyaga qarshi qoplama olishda qo‘shimcha aralashma sifatida ishlatilgan neft quyqasining xatti-harakatlariga ta’sir qilishi mumkin. Neft shlamini korroziyaga qarshi qoplama ishlab chiqarishda qo‘llashning ko‘plab usullari ma’lum bo‘lsa-da, ularning tabiati turlicha bo‘lganligi sababli korroziyaga qarshi qoplamaning xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish dolzarbligicha qolmoqda [6].

Suyultirilgan neft shlamini Xomashyoning tabiati va bitumdan talab qilinadigan xususiyatlarga qarab, tegishli oksidlanish haroratini tanlash lozim. Ko‘pchilik xomashyo turlari uchun iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi hisobga olinganda, bu harorat 250°C ga yaqin bo‘ladi. Sanoat sharoitida bitum olishda harorat oralig‘i 230 ÷ 270°C, havo sarfi 2,8 ÷ 5,5 $m^3/(m^2 \cdot min)$ni tashkil etadi, bunda kolonnaning diametri 3,2 ÷ 3,4 m va balandligi 14 ÷ 15 m bo‘ladi [7.].

Neft shlamlarining yig‘ilib qolishi va ularning noto‘g‘ri boshqarilishi sanoat chiqindilari orasida eng dolzarb ekologik muammolardan biri bo‘lib, ularning tarkibidagi zararli komponentlar atrof-muhitga va inson salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu tadqiqot ishining ilmiy yangiligi neft shlamlarining fizik-kimyoviy tarkibini chuqur o‘rganish, ularni qayta ishlash jarayonlarini

ISSN 3030-3907

optimallashtirish va sanoatda samarali qo‘llash imkoniyatlarini baholashga qaratilgan. Tadqiqot natijasida rektifikatsiya va deasfaltsizlantirish jarayonlari orqali olinadigan fraksiyalarning sifati va qo‘llanilish istiqbollari aniqlanib, optimal texnologik parametrlar belgilandi. Shuningdek, anti-korroziya materiallarini ishlab chiqarish uchun eng maqbul tarkibiy nisbatlar aniqlanib, ularning fizik-mexanik xususiyatlari yaxshilandi. Qayta ishlash jarayonlarining samaradorligini oshirish maqsadida aralashtirish tezligi, parrak soni kabi texnologik omillar tadqiq qilindi va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tadqiqot nafaqat ekologik xavfsizlikni ta’minlashga, balki iqtisodiy jihatdan foydali mahsulotlar ishlab chiqarish orqali sanoat chiqindilarining samarali boshqarilishiga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot neft shlamlarini qayta ishlash texnologiyalarining samaradorligini oshirish va ularni iqtisodiy jihatdan foydali mahsulotlarga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, ilmiy va sanoat amaliyotiga qo‘shiladigan hissasi katta. Qayta ishlangan neft shlamlaridan anti-korroziya materiallari va qurilish bitumi ishlab chiqarish bo‘yicha iqtisodiy jihatdan samarali va energiyatejamkor texnologiyasi yaratildi, Jarayonning rejim va konstruktiv parametrlari aniqlandi. Ushbu tadqiqot nafaqat neft sanoati chiqindilarining ekologik xavfsizligini ta’minlash, balki ularni iqtisodiy jihatdan samarali qayta ishlash orqali sanoat korxonalarining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Metod

Tadqiqot jarayonida xomashyo sifatida Farg’ona NQZ neft shlam saqlagichida saqlangan neft shlamidan foydalanildi. Erituvchi sifatida Farg’ona NQZ dan keltirilgan yengil nafta ishlatildi.

Erituvchi bilan aralashtirish jarayoni

Neft shlamining qovushqoqligi yuqori bo‘lgani sababli, uni suyultirish uchun erituvchi sifatida **30% yengil nafta** ishlatilgan. Tajribada xomashyolar nisbati quyidagicha bo‘ldi: neft shlami - 7 kg (70%), erituvchi - 3 kg (30%). Aralashma (7:3) nisbatda elektr aralashtirgichga solindi, u yerda suyultirgich va neft shlami 60 ayl/min tezlikda, 60 daqiqa davomida qizdirib aralashtirildi. Jarayon harorati 30÷60°C oralig‘ida o‘zgarib turdi, shundan so‘ng suyultirilgan fraksiya nasos (SHMGE QB60 markali) yordamida neft shlamini tozalashning birinchi va ikkinchi bosqichi uchun gidrotsiklonlarga uzatildi. Jarayon davomida hosil bo‘lgan neft shlami bunkerga tushirildi

Rektifikatsiya jarayoni

Tajribalarni boshlashdan oldin o‘lchangan miqdordagi xomashyo qizdirgichga yuklanib, tabiiy gaz gorelka yordamida yoqildi va qaynash darajasiga

ISSN 3030-3907

yetkazildi. Shu vaqtning o‘zida bug‘ qozoni-bug‘ o‘taqizdirgichda xuddi shu usulda bug‘latuvchi (bug‘latuvchi) agent - suv bug‘i yoki uglevodorod xomashyosi (gaz kondensati) bug‘lari ishlab chiqarildi.

300÷350 °C gacha qizdirilgan uglevodorod xomashyosi bug‘-suyuqlik holatida rektifikatsiya kolonnasining ta’minlash tarelkasiga, 250÷280 °C haroratli bug‘latuvchi agent esa ochiq usulda kolonna kubining tub qismiga uzatiladi. Zarur hollarda kubdagi xomashyoning ishchi harorati elektr isitgich yordamida ko‘tariladi.

Xomashyo rektifikatsiya kolonnasiga kirganda uning bir marta bug‘lanishi sodir bo‘ladi, natijada muvozanatli bug‘-suyuqlik aralashmasi hosil bo‘ladi. Bunda hosil bo‘lgan uglevodorod bug‘lari va bug‘latuvchi agent aralashmasining kubdan ko‘tarilayotgan oqimi kolonna bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilib, ketma-ket uning to‘ldiruvchi va mustahkamlovchi qismlarida joylashgan barcha beshta kontakt tarelkalari orqali o‘tadi. Kolonnaning har bir tarelkasi orqali to‘rtta nomuvozanat oqim o‘tadi: yuqorida joylashgan tarelkadan oqib tushayotgan suyuqlik; pastki tarelkadan kelayotgan bug‘lar; quyilish plastinasi bo‘ylab pastda joylashgan tarelkaga oqib tushayotgan suyuqlik va tarelkadagi suyuqlik tarkibidan bug‘lanib, yuqorida joylashgan tarelkaga ko‘tarilayotgan bug‘lar.

Jarayon davomida suyuqlik yuqoridagi tarelkadan quyish plastinasi bo‘ylab pastki tarelkaga oqib tushadi, bu yerda jarayonning harorat rejimi yuqoriroq bo‘ladi. Shuning uchun NK fraksiyalarining bir qismi suyuqlikdan bug‘lanib, bug‘lar oqimini hosil qiladi, natijada suyuqlik tarkibidagi bug‘larning konsentratsiyasi kamayadi. Boshqa tomondan, pastki tarelkadan ko‘tarilayotgan bug‘lar yuqoridagi tarelkaga tushadi, bu yerda harorat rejimi pastki tarelkadagiga qaraganda pastroq. Bunda bug‘ tarkibidagi VK fraksiyalarining bir qismi yuqori tarelkada kondensatsiyalanib, suyuq fazaga o‘tadi.

Yengil nafta bilan tozalangan suyultirilgan neft shlamini fraksiyalarga ajratish uchun u nasos yordamida rektifikatsiya kolonnasiga uzatildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari quyida -1,2va 3-rasimlarda keltirilgan

Deasfaltsizlantirish jarayoni

Rektifikatsiyada qolgan kub qoldiq tarkibidan Smolasimon-asfaltenli moddalarni ajratib olish uchun asfaltsizlantirish jarayoni o‘tkazildi. Deasfaltlashda 190°C da suyultirilgan propandan foydalanildi. Suyultirilgan propan 1:5 nisbatda aralashmaga kolonnaning pastki qismiga berildi. Aralashma intensiv ravishda yuqoriga ko‘tariluvchi propan oqimi bilan ishlov berildi, propanda eriydigan moylardan ozod qilindi. Propanda erimaydigan smola-asfalt moddalari kolonnaning pastki qismida to‘plangan. Asfaltsizlantirish jarayonidan so‘ng kompressor yordamida aralashmani havo bilan oksidlash jarayoni amalga oshirildi.

ISSN 3030-3907

Oksidlash 230°C haroratda, 2 atm. haroratda va jarayon davomiyligi 180 minutda olib borildi. Antikorrozion material olish maqsadida 2288 ml aralashma tayyorlandi, ya'ni Gf =2288 ml (turli xil suyultiruvchilar bilan suyultirilgan neft shlami). Oksidlanish jarayonining optimal davomiyligini aniqlash maqsadida 2 soatdan 6 soatgacha bo'lgan tajribalar seriyasi o'tkazildi. Oksidlanish jarayonida uglerod va vodorod atomlarining ajralishi sodir bo'ladi, natijada karbonat angidrid va suv hosil bo'ladi. Oksidlanish jarayoni quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi: parafin-sikloparafin, monotsikloaromatik uglevodorodlar kislorod ta'sirida bitsiklo va politsikloaromatik uglevodorodlarga aylanadi. Keyin smolalar hosil bo'ladi, smolalardan asfaltenlar, ulardan esa karbenlar va karboidlar hosil bo'ladi. Antikorrozion material olishda oksidlanish jarayonining davomiyligi olinadigan mahsulot miqdoriga ta'sir qiladi. Jarayonning oksidlanish vaqti ortishi bilan mahsulot unumi kamayadi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalari 4-rasmda.

Havodagi kislorodning asosiy qismi suv va karbonat angidrid hosil bo'lishiga, oz qismi esa tarkibida kislorod bo'lgan organik moddalar hosil bo'lishiga sarflanadi. Neft uglevodorodlari bir vaqtning o'zida ikki yo'nalishda oksidlanadi. Oksidlanish jarayonida bir paytning o'zida ko'plab reaksiyalar sodir bo'ladi: oksidlovchi degidrogenlanish, dealkillash, oksidlovchi polimerlanish, polikondensatsiyalanish, mahsulotlarni keyinchalik zichlash bilan krekinglash. Degidrogenlanish - vodorodning ajralishidir. Dealkillash - organik birikma molekulasidagi alkil guruhining vodorod atomiga almashinishidir. Alkil guruhi qaysi atom bilan bog'langanligiga qarab C, O, N va S dealkillashlar farqlanadi. Dealkillashga ba'zan organik radikallarning, masalan, gidroksi va sianalkillarning vodorod atomiga almashinishi ham kiradi .

Tajribalar davomida suyultirilgan neft shlamini haydash davomiyligining rektifikatsiya kolonnasining kub qismidagi haroratga ta'siri ham o'rganildi. Haydash jarayoni 200 daqiqa davom etdi, bunda haydash jarayonining maksimal harorati 320°C ga yetdi. Natijalar 5-rasmda keltirilgan.

Results and Discussion

Neft shlamidan antikorrozion materialini olish jarayoniga suyultiruvchidan tashqari apparatning rejim-konstruktiv parametrlari, ya'ni aralashtirgichli idishning geometrik o'lchamlari, aralashtirgich parraklarining soni, parraklarning aylanish chastotasi, parraklarning uzunligi va boshqalar ham ta'sir qiladi. Idishning diametri 0,4 m. jadvalda keltirilgan. aralashtirgich diametri d (D/d) nisbatining aralashtirish samaradorligiga ta'siri natijalari keltirilgan.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Aralashtirish samaradorligiga aralashtirgich konstruktiv parametrlarining ta’siri

№	Idish va aralashtirgich diametrlarining nisbati, m, (D/d)	Tezlik (ayl/min)	Lopast soni	Samaradorlik (%)
1	0,2 (2)	40	2	71
2	0,22 (1,8)	45	3	78
3	0,24 (1,6)	50	4	86
4	0,26 (1,54)	55	5	94
5	0,28 (1,43)	60	6	99,87
6	0,30 (0,12)	65	8	99,9

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, idish diametrining aralashtirgich diametriga nisbati 2,0 (D/d) va aylanishlar soni 40 ayl/min bo‘lganda aralashtirish samaradorligi 71% ni, parraklar soni esa 2 donani tashkil etadi. Parraklar diametri 1,8 (D/d) va aralashtirgichning aylanishlar soni 45 ayl/min nisbatida aralashtirish samaradorligi 78% ni tashkil etdi. Aralashtirgichning aylanish chastotasini 60 ayl/min gacha oshirish, aralashtirish samaradorligi 99,87%, parraklar soni 6 donani tashkil etdi. Natijada aralashtirgichli sig‘imning optimal konstruksiyasi aralashtirgich diametri (D/d) sig‘im diametriga nisbatan 1,43 ni tashkil etadi: aralashtirgichning aylanish chastotasi 60 ayl/min; parraklar soni - 6 dona; neft shlamini suyultirgich bilan aralashtirish samaradorligi - 99,87%.

Neft shlami tarkibidan mexanik aralashmalarni ajratish maqsadida tajribalar o‘tkazildi, neft shlamini suyultirish yengil nafta bilan amalga oshirildi. Natijalar quyidagi diagrammalarda keltirilgan.



1-rasm Neft shlamini suyultirishda yengil fraksiyalarning chiqishi

ISSN 3030-3907

Rasmdan. 3.5 dan ko‘rinib turibdiki, har bir tajriba uchun aralashtirish davomiyligi –1soat, erituvchilar nisbati - 30%. Neft shlamidagi suv miqdori yengil nafta bilan suyultirilganda - suv miqdori o‘rtacha - 25%, benzin fraksiyasi – 49.5%, kerosin fraksiyasi – 8.3%, dizel fraksiyasi – 5.7% ni tashkil etadi. Bundan tashqari, suyultirilgan neft shlamidan yengil fraksiyalarning chiqishi va olingan fraksiyaning turli haroratlarda va turli xil erituvchilarda fizik parametrlarining o‘zgarishini o‘rganish bo‘yicha bir qator tajribalar o‘tkazildi. Suyultirilgan neft shlamining umumiy massasi 10000 ml (30% li suyultirgich + 70% li neft shlami), aralashmaning zichligi esa 20 C da 990 kg/m3 ni tashkil etadi.

Rektifikatsion kolonna orqali amalga oshirilgan eksperimental tadqiqotlar davomida mahsulot ajralishining turli harorat va vaqt parametrlaridagi dinamikasi o‘rganildi. Ajratilgan fraksiyalarning asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari — xususan, zichlik va qovushqoqlik qiymatlari aniqlanib, ularning ajralish harorati va jarayon davomiyligiga nisbatan o‘zgarish qonuniyatlari tizimli tarzda tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari 2-jadvalda keltirilgan. 3.1.

2-jadval

Suyultirilgan neft shlamini yengil nafta bilan haydash natijalari (aralashmaning umumiy massasi - 10000 ml)

Jarayon davomiyligi, τ, min	Fraksiya hajmi *V*, ml	Zichlik, ρ, g/sm^3	Qovushqoqlik, μ, mm^2/s	Suyultirilgan shlamni haydashda olingan fraksiya
50	380	762	0,93	Yengil nafta
60	400			
70	70	778	1,06	
80	500			
90	800	780	1,17	
100	825			
110	450	787	1,26	Og‘ir nafta
120	355			
130	200	785	1,35	

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, umumiy aralashmadan Gf=10000 ml, rektifikatsion kolonnaga Gd=6269 ml fraksiya haydaldi, kub qoldig‘i miqdori Gw=2288 ml. Suyultirilgan neft shlamini haydashda haydalgan fraksiyalarning zichligi 762-785 g/sm3 oralig‘ida o‘zgardi, shuningdek qovushqoqlik 0,93 dan 1,35 mm2/s gacha oshdi. Shunday qilib, suyultirilgan neft shlamidan suv va

ISSN 3030-3907

mexanik aralashmalar bo‘lmaganda 32.69% gacha antikorrozion material olish mumkin.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, neft shlamlarini qayta ishlash orqali ekologik jihatdan xavfli chiqindilarni sanoat uchun foydali materiallarga aylantirish mumkin. Aralashtirish jarayoni samaradorligini oshirish uchun optimal texnologik parametrlar aniqlandi: aralashtirgich diametri (D/d) = 1,43, aylanish chastotasi 60 ayl/min, parraklar soni 6 dona, natijada 99,87% samaradorlikka erishildi. Rektifikatsiya jarayonida neft shlamidan ajratilgan fraksiyalarning zichligi 762–785 kg/m³, qovushqoqligi esa 0,93–1,35 mm²/s oralig‘ida o‘zgarishi aniqlandi. Oksidlanish jarayonining optimal harorati 320°C bo‘lib, ushbu haroratda tayyor mahsulot sifati yuqori bo‘lishi kuzatildi. Olingan anti-korroziya material sanoatda metall konstruktsiyalarni himoya qilish va yo‘l qurilishida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu natijalar neft shlamlarini qayta ishlash orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy jihatdan samarali texnologiyalarni rivojlantirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR RO’YHATI.

1. Chernix O.V. Issledovaniye vozmojnosti polucheniya dorojnogo bituma putem okisleniya nefteshlamov / O.V. Chernix, P.P. Purigin // Izvestiya Samarskogo nauchnogo sentra Rossiyskoy akademii nauk. – 2009. - T. 11, №1. – R. 233-236.

2. Djanaliyeva N.Sh. Vozdeystviye neftyanix zagryazneniy na prirodnie geosistemi / N.Sh. Djanaliyeva // Spirit time. – 2020. - №4 (28). - P. 23-28.

3. Minakov V. V. Novie texnologii ochistki ot neftyanix zagryazneniy / V. V. Minakov, S. M. Krivenko // Neftegazovie texnologii - 2002. - № 3. - S. 4-7.

4. Minnigalimov R.Z. Sovershenstvovaniye texnologii pererabotki neftyanix shlamov. / R.Z. Minnigalimov, R.A. Nafikova // Neftyanoye xozyaystvo. - 2008. - № 4. - S.54-67.

5. Kurochkin, A.K. Nefteshlami - resursnoye sire dlya proizvodstva svetlix motornix topliv i dorojnix bitumov / A.K. Kurochkin i dr. // Sfera neftegaz. - 2010. - №4. - S.72-75.

6. Imanbayev Ye.I. K voprosu primeneniya nefteshlamov pri modifikatsii bituma / Ye.I. Imanbayev, A.K. Serikbayeva, A.Ch. Busurmanova i dr. // Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya «Nauka i obrazovaniye: teoriya i praktika», 17.12.2020, g. Neftekamsk, Respublika Bashkortostan.

7. Imran Hafeez Performance Prediction of Hot Mix Asphalt from Asphalt Binders / Imran Hafeez, Mumtaz Ahmed Kamal, Muhammad Reza Ahadi, Qamar Shahzad, Nadia Bashir// Pak. J. Engg. & Appl. Sci. Vol. 11, July., 2012 - P. 104-113

ISSN 3030-3907

8. Xurmamatov A.M., Yusupova N.K., Xametov Z.M. Bitum ishlab chiqarish jarayonlari gidrodinamikasini o‘rganish natijalari// Nauchno-texnicheskiy jurnal FerPI-Fergana, 2021. №1. Tom 24.spes.vip. –S. 184-188.
9. Xurmamatov A.M., Yusupova N. K., Boymirzaev T. T. Intensification of the Bitumen Production Process // IJIAET. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology. Indonesia. e-ISSN: 2792-4025 | http://openaccessjournals.eu Volume: 1 Issue: 5. –P. 65-69.
10. Edwards, Y. Effects of commercial waxes on asphalt concrete mixtures performance at low and medium temperatures / Y. Edwards, Y. Tasdemir, U. Isacsson // Cold Regions Sciense and Technology Volume 45, 2006. - P. 31-41.
11. Magrib, A.B. Texnologi pererabotki nefteshlamov s polucheniyem tovarnix produktov / A.B. Magrib // Mir nefteproduktov. - 2003. - №3. - S.24-26.
12. Serikbayeva A.K. Issledovaniye ambarnoy nefti / A.K. Serikbayeva, A.N. Boranbayeva, A.M. Xismetullina // Internauka: elektron. nauchn. jurn. 2021. № 16(192). – chast 1. - S. 90-92.
13. Serikbayeva A.K. Issledovaniye fiziko-ximicheskix sostavov nefteshlama / A.K. Serikbayeva, Ye.I. Imanbayev, A.N. Boranbayeva // Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya «Kaspiy v XXI veke: regionalnie i globalnie problemi, sotrudnichestvo i bezopasnost», 25 dekabrya, 2020 - 235b.
14. Gun, R.B. Neftyanie bitumi / R.B. Gun. - M.: Ximiya, 1973. - 428s.

ISSN 3030-3907

NEFT SHLAMINING ORGANIK KOMPONENTLARGA BOYLIGI VA UNI ISTIQBOLLI XOM ASHYO SIFATIDA BAHOLASH

Xurmamatov Abdug‘affor Mirzabdullayevich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, texnika fanlari doktori, professor.
Jo‘raqulov Muslimbek Mahsud o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti tayanch doktaranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada neft shlami tarkibida mavjud bo‘lgan organik komponentlar, suv hamda mexanik aralashmalar miqdori aniqlanib, ularni tahlil qilish usullari yoritiladi. Shu munosabat bilan, dastlabki xomashyoning fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish maqsadida tegishli laboratoriya tadqiqotlari olib borildi. Tajriba ob’ekti sifatida Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodidan olingan neft shlami namunalari tanlab olindi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida ushbu shlam tarkibida 46,7% miqdorda neft mahsulotlari mavjudligi aniqlanib, ularning asosan og‘ir fraksiyali uglevodorod birikmalaridan tashkil topgani ma’lum bo‘ldi. Guruh tarkibi va fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirilgan tahlillar Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodining neft shlamlarini organik komponentlarni ajratib olish nuqtayi nazaridan istiqbolli xom ashyo sifatida tavsiflash imkonini berdi.

Kalit so‘zlar: neft mahsulotlari, neft quyqasi, mexanik aralashmalar, kolloid tizim.

Annotation: in this scientific article, the amount of organic components, water and mechanical impurities contained in the oil slurry is determined, and the methods of their analysis are covered. In this regard, appropriate laboratory studies were carried out with the aim of studying the physicochemical properties of the initial raw material. As an object of experiment, samples of oil sludge from the Fergana oil refinery were selected. The analysis carried out revealed that the slurry contained 46.7% petroleum products and was composed mainly of heavy fraction hydrocarbon compounds. Analysis carried out on the basis of group composition and physicochemical indicators made it possible to characterize the oil cuttings of the Fergana oil refinery as promising raw materials in terms of the point of separation of organic components.

Keywords: petroleum products, oil well, mechanical impurities, colloidal system.

Аннотация: В этой научной статье будет определено количество органических компонентов, воды и механических примесей, присутствующих в нефтешламах, и описаны методы их анализа. В связи с этим были проведены соответствующие лабораторные исследования с целью изучения физико-химических свойств исходного сырья. В качестве объекта

ISSN 3030-3907

эксперимента были отобраны пробы нефтешлака с Ферганского НПЗ. В результате проведенных анализов было установлено, что в этой шламовой смеси содержится 46,7% нефтепродуктов, которые состоят в основном из углеводородных соединений тяжелых фракций. Анализ, проведенный на основе группового состава и физико-химических показателей, позволил охарактеризовать нефтешламы Ферганского НПЗ как перспективное сырье с точки зрения выделения органических компонентов.

Ключевые слова: нефтепродукты, сажа, механические примеси, коллоидная система.

Kirish.

Neft sanoati qoldiq mahsulotlari, jumladan, neft shlami muammosi jahon miqyosida muhim ahamiyatga ega. Ushbu chiqindilarni qayta ishlash nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki ularning iqtisodiy qiymatini oshirish imkonini beradi. Neft shlamidan organik komponentlarni ajratib olish jarayonida undagi mexanik aralashmalar va suv miqdorini to‘g‘ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Neft zaxiralarining kamayishi sharoitida uglevodorod xomashyosining muqobil manbalarini izlash dolzarb bo‘lib qolmoqda. Xorijiy mamlakatlarda bu yo‘nalishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, turli xil organik chiqindilarni utilizatsiya qilish jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shu munosabat bilan, turli xil chiqindilarni samarali va tejamkor qayta ishlashni ta’minlaydigan texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega [1].

Zamonaviy neftni qayta ishlash zavodlari doimiy yirik ifloslantiruvchi manbalar bo‘lib, ular katta hajmdagi neft shlamlarining hosil bo‘lishiga olib keladi [2].

Neft shlamlari xom neftni rezervuarlarda tindirish, ishlab chiqarish korxonalarida neftni tuzsizlantirish va suvsizlantirish, sanoat kanalizatsiyasining oqova suvlarini tozalash jarayonlari natijasida, shuningdek, korxonalarga tabiiy suv havzalaridan keladigan yangi suvda (toshqin davrida 100 mg/l gacha) mexanik aralashmalar mavjudligi natijasida hosil bo‘ladi [3].

Neftni qayta ishlash zavodlarida oqimlarni qayta ishlash va aylanma suv ta’minotining yetarli darajada samarali bo‘lmagan tizimlari neftni qayta ishlash mahsulotlarining katta hajmlarini shlam to‘plagichlarga tashlashga olib keladi, ular ideal holatda neft tutqichlari tomonidan ushlab qolinishi kerak [4].

ISSN 3030-3907

1-jadval

Neft mahsulotlari bilan ifloslanish manbalari [5]

Ifloslanish turlari	Tarkibi	Manbalar
Bo‘g‘ozlar	Tarkibida suv miqdori 20% gacha bo‘lgan, mexanik aralashmalar miqdori 80% gacha bo‘lgan neft mahsuloti va tuproq aralashmasi.	Qazib olish va tayyorlash
To‘kilishlar quruqlikdagi Quvur transporti bilan	Tarkibida 20% gacha suv bo‘lgan tuproq va neft mahsuloti aralashmasi. Mexanik aralashmalar miqdori 80% dan kam emas.	Tashish
Dengiz transporti bilan	Tarkibida 95% gacha suv bo‘lgan suv-neft emulsiyasi, tuproq 30% gacha, qirg‘oq 80% gacha, neft mahsuloti 20% gacha ifloslanganda	
Rezervuarlarni tozalash	Zichligi >1 bo‘lgan og‘ir metallar, oltingugurtli birikmalarning yuqori konsentratsiyasiga ega bo‘lgan og‘ir yuqori qovushqoq neft mahsulotlari	Qayta ishlash
Tozalash inshootlari, (tindirgich hovuzlar va neft-shlam yig‘gichlar)	Tarkibida 20% gacha suv bo‘lgan tuproq va neft mahsuloti aralashmasi, miqdori mexanicheskix primesey ot 80% mass.	
Qayta ishlanmaydigan qoldiq (gudron, bitum)	Tarkibida 5% gacha mexanik aralashmalar (zang, metall qirindisi), 10% gacha emulsiyalangan suv bo‘lgan neft mahsuloti	

Tadqiqot ma’lumotlarining tahlili [6] shuni ko‘rsatadiki, neftni qayta ishlash zavodlarida har ming tonna neftni qayta ishlashda 1 dan 5 tonnagacha neft shlami hosil bo‘ladi. Neft chiqindilarini utilizatsiya qilishning mavjud texnologiyalari yetarlicha samarali bo‘lmaganligi sababli, korxonalar shlamlarni to‘plashga va shlam to‘plagichlar hajmini oshirishga majbur bo‘lmoqda.

Korxonalar bo‘yicha neft shlamlarining sifat ko‘rsatkichlari turlicha bo‘lsada, ularning komponent tarkibi quyidagi chegaralarda bo‘ladi: organik moddalar 10% dan 25% gacha, mexanik aralashmalar 5% dan 30% gacha, suv miqdori 50% dan 70% gacha massani tashkil etadi [7].

ISSN 3030-3907

Neft tarkibli chiqindilarni zararsizlantirish va qayta ishlash usullariga bag‘ishlangan xorijiy manbalarning patent-axborot tahlili o‘rganilgan materialni umumlashtirish va 2-jadvalda taqdim etish imkonini berdi [8;9,10, 11,12,13].
2-jadvalda ko‘rsatilgan neft shlamlarini utilizatsiya qilish usullaridan tashqari, hozirgi vaqtda jahon amaliyotida keng qo‘llanilmagan boshqa usullar ham mavjud. Bularga chiqindilarni ko‘mish, qotirish, suv bug‘i bilan haydash, shlamlarni o‘g‘it sifatida ishlatish va boshqa bir qancha usullar kiradi [14].

2-jadval

Neft tarkibli chiqindilarni utilizatsiya qilish va qayta ishlashning asosiy usullarining qiyosiy tavsiflari [15].

Usulning bir turi	**Apparatlar bilan jihozlash**	**O‘tkazish shartlari va zarur materiallar**	**Foydalanish cheklovlari**
Turli xil turdagi va konstruksiyali pechlarda yoqish	Pechlar: qaynovchi, mavhum qaynash qatlamli; shaxtali, barabanli, quvurli. Rotatsion forsunkalar.	t=800-1200 °C. Ortiqcha kislorod. Tutun gazlarini sovitish uchun suv.	Iqtisodiy samaradorligi past. Ekologik xavfsizlik emas. Uskunalarning ishlashiga qo‘yiladigan yuqori talablar.
Turli konstruksiyali quritgichlarda quritish	Quritgichlar: materialning statsionar qatlamli lentali va shaxtali; materialning yarim muallaq qatlamli barabanli. Havo puflagichlar.	t=80-100 °C	Katta issiqlik sarfi
Piroliz	Pechlar, plazma reaktorlari, plazma gorelkalari.	t=1200 °C	Yuqori moddiy va energetik xarajatlar.
Termik desorbsiya	Qizdirgich, qattiq zarrachalar separatorlari, gaz separatorlari	t = 480 - 595 "C. Termik bosqichda yonishni istisno qilish uchun ≪azotli yostiq≫. Bosqichlar:	Ba’zi metallar uglevodorodlar bilan birga bug‘lanadi. Katta kapital xarajatlar va yuqori energiya

ISSN 3030-3907

		cho‘kmani suvsizlantirish, suvdagi uglevodorodlarni bug‘latish, sovutish, kondensatsiya va qatlamlarga ajratish	sig‘imi, Texnologik rejim me’yorlarini bajarishga yuqori talablar.

Neft shlamlari o‘zining eng oddiy ko‘rinishida ko‘p komponentli, barqaror agregativ fizik-kimyoviy tizimlar bo‘lib, ularning tarkibida neft mahsulotlari, suv va mineral qo‘shimchalar (qum, gil, metall oksidlari va boshqalar) ustunlik qiladi. Rezervuarlarda neft shlamlari hosil bo‘lishining asosiy sababi neft mahsulotlarining namlik, havo kislorodi, mexanik aralashmalar, shuningdek rezervuar devorlari materiali bilan fizik-kimyoviy o‘zaro ta’siridir. Bu o‘zaro ta’sir jarayonida neft mahsulotlarining qisman oksidlanishi natijasida smolasimon moddalar hosil bo‘ladi va rezervuar devorlari zanglaydi. Bir vaqtning o‘zida neft mahsulotiga namlik va mexanik iflosliklarning kirishi suv-moy emulsiyalari va mineral dispersiyalarning shakllanishiga olib keladi. Har bir shlam o‘ziga xos atrof-muhit ta’siri natijasida va ma’lum vaqt oralig‘ida hosil bo‘lganligi sababli, tabiatda tarkibi va fizik-kimyoviy xususiyatlari bo‘yicha bir xil bo‘lgan shlamlar mavjud emas. Ko‘p sonli tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, rezervuar turidagi neft shlamlarida neft mahsulotlari, suv va mexanik aralashmalar (qum, gil, zang va h.k.) nisbati keng oraliqda o‘zgaradi: uglevodorodlar 5% dan 90% gacha, suv 1% dan 52% gacha, qattiq aralashmalar 0,8% dan 65% gacha. Tarkibning bunday katta o‘zgarishlari tufayli neft shlamlarining fizik-kimyoviy xarakteristikalari ham keng diapazonga ega bo‘ladi. Shlamlarning zichligi 830 dan 1700 kg/m3 gacha, qotish harorati -30°C dan +80°C gacha, chaqnash harorati esa 35°C dan 120°C gacha oraliqda bo‘ladi [16].

Usullar va materiallar

1. The importance of comprehensive regulatory framework. Fire codes and regulations are the cornerstone of occupant safety during fires in buildings. The proliferation of international standards such as IBC, NFPA 101, and various ISO provisions have provided a framework for assessing key safety aspects such as egress path widths, detection, and alarm systems [2][11]. However, the results of this study demonstrate the need to update and align these codes to address new architectural designs, hybrid building functions, and inclusive design principles. Many current documents still rely on simplified assumptions about population behavior and composition that do not reflect reality. Therefore, future regulations should incorporate empirical behavioral data, modeling results, and universal access requirements to foster a more flexible and adaptive regulatory environment.

2. Taking into account psychophysiological factors as a factor in saving lives. As the research shows, human behaviour in fire situations is not always

ISSN 3030-3907

logical. It is shaped by cognitive biases, emotional state, external stimuli and social dynamics [3][4]. Delays caused by the desire to obtain information, confusion or group imitation can significantly reduce the chances of survival, especially in conditions of limited visibility and blocked routes. The key finding is that architecture and safety professionals should take behavioural variability into account when developing evacuation procedures. Incorporating behavioural models into the design of alarms and navigation systems helps to reduce delays and improve response times [7]. At the same time, special attention should be paid to groups with special needs - the elderly, people with limited mobility and those who do not speak the language of instructions - through the principles of universal design and adaptive communication approaches.

3. The role of technology as a transformative element. Modern technologies are changing all stages of the evacuation process, from early detection and decision-making to training and subsequent analysis. IoT systems collect and analyze information about the condition of the building, the presence of smoke, and the movement of people, allowing for the formation of targeted evacuation instructions in real time [14]. BIM and digital twin technologies allow potential problems to be identified at the design stage, from bottlenecks to inaccessible areas [7]. Immersive tools such as VR and AR provide hands-on training, increase awareness, and prepare users to act under stress [8]. However, successful implementation of these solutions requires institutional support, cost-effectiveness assessment, and seamless integration with existing infrastructure.

4. The combination of regulation, behavioural knowledge and digital technologies creates a need for a new professional field that combines engineering design, behavioural analytics, data management and crisis response [15]. Fire safety training must meet these challenges, including training in behavioural analysis, systems integration and real-time risk management. Achieving this requires close collaboration between educational institutions, regulators and industry. Investment in continuous research, digital simulations and cross-sector exercises will provide a solid empirical basis for further improvement of evacuation approaches.

5. Effective fire evacuation is the result of pre-analysis, informed design, and adaptive solutions. As buildings become smarter and society’s safety expectations rise, fire evacuation strategies must evolve from rigid prescriptive systems to intelligent and context-aware systems. This transition is only possible with ongoing research, interdisciplinary collaboration, and evidence-based regulatory reform. Failure to adapt risks locking us into outdated approaches—with fatal

ISSN 3030-3907

consequences. Success will be measured not only by compliance, but also by the number of lives saved, panics averted, and tragedies avoided.

REFERENCES

[1] E. Ronchi and D. Nilsson, "Fire evacuation in high-rise buildings: A review of human behaviour and modelling research," *Fire Science Reviews*, vol. 2, no. 1, pp. 1–21, 2013. [Online]. Available: https://doi.org/10.1186/2193-0414-2-7

[2] National Fire Protection Association (NFPA), *NFPA 101: Life Safety Code*, Quincy, MA, USA, 2021.

[3] R. Lovreglio, D. Nilsson, and E. Ronchi, "An Evacuation Decision Model Based on Occupants' Perceptions and Behavioural Responses," *Fire Safety Journal*, vol. 93, pp. 110–123, 2017. [Online]. Available: https://doi.org/10.1016/j.firesaf.2017.07.001

[4] J. Proulx, "Movement of People: The Evacuation Timing," in *SFPE Handbook of Fire Protection Engineering*, 5th ed., M. J. Hurley, Ed. Quincy, MA: National Fire Protection Association, 2016, pp. 2152–2181.

[5] D. Kuligowski, R. Peacock, and B. Hoskins, "A Review of Building Evacuation Models," *National Institute of Standards and Technology (NIST)*, Gaithersburg, MD, Tech. Rep. NIST TN 1822, 2010.

[6] M. Tourchi Moghaddam, "IoT-based Emergency Evacuation Systems," *arXiv preprint*, arXiv:2005.13374, 2020. [Online]. Available:

[7] D. Nilsson and H. Frantzich, "Evacuation experiments in a smoke filled tunnel," *Fire Safety Journal*, vol. 44, no. 4, pp. 532–544, May 2009.

[8] E. Ronchi, R. Lovreglio, D. Nilsson, and D. Kuligowski, "Modelling and analysis of behavioural uncertainty in pre-evacuation decision-making," *Fire Safety Journal*, vol. 91, pp. 128–137, 2017. [Online]. Available: https://doi.org/10.1016/j.firesaf.2017.02.001

[9] N. Nasir et al., "Evacuation Planning Using BIM-Based Simulations: A Review," *Automation in Construction*, vol. 107, pp. 102934, 2019.

[10] Z. Feng, R. Lovreglio, and B. K. Patel, "Immersive Virtual Reality Serious Games for Evacuation Training and Research: A Systematic Literature Review," *Safety Science*, vol. 135, 2021. [Online]. Available: https://doi.org/10.1016/j.ssci.2020.105079

[11] International Code Council (ICC), *International Building Code (IBC)*, Washington, D.C., USA, 2021.

[12] NFPA, *NFPA 72: National Fire Alarm and Signaling Code*, Quincy, MA, USA, 2022.

[13] "Emergency evacuation," Wikipedia.

ISSN 3030-3907

[14] A. Mohammadiounotikandi, M. Hashemipour, and H. Fakharian, "A Fire Evacuation and Control System in Smart Buildings Based on the Internet of Things and a Hybrid Intelligent Algorithm," *Fire*, vol. 6, no. 4, 2023.
[15] Khodjakulov Mukhtorjon, & Rakhimov Dilmurad (2022). PROPOSALS FOR AMENDMENTS TO REGULATORY DOCUMENTS FOR HIGH-RISE BUILDINGS. Universum: технические науки, (6-6 (99)), 51-54.

ISSN 3030-3907

NATRIY POLISULFIDI VA 1,1,2-TRIXLORETAN ASOSIDA SINTEZ QILINGAN POLISULFID OLIGOMERINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARINI TADQIQ ETISH

Nazarov Sayfulla Ibodulloyevich
Buxoro davlat universiteti "Kimyo va neft-gaz texnologiyalari" kafedrasi professori
E-mail:s.i.nazarov@buxdu.uz.
Djalilov Abdulahat Turapovich
O'zR fanlar akademiyasi akademigi, kimyo fanlar doktor, professor Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot instituti direktori
Nurqulov Fayzulla Nurmo'minovich
Toshkent kimyo texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti "Organik sintez laboratoriyasi" mudiri, texnika fanlari doktori, professor
Bahonurova Mehribon Fozil qizi
Buxoro davlat universiteti, Kimyo ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy ishda natriy polisulfidi, epixlorgidrin va 1,1,2-trixloretan ishtirokida polisulfid oligomer sintez qilindi. Olingan mahsulotning strukturaviy xususiyatlar infraqizil (IQ) spektroskopiya yordamida aniqlanib, termik barqarorligi termogravimetrik (TG) va differensial termik analiz (DTA) usullari orqali o'rganildi. Tadqiqot natijalari sintez qilingan oligomer yuqori termik barqarorlik va oltingugurtga boy tarkibga ega ekanligini ko'rsatib, uni germetik sifatida amaliy qo'llash uchun istiqbolli material ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tiokol oligomer, polisulfid, epixlorgidrin, trixloretan, IQ-spektroskopiya, TG/DTA, termik barqarorlik, oltingugurtli polimer.

Аннотация: В данной научной работе синтезирован полисульфидный олигомер с участием полисульфида натрия, эпихлоргидрина и 1,1,2-трихлорэтана. Структурные характеристики полученного продукта определялись методом инфракрасной (ИК) спектроскопии, а термическая стабильность исследовалась с помощью термогравиметрического (ТГ) и дифференциального термического анализа (ДТА). Полученные результаты показывают, что синтезированный олигомер обладает высокой термической стабильностью и богатым содержанием серы, что подтверждает его перспективность для применения в качестве герметика.

Ключевые слова: тиоколовый олигомер, полисульфид, эпихлоргидрин, трихлорэтан, ИК-спектроскопия, ТГ/ДТА, термическая стабильность, серосодержащий полимер.

Abstract: In this scientific study, a polysulfide oligomer was synthesized using sodium polysulfide, epichlorohydrin, and 1,1,2-trichloroethane. The structural

ISSN 3030-3907

characteristics of the obtained product were determined by infrared (IR) spectroscopy, and its thermal stability was investigated using thermogravimetric (TG) and differential thermal analysis (DTA) methods. The results demonstrate that the synthesized oligomer exhibits high thermal stability and is rich in sulfur, confirming its potential as a promising material for use as a sealant.

Keywords: thiokol oligomer, polysulfide, epichlorohydrin, trichloroethane, IR spectroscopy, TG/DTA, thermal stability, sulfur-containing polymer.

Kirish.

Tiokol turkumiga mansub oligomerlar organik-oltingugurtli makromolekulalar bo‘lib, ularning tarkibida disulfid bog‘lari va polimer zanjiri davomida oltingugurt atomlari yuqori konsentratsiyada uchraydi. Bunday polimerlar past bug‘ o‘tkazuvchanlik, organik erituvchilarga, yonilg‘ilarga va kimyoviy moddalarga chidamlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular texnik germetiklar, yopishtiruvchi materiallar, anti-korroziya qoplamalari sifatida keng tatbiq etilmoqda [1–3]. Sintezda odatda natriy polisulfidi asosiy oltingugurt manbai sifatida ishlatiladi, u di- va trigalogensoderjashchiy (xlororganik) monomerlar bilan reaksiyaga kirishadi. Epixlorgidrin va 1,1,2-trixloretan — bu halogenoorganik komponentlar bo‘lib, ular struktura hosil qiluvchi guruhlar va ko‘p funksiyali bog‘lanish markazlariga ega. Mazkur reaktivlar ishtirokida yuqori bog‘langan, viskoelastik va sersulfurli oligomerlar hosil bo‘lishi kuzatiladi. Adabiyotlarda [4–8] epixlorgidrin bilan natriy polisulfid ishtirokidagi sintez usullari bayon etilgan. Mazkur ishda 1,1,2-trixloretan komponent sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, ushbu reaktivning yuqori reaktivligi va uchlamchi xlor atomi mavjudligi sintezlanayotgan oligomer zanjirlarining yanada tarmoqlangan, zich va oltingugurtga boy strukturaga ega bo‘lishiga olib keladi. Sintez jarayonida ionli suyuqliklar — xususan, tetraetilammoniy bromid qo‘llanishi mahsulotning dispersligini va kondensatsiya darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda sintez qilingan mahsulotning termik xossalari TG (termogravimetrik tahlil) va DTA (differensial termik analiz) usullari yordamida baholandi. Bu usullar infraqizil spektroskopiya bilan birgalikda mahsulotning strukturaviy va funksional xususiyatlarini kompleks aniqlash imkonini beradi. E’tiborlisi shundaki, ilgari chop etilgan adabiyotlarda bunday kombinatsiyalangan analiz yondashuvi kam qo‘llangan yoki etarlicha chuqur yoritilmagan [9–11].

Metodlar va materiallar. Yangi sintez qilingan polisulfid oligomerining tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari infraqizil (IQ) spektroskopiyasi yordamida tahlil qilindi. Bundan tashqari, oltingugurt saqlovchi PS-2 markali oligomerning termik xossalari termogravimetrik (TG) va differensial termik analiz (DTA) usullari yordamida o’rganildi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot obyekti – natriy polisulfidi, epixlorgidrin va 1,1,2-trixloretan asosida sintez qilingan polisulfid PS-2 markali tiokol oligomerlaridir.

IQ-spektroskopik tadqiqotlar IRAffinity-1S markali asbobda (Shimadzu, Yaponiya) amalga oshirildi. O‘lchovlar kukun usulida, 400–4000 sm^{-1} diapazon va 4 sm^{-1} ruxsat aniqligida olib borildi. Spektr tasvirlari Buxoro davlat universiteti ilmiy laboratoriyasida yozib olindi. Spektrlar tahlili avtomatik o‘lchov, grafik ko‘rsatish vositalari hamda foydalanuvchi kutubxonasi bilan jihozlangan dasturiy ta’minot orqali bajarildi.


Termik tahlil Shimadzu DTG-60 (Yaponiya) asbobida amalga oshirildi. Namuna massasi – 10,270 mg, kapsula – alyuminiy tigel. Atmosfera – argon (inert muhit), gaz oqim tezligi – 80 ml/min. Qizdirish tezligi – 10°C/min, harorat oralig‘i – 25°C dan 600°C gacha. Tahlil davomida namunadagi bosqichma-bosqich massa yo‘qotish, parchalanish boshlanish harorati, maksimal parchalanish tezligi va qoldiq moddaning issiqqa chidamliligi baholandi. Asbob KNO_3, In, Bi, Sn, Zn moddalar bilan kalibrlangan bo‘lib, bu natijalar aniqligini ta’minladi.

Olingan oligomerning zichligi GOST 15139–69, sulfgidril (–SH) guruhlarining miqdori esa GOST 12812–80 (“Suyuqlanadigan tiokollar”) bo‘yicha aniqlandi. Har bir o‘lchov ikki parallel aniqlash orqali olib borildi, natijada o‘rtacha qiymat qabul qilindi; tafovut 0,20% dan oshmasligi kerak (ishonchlilik darajasi 95%).

Natijalar va muhokama. Mazkur tadqiqot natriy polisulfidi va 1,1,2-trixloretan asosida sintez qilingan polisulfid oligomerining fizik-kimyoviy xossalarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlandi. Ma’lumki, zamonaviy polimer materiallar va kompozitlar uchun yuqori termik barqarorlik, kimyoviy inertlik va ekologik xavfsizlik muhim talablar hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, polimerlarni modifikatsiyalash va funktsional qo‘shimchalar bilan boyitilgan aralash polimer kompozitsiyalarini yaratish so‘nggi yillarda dolzarb ilmiy-texnik yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Tadqiqot davomida sintez qilingan polisulfid oligomer namunalarining asosiy fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari aniqlandi. Oligomerning zichligi GOST 15139–69 talablariga muvofiq aniqlanib, 1,36–1,38 g/sm^3 diapazonda ekanligi ma’lum bo‘ldi. Krioskopik usul yordamida oligomerning molekulyar massa 2100 g/mol ga tengli aniqlandi. Erish harorati va termik barqarorlik TG/DTA va DSC usullari yordamida baholandi. Oligomer 200°C gacha termik barqarorlikni namoyon qildi; 250°C da erish jarayoni, 350°C dan yuqori haroratda esa parchalanish boshlanganligi qayd etildi. Bunda, termogrammada aniq endotermik cho‘qqining mavjudligi, namunadagi fazaviy o‘zgarishlarga mos keladi.

ISSN 3030-3907

Infraqizil (IQ) spektroskopiyasi yordamida oligomerning strukturaviy xususiyatlari tahlil qilindi. Spektrda polisulfid zanjirlarga va S–S, S–C, C–Cl bog‘lariga xos intensiv so‘rilish chiziqlari aniqlangan bo‘lib, bu sintez natijasida kutilgan polisulfid struktura hosil bo‘lganini isbotlaydi. Olingan natijalar sintez qilingan oligomerning yuqori oltingugurt tarkibi, termik barqarorligi va yuqori yopishqoqligi bilan ajralib turishini ko‘rsatadi. Ushbu xususiyatlar uni turli texnik sohalarda, xususan, germetik, korroziyaga chidamli qoplama va maxsus kimyoviy inert material sifatida qo‘llash uchun istiqbolli ekanini ko‘rsatadi. Oligomer molekulasining funksional guruh tarkibini aniqlash maqsadida PS-2 namunasi infraqizil (IQ) spektroskopiya usuli yordamida tahlil qilindi. Spektral tahlil natijalari asosida PS-2 oligomerining tarkibida oltingugurtli zanjir fragmentlari (S–S va C–S bog‘lari) mavjudligi aniqlandi. Ayniqsa, 500–700 sm^{-1} chastotali diapazonda ushbu guruhlarga tegishli intensiv yutilish chiziqlari qayd etildi, bu esa polisulfid strukturaning mavjudligini tasdiqlaydi.




1-rasm. Sintez qilingan PS-2 tiokol oligomerning IQ-spektri.

ISSN 3030-3907

IQ spektr tahlili Shimadzu IR-spektrometri yordamida 4000–400 sm^{-1} diapazonda olib borildi. Tadqiq etilgan PS-2 namunasi suyuq tiokol polimer birikmasi bo‘lib, spektrdagi asosiy yutilish chiziqlari uning tarkibiy guruhlarini aniqlash imkonini berdi. 3332.99 sm^{-1} yutilish chizig‘i gidroksil (–OH) guruhining tebranishlariga mos keladi. 1404.18 sm^{-1} dagi yutilish chizig‘i oligomer molekulasida $–CH_2$- metilen guruhlari mavjudligini ko’rsatadi. 1298.09 sm^{-1} va 1192.01 sm^{-1} yutilish chiziqlari C–O–C va C–S–C bog‘larining mavjudligini tasdiqlaydi. 1028.06 sm^{-1} sohasida kuzatilgan yutilish S–O–C guruhlariga tegishli bo‘lib, bu funksional guruhlar polimer strukturasida faol ta’sirlovchi markaz sifatida ishtirok etadi. 673.16 sm^{-1}, 596.00 sm^{-1} va 545.85 sm^{-1} sohalarda kuzatilgan yutilish chiziqlar C–S, S–S bog‘lariga mos keladi. Bu chiziqlarPS-2 namunasi tarkibida polisulfid zanjirlari mavjudligini bevosita tasdiqlaydi.

Sintez qilingan PS-2 oligomerining termik barqarorligini aniqlash maqsadida termogravimetrik analiz (TGA) va differensial termik analiz (DTA) usullari qo‘llanildi. 2-rasmda keltirilgan TGA-DTA grafigi asosida moddaning haroratga nisbatan uch bosqichli parchalanish xatti-harakati aniqlangan bo‘lib, har bir bosqichdagi massa yo‘qotilishi va issiqlik ajralishi aniq qayd etilgan.



2-rasm. Sintez qilingan PS-2 tiokol oligomerning termogravimetrik (TGA) va differensial termo analizi (DTA).

ISSN 3030-3907

2-rasmda keltirilgan TGA–DTA analiz grafigi asosida moddaning harorat oshishi bilan yuz beruvchi uch bosqichli termik parchalanish jarayoni aniqlanib, har bir bosqichga xos massa yo‘qotilishi va issiqlik o‘zgarishlari qayd etildi. Birinchi termik effekt 69,8–209,2 °C harorat oralig‘ida kuzatildi. Bu bosqichda DTA chizig‘ida 180,14 °C da aniq ekzotermik cho‘qqi kuzatiladi. Bu harorat oralig‘ida namunadagi fizik jarayonlar, xususan, adsorbsiyalangan suv va past molekulali uchuvchan komponentlarning bug‘lanishi, shuningdek, ba’zi reaktiv guruhlararo bog‘lanishlar sodir bo‘lgan. TGA grafigi bo‘yicha umumiy massa yo‘qotilishi 2,345 mg yoki 22,83% ni tashkil etdi. Ushbu bosqich moddaning yuzaki barqarorligini aks ettiradi. Ikkinchi bosqich 209,2–352,9 °C oralig‘ida sodir bo‘lib, bunda DTA grafigida 267,69 °C da kuchli ekzotermik cho‘qqi aniqlangan. Bu bosqich moddaning asosiy termik parchalanish zonasidir. Ushbu bosqichda polimer molekulasidagi S–S, C–S va C–C kovalent bog‘larning uzilishi, tiokol segmentlarining termik degradatsiyasi hamda oltingugurtli guruhlarning ajralib chiqishi sodir bo‘ladi. TGA ma’lumotlariga ko‘ra, bu bosqichda 5,270 mg massa yo‘qotilgan bo‘lib, bu namunadagi umumiy massaning 51,32% ini tashkil etadi. DTA grafigida qayd etilganidek, ushbu parchalanish reaksiyasi eng yuqori ekzotermik effekt bilan kechgan bo‘lib, u moddaning energetik jihatdan eng faol termik zonasini ifodalaydi.Uchinchi bosqich esa 352,9–601,8 °C haroratda sodir bo‘lib, DTA chizig‘ida issiqlik yutilishi va barqarorlik zonasi kuzatilgan. Bu bosqichda moddada faqat qolgan inert komponentlarning yoki karbonli qoldiqlarning sekin parchalanishi yuz beradi. TGA bo‘yicha bu bosqichda 0,703 mg yoki 6,84% massa yo‘qotilgan. Shuningdek, bu harorat oralig‘ida DTA signali ijobiyga o‘tib, ehtimoliy oksidlanish yoki fazaviy o‘zgarishlar sodir bo‘lganini ko‘rsatadi. Tahlil qilingan namunadagi umumiy massa yo‘qotilishi 8,31 mg ni tashkil etib, dastlabki 10,267 mg massaning ~80,93% i parchalangan. Qolgan 19,07% massa – bu oksidlanmagan, termik jihatdan eng barqaror qoldiq modda sifatida baholanadi. PS-2 namunasi uchun olib borilgan differensial termik analiz (DTA) natijalariga ko‘ra, ikki bosqichli ekzotermik parchalanish jarayonining umumiy entalpiyasi quyidagicha aniqlangan: $\Delta Q = -276.84$ J/g. Turli haroratlarda moddaning termik parchalanish natijalarining tahlili 2-jadvalda berilgan.

2-jadval

PS-2 oligomerining TGA va DTA egri chizig‘i natijalari tahlili

Harorat (°C)	Qolgan massa (mg)	Yo'qotilgan massa (mg)	Yo'qotilgan massa (%)	DTA (μV)
100	10.147	0.12	1.173	-1.13
150	9.685	0.582	5.669	-2.639

ISSN 3030-3907

200	8.069	2.199	21.415	-0.767
250	7.038	3.23	31.457	-2.048
300	3.337	6.93	67.496	-2.64
350	2.672	7.595	73.975	-0.869
400	2.489	7.778	75.758	-0.237
450	2.359	7.909	77.027	1.167
500	2.242	8.026	78.167	2.649
550	2.113	8.154	79.418	4.227
600	1.958	8.31	80.934	6.455

PS-2 oligomerining termik barqarorligi 200–250°C gacha yuqori bo‘lib, 250°C dan yuqori haroratlarda asosiy termik parchalanish jarayoni boshlanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida natriy polisulfidi, epixlorgidrin va 1,1,2-trixloretan ishtirokida yuqori oltingugurtli, viskoelastik xossaga ega bo‘lgan tiokol oligomeri muvaffaqiyatli sintez qilindi. Olingan mahsulot yuqori yopishqoqlik, termik barqarorlik va past bug‘ o‘tkazuvchanlik kabi muhim fizik-kimyoviy xossalarga ega bo‘lib, uni texnik maqsadlarda — xususan, germetiklar, himoya qoplamalar, dielektrik izolyatorlar va kimyoviy inert barer materiallari sifatida samarali qo‘llash imkonini beradi. Infraqizil (IQ) spektroskopiya, termogravimetrik (TGA) va differensial termik analiz (DTA) usullari orqali sintez qilingan oligomerning funksional tarkibi va strukturaviy xususiyatlari chuqur o‘rganildi. Spektral va termik tahlillar asosida oligomer tarkibida oltingugurtli zanjirlar (S–S, C–S), funksional guruhlar va ularning haroratga bog‘liq parchalanish bosqichlari aniqlandi. Olingan natijalar moddaning struktura va xossalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni ilmiy asosda tasdiqladi. Taklif etilgan sintez texnologiyasi ekologik va texnologik jihatdan samarali bo‘lib, xlororganik chiqindilarni qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar olish imkonini beradi. Ushbu yondashuv sanoat chiqindilarini ikkilamchi xomashyo sifatida qayta ishlash hamda resurslarni tejovchi texnologiyalarni rivojlantirishda istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Kalaee, Mohammadreza; Abdouss, Majid; Shakiba, Mohammadreza (2020). Synthesis and characterization of aliphatic polysulfides by interfacial polycondensation of sodium tetrasulfide with dichloroalkanes in the presence of quaternary onium salts. Journal of Sulfur Chemistry, 1–11. doi:10.1080/17415993.2020.1787413

ISSN 3030-3907

2. Catala, J. M.; Clauss, M. (1991). Anionic synthesis of polysulfide oligomers from elemental sulfur and methacrylic esters. Macromolecules, 24(10), 2663–2667. doi:10.1021/ma00010a003
3. J. M. Pujol; J. Brossas; J. M. Catala (1991). Synthesis of telechelic dithiol oligomers containing sulfur atoms-moisture barrier properties. , 42(12), 3091–3100. doi:10.1002/app.1991.070421203
4. Jean-Marie Catala; Jean-Marc Pujol; Jean Brossas (1987). New synthesis of polysulfide polymers: Kinetic study. , 188(11), 2517–2522. doi:10.1002/macp.1987.021881103
5. Usmani, A. M. (1982). Chemistry and Technology of Polysulfide Sealants. Polymer-Plastics Technology and Engineering, 19(2), 165–199. doi:10.1080/03602558208067730
6. Kalaee, Mohammadreza; Abdouss, Majid; Shakiba, Mohammadreza (2020). Synthesis and characterization of aliphatic polysulfides by interfacial polycondensation of sodium tetrasulfide with dichloroalkanes in the presence of quaternary onium salts. Journal of Sulfur Chemistry, (), 1–11. doi:10.1080/17415993.2020.1787413
7. Стойков, В.Н. Полисульфидные полимеры и герметики. — М.: Химия, 2003. — 256 с
8. Кочергин Ю.С., Григоренко М.А. Эпоксидно-тиоколовые смеси: свойства и применение // Вопросы химии и химической технологии. — 2011. — № 6. — С. 83–85.
9. Lafont U., van der Zwaag S. Self-healing ability of polysulfide thermosets // ACS Applied Materials. — 2012. — Vol. 4. — P. 6280–6288.
10. Нормуродов Б.А., Тозхиев П.З. Высоконаполненные тиоколовые олигомеры для композитов // Химия и технология. — 2018. — С. 224.1–224.4.
11. Нормуродов Б.А., Тураев Х.Х., Джалилов А.Т., Нуркулов Ф.Н., Расулова С.М. Изучение физико-химических свойств полученного полисульфидного олигомера на основе тетрасульфида натрия и фосфата аммония // Universum: технические науки. — 2018. — № 7(52). — С. 34–37.

ISSN 3030-3907

ZARARLI OMILLARNING TURLARI VA KORXONA ISHCHILARIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Ulkanova Saidaxon Xayrullo qizi
Andijon davlat texnika institute Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi yo'nalishi 1-kurs magistri
E-mail: saidaulkanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarda ishchilarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mehnat unumdorligini oshirish zarurati hamda fizik, kimyoviy va biologik zararli omillar turlari aniqlanib, ularning inson organizmiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, zararli omillarni kamaytirish uchun muayyan himoya vositalaridan foydalanish va mehnat muhofazasiga oid chora-tadbirlarni kuchaytirishga erishilgan.

Kalit so'zlar: zararli omil, mehnat, korxona, ta'sir, sog'lik, shovqin.

Аннотация. В данной статье определена необходимость охраны здоровья и повышения производительности труда работников на предприятиях, а также виды вредных физических, химических и биологических факторов, проанализировано их влияние на организм человека. Также достигнуто использование определенных средств защиты и усиление мер по охране труда для снижения вредных факторов.

Ключевые слова: вредный фактор, труд, предприятие, воздействие, здоровье, шум.

Abstract. In this article, the need to protect the health of workers and increase labor productivity at enterprises, as well as the types of physical, chemical, and biological harmful factors, are identified, and their impact on the human body is analyzed. Also, to reduce harmful factors, the use of certain protective equipment and strengthening of labor protection measures have been achieved.

Keywords: harmful factor, labor, enterprise, impact, health, noise.

Kirish

Bugungi kunda ishlab chiqarish jarayonlarining jadal rivojlanishi natijasida inson mehnati faol ishtirok etadigan korxonalarda mehnat sharoitlariga nisbatan talablar ortib bormoqda. Ayniqsa, texnologik jarayonlar murakkablashgani sari, ishlab chiqarish muhitida uchraydigan zararli omillar soni va turi ham ortmoqda [1]. Korxona ishchilari doimiy ravishda turli fizik, kimyoviy, biologik va psixologik omillarning ta'siriga duch kelmoqda. Bu omillar, o'z navbatida, inson salomatligi, mehnat qobiliyati va umuman, korxona samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [2].

Zararli omillar deganda ishlab chiqarish muhitida paydo bo'ladigan va mehnatkashlarning sog'lig'i uchun xavf tug'diradigan omillar tushuniladi. Ular

ISSN 3030-3907

organizmga turli darajada qisqa muddatli noqulayliklardan tortib uzoq muddatli kasallik va mehnat qobiliyatining pasayishiga qadar ta’sir ko‘rsatadi. Ishlab chiqarishdagi zararli omillar asosan fizik (shovqin, vibratsiya, ionlovchi va ionlovchi bo‘lmagan nurlanishlar, yuqori yoki past haroratlar), kimyoviy (zaharli gazlar, changlar, toksik moddalar), biologik (mikroorganizmlar, zamburug‘lar) va psixologik (stress, charchoq) omillar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi [3].

Zamonaviy iqtisodiyotda inson kapitali eng qimmatli resurs hisoblanadi. Ishchilarning sog‘lom va xavfsiz mehnat sharoitlarida faoliyat olib borishi korxonaning uzluksiz va barqaror ishlashini ta'minlaydi. Aksincha, zararli omillarning mavjudligi mehnat unumdorligini pasaytiradi, tibbiy xarajatlarni oshiradi, baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarining ko‘payishiga olib keladi. Xalqaro mehnat tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili millionlab ishchilar ishlab chiqarishdagi zararli omillar sababli sog‘lig‘idan ayriladi yoki mehnatga layoqatsiz holga keladi. Shu bois, zararli omillarni tizimli ravishda o‘rganish, baholash va bartaraf etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir [4].

Mavzuga bag‘ishlangan ushbu tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalaridagi zararli omillar tasnifi, ularning xususiyatlari va ishchilarga ta’sir mexanizmi batafsil o‘rganildi. Avvalo, har bir zararli omilning kelib chiqish manbai, ta’sir kuchi va davomiyligi aniqlab olindi. Masalan, fizik zararli omillar ichida shovqin va vibratsiya eng keng tarqalgan bo‘lib, ular asab tizimining zo‘riqishiga, eshitish qobiliyatining pasayishiga va umumiy charchoqqa olib keladi. Kimyoviy zararli omillar esa ko‘pincha nafas yo‘llari, teri va ichki a’zolarga ta’sir ko‘rsatib, zaharlanish, allergik reaksiyalar va surunkali kasalliklarni keltirib chiqaradi. Biologik omillar esa asosan sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligi sohalarida faoliyat yuritayotgan ishchilar uchun jiddiy xavf tug‘diradi [5].

Tadqiqot davomida korxonalar mehnat sharoitlarining o‘ziga xos xususiyatlari ham hisobga olindi. Ma’lum bo‘ldiki, turli tarmoqlarda zararli omillar tarkibi va ta’sir darajasi sezilarli farq qiladi. Masalan, kimyo sanoatida asosan toksik moddalar bilan bog‘liq zararli omillar ustun bo‘lsa, metallurgiya sanoatida yuqori harorat va og‘ir mehnat sharoitlari asosiy xavf omillari sifatida ajralib turadi. Shu sababli, har bir soha va korxona uchun mos ravishda individual mehnat muhofazasi va xavfsizlik strategiyalari ishlab chiqilishi zarur. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishlab chiqarishdagi zararli omillarni bartaraf etish va ularning ishchilarga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Birinchi navbatda, texnologik jarayonlarni modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish va zararli jarayonlarni cheklash zarur. Shuningdek, ishchilarni individual himoya vositalari bilan ta’minlash, mehnat sharoitlarini muntazam monitoring qilish va profilaktik tibbiy ko‘riklarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi

ISSN 3030-3907

chora-tadbirlar nafaqat ishchilar salomatligini saqlash, balki korxona iqtisodiy samaradorligini ham oshirish imkonini beradi [6].

METODOLOGIYA

Zararli omillarning turlari va korxona ishchilarga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab o‘zbek va xalqaro olimlar tomonidan muhim ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu tadqiqotlar mehnat sharoitlarini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi xavf omillarini kamaytirish va ishchilarning salomatligini saqlashga qaratilgan. Ko‘plab o‘zbekiston olimlari mehnat muhofazasi va ishlab chiqarish muhitidagi zararli omillarni tizimli ravishda o‘rganishgan. “Mehnat sharoitlari va zararli omillar” nomli tadqiqotida fizik, kimyoviy va biologik zararli omillarni aniq tasniflab, ularning ishchilarga uzoq muddatli ta’sirini ilmiy asosda ko‘rsatib bergan. U shuningdek, korxonalarda shovqin va vibratsiya darajasini nazorat qilish usullarini taklif qilgan [7]. Kimyoviy omillar — ayniqsa sanoat changlari va gazlar — ishchilarda nafas yo‘llari kasalliklarini keltirib chiqarishi ehtimolini ko‘rsatgan. Uning fikricha, ishlab chiqarish joylarida doimiy ventilyatsiya tizimini tashkil etish va individual himoya vositalaridan foydalanish zarur. Zararli omillar — bakteriyalar va viruslar — qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati xodimlari uchun qanday xavf tug‘dirishini o‘rgangan. U biologik xavflarni kamaytirish uchun gigiyenik talablarni kuchaytirish va rejalashtirilgan tibbiy ko‘riklarni joriy etish tarafdori [5-7].

Demak, zararli omillarni erta aniqlash va bartaraf etish bilan katta baxtsiz hodisalarning oldini olish mumkin. Ishlab chiqarish xavfsizligini boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlarni rivojlantirgan. Uning "Behavior-Based Safety" (Xulq-atvor asosidagi xavfsizlik) konsepsiyasi zararli omillar va ishchilarning noto‘g‘ri xatti-harakatlari o‘rtasidagi aloqani o‘rganishga asoslangan. U xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va rag‘batlantirish orqali zararli omillar ta’sirini kamaytirishni taklif qiladi [6]. J. Reason esa "Swiss Cheese Model" (Shveytsariya pishlog‘i modeli) orqali ishlab chiqarishdagi xavf omillarini ko‘p qatlamli himoya choralari bilan boshqarish zarurligini asoslagan. Unga ko‘ra, har bir qatlamning o‘z zaifligi mavjud bo‘lsa-da, ko‘p qatlamli yondashuv umumiy xavfni sezilarli kamaytiradi [7].

Bundan tashqari, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) tomonidan e’lon qilingan tahlil va ma’lumotlar ham mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi. Ular global miqyosda zararli omillar tufayli yuzaga keladigan sog‘liq muammolari va iqtisodiy zararlarni ko‘rsatib, har bir korxonada oldini olish va nazorat qilish tizimlarini joriy etish zarurligini ta’kidlaydilar. Umuman olganda, o‘zbek va xalqaro tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlar zararli omillarni aniqlash, tahlil qilish va ularning oldini olish

ISSN 3030-3907

bo‘yicha samarali yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Ularning tavsiyalari zamonaviy korxonalarda mehnat muhofazasi tizimlarini rivojlantirish va ishchilar salomatligini saqlash uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda [8].

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot doirasida ishlab chiqarish korxonalarida uchraydigan zararli omillar turlari va ularning ishchilarga ta’sir darajasi keng qamrovli o‘rganildi. Olingan natijalar zararli omillarning ishchilarning jismoniy va ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir qiluvchi omil ekanligini ko‘rsatdi.

Zararli omillar turlari va ularning uchrash chastotasi. O‘tkazilgan kuzatuvlar natijasida korxonalardagi zararli omillar quyidagicha guruhlashtirildi.

1-jadval

Zararli omillar turi	Uchrash chastotasi (%)	Asosiy ta’sir shakli
Fizik omillar	35%	Eshitish, ko‘rish, termik zararlanishlar
Kimyoviy omillar	28%	Nafas yo‘llari, teri kasalliklari
Biologik omillar	17%	Infeksion kasalliklar, allergiya
Psixologik omillar	20%	Stress, ruhiy charchoq

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, korxonalarda fizik va kimyoviy omillar eng ko‘p uchraydi. Ayniqsa, og‘ir sanoat va kimyo sanoati sohalarida ishchilarning kasbiy kasalliklari ushbu omillar bilan bevosita bog‘liq.

Zararli omillar ta’sirining salomatlikka ta’siri.

Tadqiqot davomida 250 nafar korxona ishchilari o‘rtasida so‘rovnoma va tibbiy ko‘rik o‘tkazildi. Ularning salomatlik holati va zararli omillar bilan bevosita bog‘liq simptomlar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Aniqlangan simptomlar	Ishchilar ulushi (%)	Bog‘liq zararli omil turi
Eshitish qobiliyatining pasayishi	22%	Shovqin (fizik)
Nafas olishda qiyinchilik	18%	Kimyoviy chang va gazlar
Terida allergik reaksiyalar	12%	Biologik va kimyoviy omillar
Ruhiy charchoq va stress	26%	Psixologik omillar
Umumiy holsizlik	22%	Kombinatsiyalashgan ta’sir

So‘rovnoma va tibbiy ko‘riklar natijalariga ko‘ra, ishchilarning deyarli 60% dan ortig‘ida zararli omillar bilan bog‘liq kamida bitta sog‘liq muammosi aniqlangan.

ISSN 3030-3907

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqarish muhitida zararli omillar ta’sirining intensivligi korxona faoliyat turiga, texnologik jarayonlarning zamonaviyligi va ishchilarning himoya darajasiga bog‘liq. Ko‘plab korxonalarda texnik vositalar eskirganligi sababli shovqin va vibratsiya darajasi me'yorlardan yuqori ekani aniqlangan. Shu bilan birga, korxona rahbariyatining mehnat muhofazasi va xavfsizlikka yetarlicha e’tibor bermasligi, xodimlarning individual himoya vositalaridan muntazam foydalanmasligi salbiy holatlarning ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlangan muhim holatlardan biri zararli omillarning kombinatsiyalangan ta’siridir. Ya’ni, ishchi bir vaqtning o‘zida bir nechta zararli omil — masalan, yuqori shovqin, kimyoviy gaz va ruhiy stress ta’siriga duchor bo‘lmoqda. Bu esa sog‘liq uchun xavfni bir necha barobar oshiradi. Alohida ta’kidlash joizki, xalqaro mehnat standartlariga ko‘ra, zararli omillarni erta aniqlash va nazorat qilish, korxona darajasida sog‘lom mehnat muhitini yaratish orqali nafaqat ishchilarning salomatligini saqlash, balki korxona ishlab chiqarish samaradorligini ham oshirish mumkin.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- Yil davomida korxonalarda zararli omillar nazoratsiz qolganda, kasb kasalliklari ko‘rsatkichi 1,8 barobar ortadi.
- Zararli omillarni nazorat qilish va muhofaza vositalaridan muntazam foydalanish esa kasalliklarni 45% kamaytirishi mumkin.
- Korxonalarda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish jarayoni ishchilarning ijobiy psixologik holatini ta’minlaydi va ularning mehnat unumdorligini 25% oshiradi.

Olingan natijalarga asoslanib quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik modernizatsiyani amalga oshirish va avtomatlashtirish orqali zararli omillarni kamaytirish.
- Shovqin, vibratsiya va kimyoviy moddalar ta’sirini kamaytirish uchun zamonaviy ventilyatsiya va filtratsiya tizimlarini joriy etish.
- Xodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan muntazam ta’minlash va ularni to‘g‘ri foydalanish madaniyatini shakllantirish.
- Korxona darajasida mehnat muhofazasi bo‘yicha doimiy o‘quv-seminarlarini tashkil etish va ishchilarni xavfsizlik qoidalariga doimo o‘rgatish.
- Tibbiy-profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish va sog‘liqni muntazam monitoring qilish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zararli omillarni tizimli ravishda aniqlash, ularning salbiy ta’sirini kamaytirish va mehnat sharoitlarini yaxshilash orqali korxonalarda

ISSN 3030-3907

sog‘lom va xavfsiz ishlab chiqarish muhiti yaratish mumkin. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, bu yo‘nalishda olib boriladigan har qanday faoliyat ishchilarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlashda hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, korxona ishchilari mehnat faoliyati davomida turli zararli omillarga duch keladi va bu omillar ularning sog‘lig‘iga hamda mehnat unumdorligiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zararli omillar asosan fizik, kimyoviy, biologik va psixologik turlarga ajralib, har birining o‘ziga xos salbiy ta’sir mexanizmi mavjud. Tadqiqot davomida aniqlangan natijalar zararli omillarning ishlab chiqarish jarayonlarida juda keng tarqalganini va ularning ko‘pincha birgalikda — kompleks holda — ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Ayniqsa, shovqin, vibratsiya, toksik chang va gazlar, shuningdek, psixologik stress asosiy zararli omillar sifatida ajralib chiqdi.

Ishchilarning salomatlik holatini baholash natijalari shuni ko‘rsatdiki, ularning katta qismi (taxminan 60%) bir yoki bir nechta zararli omillar ta’siridan aziyat chekmoqda. Bu esa kasb kasalliklari va umumiy ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi xavfini oshirmoqda.

Zararli omillarni kamaytirish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik modernizatsiya, shaxsiy himoya vositalaridan keng foydalanish, ishchilarni doimiy ravishda o‘qitish va mehnat sharoitlarini monitoring qilish zarurligi aniqlandi. Shuningdek, mehnat muhofazasi madaniyatini shakllantirish va korxona ichki siyosatini xavfsizlikni birinchi o‘ringa qo‘ygan tarzda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, korxonalarda zararli omillarni tizimli boshqarish:

- ishchilar salomatligini muhofaza qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarining barqarorligini oshirish;
- iqtisodiy zararlarni kamaytirish;
- mehnat unumdorligini 25% gacha oshirish imkonini beradi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, korxonalarda mehnat muhofazasi va xavfsizlikni ta’minlash nafaqat ijtimoiy mas’uliyat, balki iqtisodiy zarurat hamdir. Har bir korxona o‘z faoliyatida zararli omillarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishga e’tibor qaratishi orqali uzoq muddatli ijobiy natijalarga erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sholpan Abikenova, Gulnara Issamadiyeva, Elmira Kulmagambetova, Gulzhan Daumova, and D. Serikbayev, "Assessing Occupational Risk: A Classification of Harmful Factors in the Production Environment and Labor Process," Int. J. Safety

ISSN 3030-3907

and Security Eng., vol. 13, no. 5, pp. 871–881, Nov. 2023. doi: 10.18280/ijsse.130511.
2. Saodat Tolibovna Gulyamova, Siti Fardaniah Abdul Aziz, Nik Hairi Omar, and Rusyda Helma Mohd, "Workplace-Related Socioeconomic Issues Associated with Job Performance and Productivity among Employees with Various Impairments: A Systematic Literature Review," Soc. Sci., vol. 12, no. 5, p. 275, May 2023. doi: 10.3390/socsci12050275.
3. Zia Ullah, Mohammed Ali Bait Ali Sulaiman, Syed Babar Ali, Naveed Ahmad, Miklas Scholz, and Heesup Han, "The Effect of Work Safety on Organizational Social Sustainability Improvement in the Healthcare Sector: The Case of a Public Sector Hospital in Pakistan," Int. J. Environ. Res. Public Health, vol. 18, no. 12, p. 6672, Dec. 2021. doi: 10.3390/ijerph18126672.
4. Ružena Králiková, Ervin Lumnitzer, Laura Džuňová, and Anna Yehorova, "Analysis of the Impact of Working Environment Factors on Employee's Health and Wellbeing; Workplace Lighting Design Evaluation and Improvement," Sustainability, vol. 13, no. 16, p. 8816, Aug. 2021. doi: 10.3390/su13168816.
5. Asghar Afshar Jahanshahi, Alexander Brem, and Hussain Gholami, "Working in a Physically Dangerous Work Environment: Employee Vitality and Sustainable Behavior," Sustainability, vol. 11, no. 19, p. 5170, Sep. 2019. doi: 10.3390/su11195170.
6. Nilgün Ulutaşdemir, Habip Balsak, Özlem Berhuni, Emine Özdemir, and Esra Ataşalan, "The Impacts of Occupational Risks and Their Effects on Work Stress Levels of Health Professionals (The Sample from the Southeast Region of Turkey)," Environ. Health Prev. Med., vol. 20, no. 6, pp. 410–421, Jul. 2015. doi: 10.1007/s12199-015-0481-3.
7. Yılmaz Palancı, Cengiz Mengenci, Serkan Bayraktaroğlu, and Abdurrahim Emhan, "Analysis of Workplace Health and Safety, Job Stress, Interpersonal Conflict, and Turnover Intention: A Comparative Study in the Health Sector," Health Psychol. Rep., vol. 9, no. 1, pp. 76–86, Oct. 2020. doi: 10.5114/hpr.2020.99971.

ISSN 3030-3907

YO‘L-TRANSPORT HODISALARINI KAMAYTIRISHDA INTELLEKTUAL TRANSPORT TIZIMLARINING ROLI VA TAHLILIY YONDASHUVLAR (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Xakimov Mavlonbek Solijon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti, PhD doktoranti
E-mail: mavlonbekxakimov17@gmail.com
Tel.: +998 93 419 29 97
Yusupov Sarvarbek Sodiqovich
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, PhD., dotsenti
E-mail: sarvarbek.83@mail.ru
Tel: +998 90 217 54 27

Annotatsiya. Ushbu maqolada yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ularning samaradorligini oshirishda intellektual transport tizimlarining (ITT) roli yoritilgan. Xususan, “Avtomobil-haydovchi-yo‘l-piyoda-muhit” tizimining o‘zaro ta’siri, V2X va ADAS kabi ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi orqali inson omilini kamaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 2021–2024 yillar davomida Andijon viloyatida sodir bo‘lgan yo‘l-transport hodisalari statistikasi asosida ularning oldini olish choralariga ilmiy asoslangan yondashuvlar ishlab chiqilgan. Shuningdek, YTH ko‘rsatkichlarini miqdoriy, sifat va topografik usullarda tahlil qilish metodikasi keltirilgan. Tadqiqot natijalari yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar:, Yo‘l-transport, YTH, avtomobil-yo‘l, haydovchi-avtomobil, haydovchi-yo‘l, piyoda-yo‘l, tahlil, tizim, V2X, ADAS.

Абстрактный. В данной статье освещены мероприятия, осуществляемые в направлении совершенствования системы обеспечения безопасности дорожного движения, а также роль интеллектуальных транспортных систем (ИТС) в повышении их эффективности. В частности, проанализированы возможности снижения влияния человеческого фактора за счёт внедрения передовых технологий, таких как V2X и ADAS, в системе «автомобиль–водитель–дорога–пешеход–среда». В исследовании на основе статистики дорожно-транспортных происшествий (ДТП), произошедших в Андижанской области в 2021–2024 годах, разработаны научно обоснованные подходы к предупреждению ДТП. Также приведена методика количественного, качественного и топографического анализа показателей ДТП. Результаты исследования направлены на разработку предложений по

ISSN 3030-3907

эффективному внедрению цифровых технологий для повышения безопасности дорожного движения.

Ключевые слова: дорожно-транспортное происшествие, ДТП, автомобиль-дорога, водитель-автомобиль, водитель-дорога, пешеход-дорога, анализ, система, V2X, ADAS.

Abstract. This article highlights the measures being implemented to improve the road traffic safety system and the role of Intelligent Transportation Systems (ITS) in enhancing their effectiveness. In particular, it analyzes the potential to reduce human error through the introduction of advanced technologies such as V2X and ADAS within the "vehicle–driver–road–pedestrian–environment" system. Based on the statistics of road traffic accidents (RTAs) that occurred in the Andijan region between 2021 and 2024, scientifically grounded approaches to accident prevention are developed. The article also presents methodologies for quantitative, qualitative, and topographic analysis of RTA indicators. The research results aim to support the development of proposals for the effective implementation of digital technologies to enhance road traffic safety.

Key words: road traffic, RTA, vehicle-road, driver-vehicle, driver-road, pedestrian-road, analysis, system, V2X, ADAS.

Kirish

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish sohasida keng qamrovli tashkiliy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, YTH oqibatlarida o‘limga olib keluvchi holatlarni kamaytirish dolzarb bo‘lib, avtomobil yo‘llarida xavfsizlikni ta’minlash tizimini takomillashtirish zaruryatini ko‘rsatmoqda. Jumladan, harakat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l infratuzilma elementlarini transport vositalari bilan intigiratsiyalshuvida intellektual transport tizimlariga to‘la moslashtirish orqali inson omilini kamaytiruvchi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish talab etilmoqda [1].

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda aholining avtomobillar bilan ta’minlanganlik darajasi ortib borayotgan sharoitlarda mavjud avtomobil yo‘llarida dinamik o‘zgaruvchan axborotlar haydovchilarga taqdim etib borilmoqda. Bu borada, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi boshqa rivojlangan davlatlarda avtomobillarning harakat intensivligini hisobga olib, avtomobilni barcha narsalar bilan ta’sirlashuvi (vehicle-to-everything - V2X) ning aqlli texnologiyalarini samarali qo‘llash orqali transport oqimini tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichlarini optimallashtirish xususan yo‘l-transport hodisasi (YTH) ko‘rsatkichlarini kamaytirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda [2].

ISSN 3030-3907

ADABIYOTLAR TAHLILI. Dunyo tajribasida AQSH, Kanada, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, Xindiston va boshqa mamlakatlar ITT bo‘yicha ilmiy natijalarga erishgan. ITTni tashkil etuvchi komponentlarining turli obyektlar bilan uzaro ta’sir jarayonlarida transport xarakatini boshqarish, energiya va resurslarni tejash, avtomobil bilan infratuzilmani uzaro uyg‘unligi, avtomobilning EBTni optimallashtirish yo‘nalishlarida yirik tadqiqotchilar, jumladan: G.Nowacki, I.Kabashkin, S.Shaheen, R.Finson, O.Katerna, V.Debelov S.Zhankiev, D.Morozov, N.Sembayev, N.Stavrova, T.Hasegawa va boshqalar tomonidan ilmiy-tadkiqot ishlari olib borilgan [3-5].

R.Nilesh va L.Robertlarning ishlarida ITT ta’sirini baholashda olib borilayotgan tadqiqotlari kelajakda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan [6-7].

I.Razi, A.Stevens, E.Dahlman va K.Chailarning ilmiy-tadqiqot ishlarida avtomobil bilan infratuzilmaning o‘zaro ta’sirlashuvi o‘rganilgan. Ekspluatatsion sharoitda, avtomobillarga yaqinlashib kelayotgan yo‘l belgilari, xavfli burilishlar, temir yo‘l kesishmalari va hokazolar to‘g‘risidagi axborotlar qisqa masofali simsiz aloqa texnologiyalari orqali uzatilib, tasodifiy YTHning oldini olishga yordam berishi aniqlangan [8-9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Harakat xavfsizligini tashkil etish uchun aniq tadbirlar belgilashda asosiy tayanch ko‘rsatma sifatida YTHni har tomonlama obyektiv tahlil qilish usullaridan foydalangan holda olingan natijalariga asosan xulosalardan foydalaniladi.

YTHni tahlil qilishdan maqsad quyidagilardan iborat:

- harakat xavfsizligiga taalluqli “Avtomobil-haydovchi-yo‘l-piyoda-muhit” tizimiga kiruvchi har bir omilning faoliyatiga tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- har qanday boshqaruv tashkilotlari atrofida sodir bo‘ladigon YTHlarni holat darajalari va ularning o‘zgarish mohiyati hamda istiqboldagi o‘zgarishini bashorat qilish;
- YTH kelib chiqish sabablarini va ularni bartaraf qilish borasida tuziladigan ko‘rsatmalarni ishlab chiqish;
- YTH ko‘p sodir bo‘ladigan avariya o‘choqlarini aniqlash;
